
Firuza Invarovna Abdulxairova

***TIBBIYOT TERMINLARINI METAFORIK
MODELLASHTIRISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI***

(monografiya)

Taqrizchilar:

**A.Sh.Sobirov – Andijon davlat universiteti “O`zbek tili va adabiyoti”
kafedrasi professori**

**S.Normamatov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili va
adabiyoti universiteti professori**

**D.Sh.To`lanov – Andijon davlat tibbiyot institutining davolash fakulteti
dekani**

“BOOKMANY PRINT”

© ABDULXAIROVA FIRUZA INVAROVNA

TOSHKENT – 2024

UO'K: 61(038)

KBK: 52ya2

A 15

Abdulxairova, Firuza Invarovna.

Tibbiyot terminlarini metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlari [Matn]: monografiya / F.I. Abdulxairova. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 80 b.

Annotatsiya

Ushbu monografiyada tibbiy metaforaning kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilingan. Ishning asosiy maqsadi tibbiy atamalarni nominatsiya nazariyasi nuqtayi nazaridan, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini tavsiflash orqali metaforik modellashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganishdir. Ta'kidlash joizki, tibbiyot terminologiyasi va metaforalarning alohida mustaqil fanlar sifatida kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi haqida ma'lumotlar mavjud. Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning "Tib ko'nunlari" ("Tib ilmi kanoni") kitobi asosida sharqda tibbiyot terminologiyasining shakllanish tarixiga alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В данной монографии глубоко и всесторонне проанализированы аспекты медицинской метафоры. Основной целью работы является всестороннее изучение специфики метафорического моделирования медицинских терминов, описанием с позиций теории когнитивных и лингвокультурологических особенностей. Необходимо отметить, что монография содержит информацию об истории зарождения и развития медицинской терминологии и метафоры как отдельных самостоятельных наук. Также отдельное внимание уделено истории становления медицинской терминологии на Востоке, на основе книги Абу Али ибн Сино «Тиб конунлари» («Канон врачебной науки»).

Annotation

There are the cognitive and linguacultural aspects of the medical metaphor have been deeply and comprehensively analyzed in the monograph. The main purpose of the work is an extensive study of the specifics of medical terms metaphorical modeling, description from the standpoint of the theory of cognitive and linguacultural features. It should be noted that the monograph contains information about the history of the appearance and development of medical terminology and metaphor as independent sciences. Also, special attention is paid to the history of the formation of medical terminology in the East, based on the book of Abu Ali ibn Sino "Tib konunlari" ("Canon of medical science").

© **Abdulxairova F.I.**

ISBN 978-9943-8903-6-7

© **"Bookmany print" nashriyoti, 2024.**

Mundarija

Kirish.....	5-6
--------------------	------------

I Bob. Tibbiyotda dunyoning metaforik manzarasi.....	7
---	----------

1.1. G‘arb va Sharq tibbiyot terminologiyasining leksik qatlami (Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobi asosida).....	7-13
1.2. Epistemologik ilmiy metafora tushunchasi va ta’rifi.....	13-21
1.3. Tibbiyot tilining metaforik nominatsiyasi.....	22-27
Birinchi bob xulosalari.....	27-29

II Bob. Tibbiy metaforalarning funksional-pragmatik xususiyatlari.....	30
---	-----------

3.1 Zamonaviy dunyoning lisoniy manzarasida “tibbiyot” tili.....	30-39
3.2 Tibbiyot termin-metaforalari kognitiv fenomen sifatida.....	39-48
3.3 Tibbiyot termin-metaforalarining milliy-madaniy xususiyatlari.....	49-59
Ikkinchi bob xulosalari.....	59-62

Xulosa.....	63-66
--------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	77-80
--	--------------

KIRISH

XX asr insoniyat tarixidagi global va ulkan o'zgarishlar va burilishlar, jahon tilshunosligida mutlaqo yangi ilmiy qarashlar, g'oyalar, yondashuvlar va hattoki o'z maktablariga ega yangi fanlar, bo'limlar va mustaqil yo'nalishlar paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi XXI asr ushbu yangiliklarni rivojlantirishda, ularni to'liq takomillashtirish va sozlashda davom etmoqda. Bundan o'zbek tilshunosligi ham chetda emas. Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan so'nggi 3 yil mobaynida ona tilimizning nafaqat mamlakatimizda, balki butun dunyodagi mavqeini ko'tarish, shuningdek, nutq madaniyati va aholimizning til savotxonligi darajasini oshirish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 2019 yilda Prezident "chuqur tahlil asosida, bugungi talablardan kelib chiqqan holda" 30 yil oldin qabul qilingan "Davlat tili haqidagi qonun"ni mukammallashtirish to'g'risida ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, dolzarb vazifalaridan biri qilib "davlat tilidan fundamental ilmda, zamonaviy informatsiya va kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, ishlab chiqarish, bank-moliya tizimida, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va boshqa yo'nalishlarda keng foydalanish lozim"¹ ligi belgilab qo'yildi. 2020 yilning 20 oktyabrida mamlakatimizda o'zbek tilini keyingi rivojlanishi va til siyosatini mukammallashtirish to'g'risidagi qonun imzolandi. Ushbu xujjatda 2020-2030 yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini mukammallashtirish Konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda o'zbek tili va uning dialektlari xususiyatlarini, tarixi va rivojlanish istiqbollari bilan bog'liq masalalarni, sohalar terminologiyasini ilmiy asosda ishlashga katta e'tibor berildi. Bular ichida barchaga birdek zarur va qiziqtiruvchi sohalardan biri tibbiyot terminologiyasidir.

Ta'kidlash lozimki, so'nggi bir necha yillar mobaynida, tillarni o'rganish tushunchasi va unga yondashuv tubdan o'zgardi. Kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvomadaniy yo'nalishlarining paydo bo'lishi va tilni antropotsentrik nuqtayi nazaridan o'rganish eskirishga ulgurgan, ko'p ta'rif va xulosalarga bo'lgan munosabatlarni keskin o'zgartirdi. Bu ilgari faqat badiiy metod hisoblangan metaforaga ham tegishli. Lakoff va Djonsonlarning kognitiv lingvistika haqidagi "Biz yashaydigan metaforalar"² asari paydo bo'lganidan buyon ilmiy jamiyat metaforalar uchun "yangi hayot"ning boshlanish punktiga yetib keldi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi. – Toshkent, Xalq so'zi / <https://xs.uz/uzkr/post/til-millat-kozgusi>.

² Lakoff G. and Johnson M. *Metaphors we live by*. – Chicago and London: University of Chicago Press, 1980.

Bugungi tezkor davr bizga o'z qonun-qoidalarini belgilab bermoqda va undan orqada qolishga vaqtimiz ham haqqimiz ham yo'q. Yangiliklar nafaqat har kuni, balki har soatda sodir bo'layotgan zamonaviy globalizatsiya dunyosida barcha tillarning leksik qatlamiga har kuni yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Albatta, uning asosiy hajmi maxsus terminologik tizimga to'g'ri keladi. Axir, har qanday ilmning rivojlanish asosi undagi konseptual apparatining ilmiy terminologiyasi sanaladi. Ushbu manzaraning oldi qatorida tibbiyot terminologiyasi joylashgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Katta tibbiyot qomusiy lug'atlar uch yuz ming va undan ziyod terminlarni o'z ichiga oladi. Bu esa, o'z navbatida, ushbu terminlarni va boshqa tillardan olinayotgan o'zlashmalarni o'rganish, tartibga solish va standartizatsiya qilishning ahamiyati va hajmini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Ushbu monografiyada o'zbek tilidagi tibbiyot terminologiyasining metaforik manzarasi ustidan tadqiqot olib borilgan. Tibbiyot metaforalarini tuzilishida ilmiy yondashuvlarni va metodlarni aniqlashga harakat qilingan. Ilmiy ishning tarkibini shakllantirishda tibbiyotning metaforik obzorini har tomonlama to'la qamrab olishga e'tibor qaratilgan. Tilshunoslikning ikkita bunday dinamik rivojlanayotgan va ahamiyatli bo'lgan metafora va tibbiyot yo'nalishlarining kesishuvi ilmiy tadqiqotimizning dolzarbligi va zaruratini belgilab berdi.

I BOB. TIBBIYOTDA DUNYONING METAFORIK MANZARASI

1.1. G'arb va Sharq tibbiyot terminologiyasining leksik qatlami (Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobi asosida)

Ma'lumotlarga ko'ra, buyuk mutafakkir, faylasuf, qomusiy olim Abu Ali Husayn ibn Abdullah ibn Hasan ibn Ali 450 dan ortiq asar yaratgan bo'lib, shundan 242 tasi shu kungacha yetib kelgan. Ularning 43tasi tibbiyot, 19tasi mantiq, 26tasi psixologiya, 23tasi fizika, 7tasi astronomiya, 1tasi matematika, 1tasi musiqa, 2tasi kimyo, 4tasi adabiyot sohalariga tegishli sanaladi. Uning meditsina sohasida yozgan asarlari alohida ajralib turadi. Abu Ali ibn Sino jahon tibbiyot ilmiga asos solgan alloma sanaladi. Shu bois uni Yevropada Avitsenna nomi bilan e'zozlashadi.

Uyg'onish davrining buyuk daholaridan biri Mikelanjelo u haqda shunday deb yozgan edi: "...Boshqalarni maqtab haq bo'lishdan ko'ra, Galen va Avitsennani maqtab nohaq bo'lgan afzalroq". (Petrov, 1962, 12 b.)

Tibbiyotning rivojlanish tendensiyalari va uning fan sifatida shakllanish tarixi haqida gapirganda, "Tib qonunlari"ni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. 1020 yil atrofida tugallangan, tibbiyotdagi asosiy asar hisoblanuvchi "Tib qonunlari" eng muhim ishlardan biri sifatida e'tirof etilgan va dunyo shifokorlari uchun bosh qo'llanma bo'lgan. "Tib qonunlari" XII asrda Toledoda arab tilidan lotin tiliga tarjima qilinib, butun Yevropa bo'ylab ko'plab arab, ibroniy va lotin nusxalarida tarqatildi. Bosma nashr paydo bo'lgach, Yevropada 30 martadan ortiq bosib chiqarildi.

Asar universitetlarning tibbiyot fakultetlarida XVII asrgacha, oftalmologiya sohasida XVIII asrgacha asosiy darslik bo'lib xizmat qilgan hamda ibn Sinoga dunyo miqyosida shuhrat olib kelgan. "Tib qonunlari" – qadimgi dunyo tibbiy bilimlarining qomusiy to'plami bo'lib, unda qadimgi Yunon, Rim, Hind va O'rta Osiyo shifokorlarining qarashlari va tajribasi umumlashgan.

“Tib qonunlari” o‘n bir asrdan ko‘proq vaqt mobaynida shakllangan tibbiy atamalar tizimini sistemalashtirishga qodir bo‘lgan noyob manbadir. U yunon, lotin, rim, hind va arab tillaridangi so‘zlarning etimologiyalarini³, atamalarning o‘ziga xos jihatlarini o‘z ichiga olgan va umumlashtirgan manba sanaladi.

Ibn Sino mazkur asari bilan XI asr boshlarida tibbiyot sohasidagi tajribalarni, qarashlarini, oqimlarni bir yerga jamladi. Shu tufayli “Tib qonunlari” tibbiyot va uning terminologiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Ibn Sino bu asarida chechak, vabo, o‘lat, maxov kabi epidemiologik kasalliklarning nomlari va ularning belgilari haqida ishonarli fikr-mulohazalarni ilgari surdi. Dunyo ilm-fanida birinchi bo‘lib, chechakning yuqishiga e‘tiborni qaratdi, vabo va o‘latning farqini aniqladi, moxovni boshqa kasalliklardan ajratib, ta‘rifladi. Bu esa kasllik nomlarini bir-biriga solishtirish, ularning ma‘no qirralari haqida o‘ylash imkonini berdi.

Ibn Sino “Tib qonunlari”ning birinchi bandidayoq tibbiyotning ta‘rifini va uning vazifalarini belgilab bergan: “Men aytamanki: tibbiyot – inson organizmining holatini o‘rganuvchi fandir. Chunki, inosn sog‘lom bo‘ladi yoki sog‘lig‘ini yo‘qotadi, tibbiyot inosn sog‘lig‘ini saqlab qolish yoki yo‘qotilsa uni qaytarish uchun xizmat qiladi”.

“Tib qonunlari” tibbiyot fani uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramasdan, hozirgacha uning lingvistik jihatlariga, ayniqsa, asarda qo‘llangan terminlar o‘rganilmagan va tahlilga tortilmagan. So‘nggi o‘n yilliklarda o‘zbek tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, gender lingvistikasi kabi zamonaviy sohalar tobora rivojlanib borayotganida bu holat yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Biz o‘zbek tilida ilk bor “Tib qonunlari”ning linggvistik qirralarini aniqlashga, xususan, yurak-qon tomir sohasiga oid terminologik tizimni tahlil qilishga intilib ko‘rdik, arab tilidan kirib kelgan atamalarni aniqladik. Bu holat tibbiyot fani tarixidagi qorong‘i sahifalarni oydinlashtirishga ham yaqindan yordam berishi mumkin. Chunki, IX-X asrlarda antik davr shifokorlarining deyarli barcha asarlari yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan. Bu esa arab tilida ko‘plab tibbiy adabiyotlarning paydo bo‘lishiga va tibbiyot terminologiyasining xorijiy so‘zlar bilan boyishiga olib kelgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, arab tilidan dastlabki lotin tiliga tarjimalar Solern tibbiyot maktabi o‘qituvchisi Konstantin Afrikanskiy tomonidan o‘n ikkinchi asrda bajarilgan. XII asrda Gerard Kremonskiy (1114-

³ Ibn Sino o‘z asarlarida tibbiyotdagi ba‘zi termin va tushunchalarga o‘z ta‘riflarini berib ketgan. Ularning bir nechitasi xalqaro tibbiyot terminshunosligida hozirga qadar faol qo‘llanmoqda.

1187) arab tilidan lotin tiliga 70 dan ortiq asarni, ular qatorida “Tib qonunlari”ni ham tarjima qilgan. Muhimi, u tibbiyot sohasiga oid maxsus iboralarning mukammal lug‘atini ham tuzgan. Biroq, mazkur tarjimalar sifati qoniqarsiz bo‘lib, ular har ikkala tilda yagona terminologik qatlamning yaratilishi uchun to‘siq bo‘lgan. Bir tildan ikkinchi tilga amalga oshirilgan ko‘p martalik va ko‘p bosqichli yuqoridagi kabi tarjimalar tufayli faqat tibbiyot terminologiyasi jabr tortgan. Tarjimonlarning aksariyati arab tilini va tibbiy terminologiyani yaxshi bilmaganliklari va yunon so‘zlarining arabcha transkripsiyasini adashtirganliklari, nusxa qo‘chiruvchilarning aybi tufayli juda ko‘p xatoliklar sodir bo‘lgan.

Shundan buyon “Tib qonunlari” tarjimalari turli tillarda ko‘p marta qayta nashr etilgan. Tadqiqotimizning asosida U.I.Karimov va M.A.Sale tomonidan 1979 yili arab tilidan rus tiliga hamda A.Rasulov va A.P.Kayumov tomonidan arab tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan “Tib qonunlari”ning ikki tarjimasini qiyosiy tahlil qilish natijasida olingan tibbiyot terminologiya yotibdi.

“Tib qonunlari” asari shifokorlar uchun qo‘llanma sifatida yaratilgan. Asosiy e’tibor o‘simliklar nomiga, dori-darmonlariga qaratilgan, yurak kasalliklari uchun qo‘llaniluvchi dori vositalariga alohida bob ajratilgan. Birinchi jilddagi “Arteriyalar”, “Tomir” va “Puls”, uchinchi jilddagi “Yurakning turli holatlari” bo‘limi yurak-qon tomir tizimiga, ya’ni kardiologiyaga bag‘ishlangan. O‘z-o‘zidan tadqiqqqa oid terminlar ham shu sohalarga aloqador bo‘lib chiqadi. Ushbu bo‘limlarda quyidagi atamalarning qo‘llanilishi qayd etildi. “Tomir” bo‘limida:

1. “بواب ينف ي نـا” (qazish)” – lotinchadan “porta” – kirish, venaportae – qopqa tomir (darvoza venasi).
2. “الوريد ي نـا” – lotinchadan “venacava” – jigardan oziqa moddalarni organlarga yetkazib beruvchi kovak vena (kovak vena).
3. “إبط ي ت ي نـا” – lotinchadan “venaaxillaris” – aksillyar (qo‘ltiq osti) vena, yelka (xumerus) bo‘ylab qo‘lga (qo‘ltiq vena) o‘tuvchi vena.
4. “كفال ي فاس” (kifal)” – arab tilida, lotinchada “venacephalica” – lateral teri osti vena.
5. “ت و سا” (tusa)” – arabchadan kelib chiqqan, arteriya uchun tirgak hamda arteriya va umurtqa suyagi orasidagi to‘siq vazifasini bajaruvchi bo‘sh go‘sh.
6. “الآخاء” (akhal)” – arabchada qora tomir, bilak sohasida deltasimon ajralgan lateral ter osti venasining o‘simtasi.

7. “Ko‘richak” lotincha “caecus, cecum”dan – ko‘r (ko‘r ichak), Ibn Sino “رأى (bir ko‘zli)” deb atagan.

8. Miya qattiq qobig‘ining venoz sinuslari qo‘shilishini “المعصرة (bosim)” (siqib chiqaruvchi joy) deb nomlagan.

“Arteriyalar” va “Puls” bo‘limlarida arab tilidagi terminlar aniqlanmagan, lekin ibn Sino puls, puls turlari, arteriyalar va boshqa shu kabi tushunchalarga o‘z ta’riflarini bergan.

“Tib qonunlari”da jarayonlar yoki tizimlarni aniqlash uchun maxsus iboralar va so‘z birikmalaridan foydalanilganligini kuzatdik. Masalan: “temirchi suvi” – o‘rta asr yevropalik shifokorlar “temir suv” – aquaferrantium deyishgan; “bachadon bo‘g‘ilishi”, baxmalsimon qobiq parda (baxmalsimon to‘r) – vena va ko‘tariluvchi arteriyadan to‘qilgan membrana(parda), bilakning “arqon”i (“bilakarqoni”) va boshqalar.

Uchinchi jildda “Yurakning turli xolatlari” bo‘limida arab atamalaridan faqat ikkita aniqlangan.

1. “كولانج(kulanj)” – arab tilidan ichaklarning kasalligi, uning natijasida tabiiy ravishda chiqadigan narsalardan xolis bo‘lish qiyinlashadi. So‘zning haqiqiy ma’nosida “kulanj” – og‘riqning nomi, yo‘g‘on va unga yaqin joylashgan ichaklardagi sovuqlik va zichlik sababli paydo bo‘ladi.

2. “حَيْضٌ (haida)” – arab tilidan “oqim, hayz tartibi”. Shariatdagi ma’nosi: balog‘atga yetgan ayollarda bachadondan ma’lum kunlarda jinsiy a’zolardan tashqariga chiqadigan qon.

Qizig‘i shundaki, arab tilining ko‘p asrlik ustunligi, shuningdek, o‘rta asrlarda lotin va yunon tillaridan arab tiliga, va aksincha, arab tilidan lotin va yunon tillariga tarjima qilish jarayonida tibbiyot leksikasining yuzlab arabizmlar bilan to‘lganiga qaramay, arab tili tibbiy terminologiyada deyarli iz qoldirmagan. Faqat Abu Ali ibn Sino tomonidan kiritilgan va u tomonidan “Tib qonunlari”da qo‘llanilgan bir necha arabizmlar saqlanib qolgan xolos.

“Tib qonunlari”ni lotin tiliga tarjima qilganda Gerard Kremonskiy bir qator xatolarga yo‘l qo‘ygan, bu esa arabcha atamalarining buzilishiga va tibbiy atamalar orasida neologizmlarning shakllanishiga olib kelgan. Misol uchun, yurak-qon tomir tizimi bilan bog‘liq atamalarga kelsak, anatomik nuqtayi nazardan o‘ziga xos nomlarni qayd etishimiz mumkin, masalan, “venacephalica” (bosh vena)

qo‘lning lateral teri osti tomirining nomi tarjimonning etimologik xatosi natijasidir. Arab tilidagi asliyatda al kifal (tashqi, ustki) so‘zini tarjimon yunoncha kifalē (bosh) bilan adashtirgan. (Tibbiy yo‘riqnoma, 2005)

Quyidagi atamalar 1) «قازيش» (qazish) – venaportae – qopqa vena (darvoza vena); 2) «الوريد دمي» – “venacava” – kovak vena; 3) «فينا إي طبي» – “vena axillaris” – qo‘ltiq osti vena (qo‘ltiq vena) o‘z ekvivalentlarini arab tilidan quyidagi tamoyillarga ko‘ra paydo bo‘lgan: a) bevosita tarjima qilish yo‘li bilan, ya’ni semantik ko‘chish orqali; b) o‘xshatish yo‘li bilan; s) ma’lum bir xususiyati: vazifasi, rangi, tashqi ko‘rinishi orqali.

«قازيش» so‘zi arabchadan “darvoza” deb tarjima qilinadi, shuning uchun «venaportae» atamasi «قازيش» (qopqa) deb tarjima qilingan va hokazo.

Arab tili terminlarining quyidagi guruhi tibbiyot terminologiyasida saqlanib qolmagan, ularning lotin yoki yunon tilidan olingan ekvivalentlaridan foydalanilmoqda. Masalan: «توسا» (tusa) – bo‘sh go‘sht, «الاءاء» (akxal) – qora tomir, “ko‘richak” – «الأءور» (bir ko‘zli ichak), «المءصرة» (bosim) – siqib chiqaruvchi joy.

«كولاء» (kulandj) – ichak kasalligi degan atamaga kelsak, Ibn Sino bu kasallikka nom berib, “yo‘g‘on ichak”ning lotincha nomi «colon»ni asos qilib olgan.

Kasalliklarni aniqlash va davolashda qadimgi sivilizatsiyalar tibbiyotining yutuqlari haqidagi ma’lumotlarni Vavilon mixxat yozuvlaridan va qadimgi Hind vedalaridan, Misr papirusi va Xitoy iyeroglif qo‘lyozmalaridan olish mumkin. Yevropa mamlakatlari tibbiyoti haqida bizgacha yetib kelgan dastlabki yozma manbalar bu – Alkmeon Krotonskiyning (miloddan avvalgi VI asr) tibbiy matnlarining bir necha parchalaridir. Qadimgi antik dunyo inqiroziga qadar xalqaro tibbiyot tili bo‘lib xizmat qilgan, turli etnik guruhlar shifokorlari uchun professional o‘zaro tushunish vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Yunoniston (146 y.) va uning sobiq mulklari ustidan Rim hukmronligi o‘rnatilganidan o‘n yillar o‘tib, yunon tibbiy terminologiyasi lotinlashtirila boshlangan. Shu asosda XI asrda mavjud bo‘lgan yunon va lotin tillariga suyangan holda arab tilidagi tibbiy adabiyotning shakllanishi boshlandi. “Tib qonunlari” uchun ma’lumotlarni tayyorlash shu “arablashish” paytining eng rivojlangan davrida, ya’ni ibn Sinoning Buxoro kutubxonasidagi faoliyati davriga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrda unda barcha belgilari bilan kasallik nomini, uning yuzaga kelishi va qanday tuzalishi haqida ko‘rsatma beruvchi, tibbiyotga oid ma’lumotlarni umumlashtiruvchi asar yaratish

fikri paydo bo'lgan. (Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari", 1979, 52 b.). Buning uchun Abu Ali ibn Sino Yevropadan olib kelingan turli tibbiy kitoblardan kerakli ma'lumotlarni olib, ularni vaqti-vaqti bilan umumlashtirib borgan. Shu bois ushbu asar G'arb tibbiy leksik qatlamini tadqiq qilishga ham asos bo'la oladi.

Asarning "Arteriya", "Vena", "Puls" bo'limlari va V jilddagi "Yurakning turli holatlari" bo'limini o'rganib, yunon va lotin tillaridan o'zlashgan 160 dan ortiq, arab tiliga oid 20 ga yaqin terminlarni aniqladik. Shuni aytish kerakki, asardagi yunon va lotin atamalarining hammasi ham asl ma'nolarida qo'llanmagan. Ibn Sino o'z tadqiqotlari va amaliyoti davomida ularning semantikasiga ayrim o'zgarishlar kiritib, ularga o'zining ta'riflarini bergan. Masalan: hushdan ketish, shish, shok, kollaps, qon tomirlari, arteriyalar, yurak bo'shlig'i, venalar, vena kavagi, vena, "bir ko'zli" ichak, skapulyar vena, ladven vena, abscess, puls va uning turlari kabi 40 ga yaqin terminlar bunga misol bo'la oladi.

"Tib qonunlari"da faqat dorilarning yangi nomlari, ibn Sino tomonidan kiritilgan turli tibbiy jarayonlar va anatomik atamalarning ta'riflari arabcha asosga ega. Misol uchun: «سد ي فاس» (kifal) – arabchadan lotinchaga "venacephalica" deb o'zlashgan; «الاءاء» (akxal) – arab tilida qora tomir, bilak sohasida deltasimon ajralgan lateral ter osti venasining o'simtasi ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, muallif tomonidan ayrim o'zgarishlarga uchragan atama va ta'riflar "arablashishgan" yoki tarjimonlarning xatosi bilan asl ma'nosini yo'qotgan. Masalan: o'rta asr Yevropa shifokorlari «temir suv – aquaferrariorum» deb atagan, ibn Sino esa «temirchi suvi» deb nomlagan; «ko'richak»ni, lotincha "caecus, cecum" – ko'r, ibn Sino «الأءور» (bir ko'zli); miya qattiq qobig'ining venoz sinuslarining birlashishini «المءصرة» (bosim) deb atagan.

Yuqoridagi materialdan va olib borilgan tahlillardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Abu Ali ibn Sino asarida qo'llanilgan atamalarning aksariyati yunon va lotin tillaridan kelib chiqqan. Bizningcha, buyuk olim "Tib qonunlari" asarida Yevropaning atoqli shifokorlari tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan asarlarni tahlil qilib, tibbiy terminologiyani jahonda birinchi marta sistemalashtirgan. Bu harakat o'z navbatida tibbiyotda olingan bilimlarni yo'qotmaslikka va saqlab qolishga yordam bergan. Shu bilan bir qatorda ibn Sino Gippokrat, Galen, Dioskoridlar kabi qadimgi antik tabiblarning asarlarini tahlil qilgan, qayta ko'rib chiqqan va ularni o'z kitobida kuzatishlari va amaliyotiga mos ravishda to'g'ri bayon etgan. U tomonidan kardiologiya sohasiga arab tilidan 13ga

yaqin yangi terminlar kiritilgan. 100ga yaqin terminlar ta'rifini muvofiqlashtirgan va soha terminologiyasida sinonimiya hisobiga ko'payishining oldini olgan. Bu esa o'sha davr tibbiyot terminologiyasida yunoncha, lotincha atamalarining ko'pligini bildiradi va o'sha paytda arab terminlarini jadal rivojlanishidan aziyat chekayotgan tibbiy terminologik tizimni tartibga solish imkonini bergan.

2. «Tib qonunlari» butun dunyo, Yunoniston, Rim imperiyasining yetakchi shifokorlari tajribasini o'z ichiga olgan qomusiy asardir. Uning leksik qatlami o'sha davrning xalqaro tibbiyot tili sifatida tan olingan va yunon hamda lotin tillari terminologik qatlamlarida muhim o'rin tutgan.

3. O'sha davr tibbiyot terminologiyasining asosini yunon va lotin tillaridan olingan atamalar tashkil etgan va uning ko'lami Sharqqa to G'arbga qadar cho'zilgan edi.

4. «Tib qonunlari» asari o'sha davr tibbiyotida faol qo'llangan kardiologiyaga oid terminlarni saqlab qolish va shu bilan birga boshqa tibbiy terminlardan keng foydalanishga, ularni saqlab qolishga imkon berdi.

1.2 Epistemologik ilmiy metafora ta'rifi va tushunchasi

Aniq fanlarning rivojlanishi tilga, uning rivojlanish qonunlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi va sohada butunlay yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, semiotika kabi zamonaviy yo'nalishlar tafakkur va til o'rtasidagi barcha cheklovlarning olib tashlashni talab qildi, tilni ilmiy va nazariy bosqichlarda evristik vositaga aylantirdi. Til – shaxs yoki umuman jamiyatda sodir bo'layotgan barcha murakkab kognitiv, psixologik va ijtimoiy jarayonlarning mahsulidir. Bu, shubhasiz, tilshunoslikda ilmiy bilish paradigmasining o'zgarganligiga borib taqaladi. Bugun tilning tuzilishi va tarkibiga asosiy e'tibor beradigan strukturalizm tushunchasi antropotsentrikaga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Bu esa til egalarini til fanining markazida, barcha narsalarning o'lchovi sifatida tekshirish imkonini berdi.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoni bilish vositasi bo'lib, voqelikni bilish, anglash, o'zlashtirish, qabul qilingan axborotni keyingi avlodlarga saqlash

va uzatish vositasidir. Nimanidir bilish va anglab yetish yangi ma'lumotlarni oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga, mavhum narsalarni aniqlashtirishga, faktlarni solishtirishga yordam beradi va metaforani tildagi yangi axborotni bilish va kodlash vositalaridan biriga aylantiradi. Buning natijasida ilmiy diskurslarda metaforalardan badiiy-adabiy usul sifatida foydalanish tabiiy hodisaga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda ilmiy matnlar ilmiy bilimlar zaxirasi, ularni uzatish usuli bo'lib xizmat qiladi. "Ilmiy matnlarda metaforaning o'rnini qanday?", "Ilmiy-nazariy bilimlarda metaforani qo'llash o'rinlimi?" degan savollar ilmiy mantiqiylik muammolari, ilmiy bilimning haqqoniy holati, fanning madaniyatdagi o'rnini haqidagi zamonaviy munozaralar markazida turganligi hech kimga sir emas. "Metafora ilmiy fan "qolipiga" tushadimi?", "Fanda metaforaning o'lchovi qanday?" – bular biz tadqiqot olib boradigan asosiy muammolar sanaladi.

Metafora maqomi hozirgi zamon tilshunosligining markaziy masalalaridan biridir. Bu XIX asr o'rtasida boshlangan til faoliyati muammosiga nazariy qiziqishning avj olgani, turli diskurs va madaniyat sohalarida metaforik birikmalarning maxsus rolini anglash, metafora tabiatini lingvistik, kognitiv, mantiqiy-semantik, semiotik, psixologik, uslubiy va boshqa jihatlari bilan birlikda o'rganish imkonini beruvchi, fanlararo metaforologiya bo'limining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Klassik fan markazlashuvini rad etish, ilm-fan va boshqa bilim amaliyoti va diskurslar o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi, ilm-fan tushunchasining o'zgarishi nafaqat fanni kognitiv tizim sifatidagi chegaralovchi asoslarning o'zgarishini bildiradi, balki uning uslubiy me'yorlari, qoidalari va konseptual vositalarini (metafora ham bular ichiga kiradi) qayta ko'rib chiqilishini anglatadi.

Ma'lumki, T. Gobbs va J. Lokk ta'kidlashlaricha, bizning tajriba sohamizdagi bilim – asosiy maydon (source), boshqa mavhum maydon – maqsad maydoni (target)ga ko'chadi va uni tushunish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi (Lakoff J., Djonson M., 1990. 387-415 bb.). Ushbu ilmiy nazariyaga asoslanib, o'tgan asrning o'rtalariga qadar olimlar ilmiy nazariyalar va ta'riflarning metafora bilan mos kelmasligi haqida gapirishgan. Biroq, til ta'limotida yetakchi rol o'ynagan, antropotsentrizm metaforaga nisbatan munosabatning umumiy o'zgarishiga va fanning an'anaviy qiyofasini qayta ko'rib chiqishga olib keldi, metaforaning fandagi o'rnini baholash ham o'zgardi.

«Ma'lum bo'lishicha, atama va iboralarning aniqligi va bir ma'noligining istalgan idealiga erishishi oxir-oqibatda ilmiy tilning yo'qolishiga, uning

gnoseologik va evristik imkoniyatlarining keskin pasayishiga olib keladi» (Polozova I. V., 2003, 325 b.). Shu munosabat bilan, ilmiy diskursda, I.Polozovaning fikriga ko'ra, metaforaning eng muhim vazifalaridan biri tushuntirishdir, chunki metafora aralashuvisiz hodisaning ma'nosini tushunish juda qiyin kechadi. Ko'pincha aynan metafora yordamida tadqiqot yoki kashfiyot ma'nosini yanada aniqroq yetkazish mumkin bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, metafora turli ilmiy hodisalarni ta'riflashda aniqlikni ta'minlaydi, aks holda ularni tasvirlash qiyinlashgan bo'lardi. Metafora bo'lmasa, ilmiy tilning asossiz kengayishi sodir bo'ladi va ko'pincha bu stilistik istiora ilmiy fikrni ifodalashning eng keng va ixcham usuli sanaladi. I. V. Polozova yana shuni ta'kidlaydiki, ilmiy metaforaning asosiy vazifasi inson tafakkuri va idrokining ufqlarini uning yordamida kengaytirishdir, chunki faqat metafora orqali yangi ma'nolar fanga kirishi mumkin (Polozova I. V., 2003. 325 b.).

Aristoteldan boshlab metafora, eng avvalo, lisoniy hodisa, nutq shakli, bir obyektning xususiyatlarini ikkinchisiga ko'chirishga asoslangan lingvistik usul sifatida o'rganilgan. Tilshunoslik, ritorika va adabiyotshunoslik doirasida ishlab chiqilgan an'anaviy yo'nalish doirasida til metaforasining asosiy vazifalari va xususiyatlari aniqlangan (A. A. Potebnya, R. Yakobson va A. F. Losev). XIX asr oxirlaridan boshlab metaforik tadqiqotlar, madaniyatshunoslik, antropologiya, psixologiya va falsafa (shu jumladan, ilm-fan falsafasi) sohalarini qamrab ola boshlagan. (V.N.Toporov, V.V.Ivanov, O.M.Freydenberg, Yu.M.Lotman, Ye.Kassirer)

XX asrning 60-70-yillarida fanlararo tadqiqotlarni rivojlantirish negizida metafora muammosi kognitiv-mantiqiy paradigmaga o'tkazildi: uning epistemik maqomi ishlab chiqildi, turli xil diskurslarda metaforik birikmalarni deskripsiyalari amalga oshirildi, uning kognitiv va kommunikativ vazifalari o'rganildi (N.D.Arutyunov, V.N.Teliya). Metaforani ijtimoiy harakatlar kontekstida ma'no hosil qiluvchi tuzilma sifatida tahlil qilinishini ta'kidlash mumkin; madaniy ma'nolarni joriy yetish, o'zgartirish va translyatsiya qilish mexanizmi sifatida uning me'yoriy-qiyamat ahamiyati aniqlandi (L.D.Gudkov).

Ye. Kassirer bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki turdagi fikrlash mavjudligi haqida gipotezani ilgari surdi: diskursiv-mantiqiy va lingvistik-mifologik. U tilni chuqur mifologik tuzilmalarni o'z ichiga olgan asosiy metaforik mohiyatlarga taalluqli deb biladi (Kassirer, 1990, 33-44 bb.). Uning nazariyasiga ko'ra, mifologik, irratsional va mantiqiyliklarni birlashtirish natijasida, analogiyani intuitiv topish uning keyingi ratsionalizatsiyasini birlashtiruvchi metaforik ma'nosining paydo bo'lishiga olib keladi.

Metaforaga bo'lgan katta qiziqishlarga qaramay, uning epistemologik (gnoseologik) salohiyati haqidagi masalaning paydo bo'lishi va o'rganilishi yaqinda boshlandi. Shaxsning mavjud tajribasida o'xshashlikni intuitiv izlashga asoslangan metaforik mexanizmlar epistemologiyani asosini tashkil etadi. "Metaforik model, mavjud bilim va tajriba narsalar mohiyatini yangi noma'lum qismlarga o'tkazish imkonini berishi sababli, metaforaning epistemologik funksiyasi kelib chiqdi va ekspressiv funksiyasidan ko'ra muhimroq sanala boshlandi" (Mishankina N. A., 2010, p. 100). Metaforik mexanizmlarni falsafiy tushunish bizni metaforani tilda yangicha baholashga undaydi: til metaforalari, avvalo, bilish va o'rganish maqsadida yaratiladi. Bu mexanizm yangi modelni fandagi dastlabki taqdimotida ishlatiladi: "Metafora intellektning qo'lini uzaytiradi," – deydi X.Ortega-i-Gasset. (X.Ortega-i-Gasset, 1990, 68-82 bb.)

Metaforani nutq mexanizmi sifatida va uning ilmiy diskurslardagi rolini o'rganish, garchi, uzoq vaqtdan beri boshlangan bo'lsa-da, aniq formulalar, atamalar va ta'riflarni afzal ko'ruvchi ilm-fan dunyosida uning ahamiyati haqida ko'plab savollar paydo bo'lmoqda. Metaforani ilm-fanda ommalashtiruvchi asosiy vazifalaridan biri bu – nutqda so'zning ishlatilishi va ma'nosini ko'paytirishdir. Keng ma'noda "metafora" atamasi so'zlarni bilvosita ma'noda ishlatishning har qanday variantlarini nazarda tutadi (Baranov A.N., Karaulov Yu.N., 1991, 193 b.).

"Metafora" so'zi yunoncha "olib o'tish" degan ma'noni bildiradi: u voqelikning bir sohasidan boshqasiga ma'noni ko'chiradi. Muallif ta'rifiga ko'ra, metafora – shaxsning tajribasini bir sohadan ikkinchi sohaga ko'chirishdir. Muvaffaqiyatli metafora yangi g'oyalar, tushunchalar va atamalarni keltirib chiqaradi. Metafora mavhum tushunchani vizual tasvir shaklida taqdim etish imkonini beradi. "Alisa mo'jizalar mamlakatida" sindromi bu psixiatriyaning murakkab nazariyasi, uning ortida hech qanday mo'jizaviylik yoki qiz bilan bog'liq narsa mavjud emas. Ammo, bu kasallikning mohiyatini ochib beradigan va ongimizda ushbu kasallikning qisqacha tushunchasini keltirib chiqaradigan, bolalar ertagidan olingan metafora emasmi? Aynan, britaniya psixiatri Djon Todd tibbiyotda odam o'z tana qismlari yoki atrof-muhitni va undagi predmetlar o'lchamini to'g'ri anglay olmaydigan asab tizimidagi buzilish kasalligini Lyuis Kerroll ertagi nomi bilan atagan. Bu hammaga ma'lum ertak qahramoni Alisaning mo'jizalar mamlakatiga tushib qolganidan so'ng boshidan kechirgan sarguzashtlari: judayam katta bo'lib o'sib ketishi yoki kichrayib qolishi, bo'yni cho'zilib ketishi yoki yelkalarining yo'qolib qolishidan paydo bo'lgan assotsiatsiyaga asosan ma'no ko'chirilgan.

Ilmiy uslub kundalik-adabiy, nashriy-siyosiy, sanoat-texnik, rasmiy uslublar bilan birga tilning funksional uslublaridan biridir. Funksional uslub T.Popovaning fikriga ko'ra, tilning muayyan ijtimoiy ahamiyatli sohasida odamlarning ijtimoiy-nutq amaliyotida paydo bo'lgan va uning xususiyatlari ushbu sohadagi aloqa xususiyatlari bilan belgilangan, adabiy til turi sifatida tavsiflanadi. Muhim uslubni shakllantiruvchi omillarga ijtimoiy ong shakllari, ijtimoiy munosabatlar, turli faoliyat turlari, shuningdek, nutq muallifi, adresat, muloqot mavzusi va maqsadi, va boshqalar kiradi.

Ilmiy uslub fanni ijtimoiy ong shakli sifatida amalga oshirish bilan bog'liq muloqot va nutq faoliyatining ilmiy sohasini ifodalaydi; obyektivlik, aniq hamda tasodifiylikdan qochish, mantiqiy dalillar va izchillik bilan tavsiflanuvchi, konseptual va mantiqiy shaklda ifodalanuvchi nazariy fikrlashni aks ettiradi. Ilmiy nutqning maqsadi voqelik haqidagi yangi bilimlarni taqdim etish va uning haqiqatligini isbotlashdan iborat. Shu bilan birga, bilimlarni uzatish ishonchli va qulay shaklda amalga oshiriladi (Popova T.G., Sachkova Ye.V., 2016. 56 b.).

Ilmiy matnlarning uslubiy xususiyatlariga mavhum umumiylik, ta'kidlangan mantiqiylik, taqdimot izchilligi, aniqlik, ravshanlik va obyektivlik kiradi. Bu xususiyatlar fanning voqelik obyektlari, hodisalari va jarayonlari haqida haqqoniy ma'lumotlarni diqqat bilan taqdim etish maqsadiga mos keladi. Shu bilan birga, bu ma'lumotlar ishonchli va obyektiv bo'lishi kerak, bu esa lingvistik va ekstralingvistik vositalarning belgilangan tizimi tufayli erishiladi. Bunga tibbiyot tili yaqqol misol bo'la oladi. Shu bilan birga, ilm-fan "intuitiv, fantaziya bilan yaratuvchi, ijodiy komponent"ga yo'l beradi (Mikeshina L.A., 2005, 78 b.). Bu esa ilmiy matnning yana bir xususiyati – dialogiklikga olib keladi. Ilmiy matn an'anaviy tarzda monolog sifatida tavsiflanishiga qaramay, u adresantga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu ilmiy matnning vazifasi, ya'ni axborotni uzatish bilan bog'liq. Har qanday ilmiy matn muallifining maqsadi nafaqat o'quvchiga kerakli bilimlarni yetkazish va uning diqqatini matnning eng muhim qismlariga jalb qilish, balki unda aytilgan ma'lumotlarni eng to'liq va yetarli darajada tushunishiga erishishdir. Bu maqsadga erishish muallif va adresatning umumiy fon bilimiga ega ekanligini va ularning ilmiy dunyoqarashlari va milliy ilmiy dunyoqarashlari ma'lum darajada mos kelishini nazarda tutadi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar ilmiy uslubdagi matnlar uchun til vositalarini tanlashni belgilaydi. Ilmiy uslub esa, avvalo, yozma matnlar shaklida taqdim etilganligi uchun leksik birliklar va sintaktik konstruksiyalar muhim rol o'ynaydi. Masalan: Puls to'lqinining tarqalish tezligining 10 m/s dan kamayishi tomirlar qattiqligining oshganligini ko'rsatadi va salbiy prognostik belgi bo'lib hisoblanadi; Uyqu

arteriyasi devorining qalinlashishi ($IMQ > 0.9mm$) yoki ishemik kardiomiopatiya – toj (koronar) arteriyalari aterosklerozga olib keladi va h.k.

Har qanday ilmiy matn ilmiy anglashning natijasidir. Anglash jarayoni doimo olimning ilmiy faoliyati mobaynidagi qarashlari, e'tiqodlari va farazlariga muvofiq o'zgarib boruvchi bilimlariga asoslanadi. "Umuman ijodkorlik va ayniqsa, ilmiy ijod asosan eski, ilgari mavjud bo'lgan va yangi paydo bo'lgan bilim qismlarini taqqoslash mexanizmlarini qidirish bilan bog'liq" (Gusev S.S., 1989, 127 b.). Yuqorida aytib o'tilganidek, bilim eskidan yangi, konkret dan abstraktga o'tadi va hokazo, uning natijalari obyektiv va aniq qayd qilinishi kerak, bu faqat inson hislari asosida amalga oshirilishi mumkin emas. Bundan tashqari, anglash natijalari adresat uchun tushunarli va qulay bo'lishi kerak, ya'ni ular yangi atamaning semantik strukturasida adresatga ma'lum bo'lgan tajriba fragmentini o'z ichiga olgan tarzda verbalizatsiya qilinishi kerak. O'tgan asrdagi tibbiyot atamalarini hozirgi davr bilan taqqoslab bo'lmaydi. Ularda miqdor va sifat belgilari keskin oshib ketadi.

Har qanday bilish antropotsentrikdir, chunki u inson tomonidan uning sezish organlari prizmasi va tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari orqali amalga oshiriladi. Bilim markazida, shu jumladan, ilmiy bilim o'zida voqelikning barcha obyektlari, hodisalari va jarayonlarining o'lchovini amalga oshiruvchi shaxs turadi. Shunday qilib, obyektiv voqelik tilda aks etmaydi, balki dunyoqarashning muayyan prizmasi orqali tilda talqin etiladi va kodlashtiriladi. Bu bilishning xususiyatlari va uning natijalarini verbalizatsiyalash, metaforani ilmiy bilimlarni tilda qayd etish uchun samarali vosita bo'lishini ta'minlaydi (Popova T.G., Sachkova Ye.V., 2016, 60 b.).

T.G.Popova ta'rifiga ko'ra, metafora ikki mohiyat o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan hodisa sanaladi, ya'ni ularning umumiy xususiyatlarini topishdan iborat. Bu hodisalarning o'zaro aloqasi yoki ularni taqqoslashni o'z ichiga olgan aqliy va lingvistik mexanizmdir. Qadim zamonlardan beri bilishda metaforaning roli turli xil mohiyatlarni taqqoslash va aloqalarni o'rnatishdan iborat bo'lib kelgan (Popova T.G., 2014, 590 b.).

Metafora dunyoning ilmiy lingvistik tasvirini yaratishda eng samarali vositalaridan biridir. «Ifodalovchi vositalar, ayniqsa, metaforik anglashlar dunyoning lisoniy manzarasini yaratishda muhim komponentlar sanaladi» (Popova T.G., 2003, 51 b.). Magnitli qo'ldashgan buyrak, ayiqpanja, ayri burun, bedana ritmi kabi metaforalar ilmiy matndagi yangi terminlarni "avvaldan tanish" terminlar asosida izohlashga xizmat qiladi.

Albatta, ilmiy uslubda har qanday metafora bir obyektning xususiyatlarini taqqoslanayotgan obyektlarga umumiy xususiyat asosida boshqasiga o'tkazish orqali tavsiflanadi. Ta'kidlash joizki, til metaforasida tasavvur yo'qoladi, u hissiy-baholovchi ma'noga ega emas. Odatda, tayyor qolip asosida yaratiladi va tez-tez qaytariladi (Popova T.G., Sachkova Ye.V., 2016, 65 b.). Ilmiy uslub matnlariga bunday metaforaning kirib kelish ko'lami nihoyatda keng. Albatta, adabiy tildagi so'zlar ma'nosining semantik ko'chishi natijasida paydo bo'lgan atamalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday terminlar milliy tillarda kuzatilgan muntazam metaforik ko'chirishlar, ya'ni semantik derivatsiya natijasida paydo bo'ladi (O.A.Kornilov, 2014, 348 b.). Bunga avvaldan ma'lum bo'lgan, aniq tushunchalar negizida shakllantirilgan aorta piyozchasi, Kvazimoda sindromi, o'pka tomiri, ko'krak qafasi kabi atamalarni misol qilib olish mumkin. Fan-texnika taraqqiyoti ham fanning turli sohalarida, shu jumladan, meditsinada stend, shuntlash, sun'iy qo'l kabi yangi atamalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Metaforik ko'chim vositasida hosil bo'lgan bunday atamalar qatorida har qanday tasvirdan holi, ammo ilmiy matnlarda yangi tushunchalarni ifoda etish bilan birga o'zi orqali ifodalanayotgan tushunchani oxirigacha yo'qotmagan leksik birliklar ham mavjud. Masalan: tinch o'lim, ko'krak qafasi, kasallik bilan kurashish, narxlar to'qnashuvi, kapital oqib ketishi, yashirin iqtisodiyot va h.k.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, majoziy metaforalar ilmiy matnda mavjud bo'lgan metaforalar umumiy sonining kichik qismini (taxminan 2 %) tashkil qiladi (Popova T.G., Sachkova Ye.V., 2016, 73 b.). Ilmiy uslubdagi metaforalarning asosiy turlari identifikatsion metaforalar (yo'l, yoy, kanal) va kognitiv metaforalar (ko'z gavhari, qon depolari, genetik kod, buzuvchi ishtaha) tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, baholovchi metaforalar ilmiy matnda alohida hodisadir. Ular ilmiy uslubning talablari tufayli aniq va alohida ma'noga ega bo'lishi uchun tasavvurlardan holi, ammo ayni paytda ularning mazmunida baholashning konnotatsiyasi saqlanib qolishi shart, chunki antropotsentrik omil ularning shakllanish mexanizmida ishtirok etadi. Tabiiyki, ilmiy uslubni loyihalashda obyektivlik, mantiqiylik va noaniqlikning talab qilinishi tufayli ilmiy uslub matnlarida baholovchi-ekspressiv metaforalar yo'q.

Ilmiy uslubdagi metaforik transfertlarning tipologiyasi juda keng va ular quyidagi ko'rinishlar bilan ifodalanadi: obyekt → obyekt: elektronlar oqimi, atom yadrosi, obyekt → abstraksiya: miya bloklari, intilish manbai (psix.), shaxs → obyekt: kompyuter xotirasi, dasturlash tili.

Metaforik o'tishning har xil turlari zoologiyada ham kuzatiladi: odam → hasharot: chavandoz (parazit hasharot), daraxt → qo'ng'iz, go'rkov qo'ng'izi,

kardinal kapalak, hayvon → hasharot: bo‘zakboshi, boyqush, chigirtka, obyekt → hasharot: o‘lik kapalak, igna baliq, qilich baliq, bolg‘ali baliq va h.k. (Popova T. G., 2015, 86 b.).

Bu yerda shuni ta’kidlash lozimki, metafora nafaqat fan tilini boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, balki ko‘pincha uning rivojlanish yo‘llarini ham belgilab beradi. Bunday qarashlardan biri A. Shleyxer tomonidan taklif qilingan bo‘lib, uning asosida tilni biologik organizm sifatida tushunish g‘oyasi yotadi. Ushbu yondashuv doirasida tilning rivojlanish bosqichlari aniqlandi (bolalikdan – izolyatsiya qilingan til qarishgacha – analitik til), tillarning genealogik tasnifi shakllantirildi, bu esa tilshunoslikning terminologik tizimida tillar oilasi, qardosh tillar, tillarning genealogik daraxti kabi metaforik terminlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Metaforaning fandagi roli mavhum obyektlarni istisno qilishning mantiqiy tartiblarini bajarish jarayonida nazariya bilan almashtirilishi kerak bo‘lgan gipotetik bilimlarni ifodalash bilan bog‘liq faqat evristik funksiyalar bilan chegaralanmaydi. Aksiologik, subyektivlik, kommunikativlik, dialogizm, kontekstuallikning, ilmiy faoliyatning konstruktiv va ijodiy xususiyatini tan olinishi, bilish aktining ochiqligi, yakunlanmagani, kommunikatsiya konteksti bilan bog‘likligi, ekzistension fikrlar bilan to‘laligi bois, metaforani ilmiy nutqning beqiyos, ajralmas va yagona elementi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi (Gogonenkov Ye, 2005. 141-147 b.).

Hozirgi zamon fan falsafasi doirasida metaforik hosilalarni tahlil qilishning ikkita yetakchi strategiyasi aniqlandi. Birinchisi – ssiyentistik yo‘naltirilgan – ilmiy bilimlar tuzilmalaridagi metaforalarni aniqlash, ularning evristik rolini aniqlashtirish (nominatsiya, tavsiflash, modellash, qayta qurish, gipotezalash va boshqalar), so‘ngra ularni mantiqiy-diskursiv tafakkur tiliga tarjima qilish. Ushbu strategiyaning maqsadi – tadqiqotchining shaxsiy qadriyatlarini o‘z ichiga olgan konseptual tuzilmalarni mantiqiy soddalashtirish protseduralari (tushuntirish, talqin qilish, tekshirish, abstraksiyalarni kiritish va chiqarish va boshqalar) orqali ilmiy bilim standartlariga javob beradigan tushunchaviy strukturalar olib kelish. (Ye.A.Gogonenkova, 2005, 75-76 b.). Shunday qilib, an’anaviy mantiqiy va uslubiy yondashuv doirasida metaforaning fanni semantik salohiyatini kengaytirish bilan bog‘liq nominativ funksiyasi (G.Kuliyev, V.V.Petrov), epistemik kirish funksiyasi (R.Boyd), model o‘xshashligi (M.Xesse), faraziy tavsifi bayon etilgan. Shu nuqtayi nazardan fan metodologiyasida metafora kognitiv innovatsiyalarni aks ettirish vazifasini bajaradi.

Fanning sotsiokultur tahlili shuni ko'rsatadiki, metafora kundalik talqin va nazariy konstruksiyalar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lib, epistemologik uzilish nuqtasi sanaladi va undan nazariyalash, ratsional qurilish tomon harakat boshlanadi.

Bunda, lisoniy aloqa dunyoning ramziy qurilishi vositasi va ma'nolarning ramziy almashinish usuliga aylanadi. Bu jarayonning rekonstruksiyasi kauzal terminlarda mantiqiy sxemalarini sababiy jihatdan tushuntirishdan ko'ra interpretatsion protseduralarni talab qiladi. Til va uning metaforik va ritorik vositalari bu yerda muloqotni saqlab qolish, hamjihatlikni mustahkamlash va "fikrning to'plangan birligini" ta'minlash uchun xizmat qiladi (G.G.Gadamer). Muayyan kommunikativ jamoada qabul qilingan murojaat munosabatlarining qayd qilinmagan istiora va tavsifiy atamaları ilmiy tavsiflarning muhim determinanti bo'lib, ular ushbu nutq doirasida ijtimoiy-shartnomaviy ma'no shakllari majmuini tashkil etadi.

Shunday qilib, konstruksion yo'naltirilgan epistemologiya nuqtayi nazaridan metaforik tuzilmalar (lingvistik tasvirlar) bartaraf etilmaydi: ular ijtimoiy amaliyotning tarkibiy elementlari bo'lib, ramziy o'zaro ta'sir muhitini va ijtimoiy ma'nolarni ishlab chiqarishni, ijtimoiy diskursning jonli matosini, shu jumladan, ilmiy diskursni shakllantirish uchun xizmat qiladi (Ye.A.Gogonenkova, 2004, 89-109 bb.). Agar biz ilmiy diskursni kognitiv-tushunish harakati ishtirokchilarining butun inartikulyatsiyalangan ekzistensial, shaxsiy fonini o'z ichiga olgan tirik kommunikativ voqea sifatida tushunsak, metafora uning zarur elementi sifatida harakat qiladi. Qo'shimcha kommunikativ o'lchovlarni va o'ziga xos kontekstni bog'lovchi vosita sifatida ilmiy diskursda metafora chiziqsiz, to'liqsiz matn yaratish vositasiga aylanadi. Bu esa metaforik til bo'lib, tushuntirish, tushunish va muloqot sintezini amalga oshiruvchi, fanlararo muloqot tili bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkin: 1) metafora ilmiy uslub va fanning terminologik tizimini ajralmas qismi; 2) u fan tilini boyitish (yangi terminlarning paydo bo'lishi va h.k.) uchun vosita vazifasini bajaradi; 3) ilmiy uslub matnlarida metafora va metaforik o'tkazishni deyarli barcha turlari taqdim etilgan; 4) baholovchi-ekspressiv metaforalar ilmiy matnlarda deyarli yo'q; 5) majoziy metaforalar ilmiy axborotni yanada qulay va tushunishga oson bo'lishi uchun ishlatiladi; 6) metafora ilmiy bilimni yanada rivojlantirish vektori bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Tibbiyot tilining metaforik nominatsiyasi

Inson salomatligi haqidagi ta'limot – tibbiyotning eng qadimiy fanlardan biri ekanligini yaxshi bilamiz. Bu sohaning terminologik qatlami bir necha yuz ming soʻz va iboralarni oʻz ichiga oladi. Tibbiyotning hozirgi bosqichida terminologik tizimning rivojlanishi tibbiyot fanining jadallashuvi, ixtisoslashuvining oʻziga xos in'ikosi boʻlib, u bir qator yangi atamalarga ehtiyoj tugʻdiradi. Yirik tibbiy ensiklopedik lugʻatlar, ma'lumotnomalar, darsliklar va boshqa tibbiy materiallarni tahlil qilish va oʻrganish bizga koʻp sonli, toʻgʻrirogʻi, bir necha oʻn minglab soʻz va iboralar – termin-metaforalar mavjudligini koʻrsatdi. Bu tibbiyotda ilgari mavjud boʻlmagan yangi haqiqatlarni, jarayonlarni va tushunchalarni lingvistik aniqlash uchun zarur boʻlgan terminologik birliklarni yaratish, shuningdek, ilgari qabul qilinganlarni qayd qilishning eng samarali mexanizmlardan biri metaforik nominatsiya ekanligini yaqqol namoyish qilmoqda.

Tibbiyot bilan bogʻliq terminologik qatlam A. Qosimov (farmatsevtika boʻyicha), Z. Mirahmedova (anatomya boʻyicha), A. Husanov (kasallik va simptom nomlari) tomonidan tadqiqqa tortilgan. Ularda tibbiy ilmiy diskursda atamalarining shakllanishi, tarkibi, terminlarning hosil boʻlishida prefiksli va suffiksli usullar anʼanaviy yoʻnalishda ishlab chiqilgan. Bizning fikrimizcha, ularning ishlarida metaforaning termin hosil qilishdagi oʻrni eʼtibordan chetda qolgan.

Metaforik terminlarning tahlili shuni koʻrsatdiki, metaforani qoʻllashda mavhum tushunchalar va oʻta murakkab vaziyatlar yaxshiroq idrok etiladi. Masalan: aorta piyozchasi – aortaning kengaygan boshlangʻich qismi; shu yerda aorta qopqogʻi joylashgan va shu yerdan yurakning toj arteriyasi chiqadi; quloq ogʻirligi – past diapazondagi tovushlarni eshitmaslik, eshitsa ham nutqni anglamaslik, faqat yuqori diapazondagi tovushlarni eshitish va anglab yetishlik; eshituvning susayishi; adashgan buyrak (nefroptoz) – qon va siydik dinamikasi buzilgan, haddan ortiq harakatchan, baʼzan esa, tabiiy oʻrnidan siljib qolgan holda oʻrnashib olgan buyrakning patologik holati; buyrak boylamlarini boʻshashkanligi oqibati; egarsimon boʻgʻim – ikki oʻqli boʻgʻim; uning bir oʻqi boʻrtib qavariq shaklini olgan, yaʼni boʻgʻimning ikki cheti koʻtarilib turadi, ikkinchi oʻqi birinchisiga perpendiku-lyar ravishda egilib, yaʼni ikki cheti bukilib shu bilan egarni eslatib turadi. Koʻrinib turibdiki, terminlar tarkibiga kiritilgan “piyozcha”, “ogʻirlik”, “adashgan”, “egarsimon” soʻzlari oʻxshatish orqali obyektни toʻla tasavvur qilish imkonini beradi. Bu esa ularni ommabop boʻlishi, oson qoʻllanilishi

kabi muhim xususiyatlarning paydo bo'lishiga imkon tug'diradi, istioraviy terminlarning tibbiy terminologiyada chuqur o'rnashib qolishiga yordam beradi. Ularning keng tarqalishi esa mutaxassislar nutqida samarali qo'llanishini ta'minlaydi. Biz N.Arutyunovanning fikriga qo'shilgan holda, metaforik nominatsiyalar terminologiyaning tuzilish jarayoniga xos bo'lgan izchilligini saqlab qoladi, metaforik modellarga va metaforalarning konseptual o'zaro bog'langanligiga asoslangan tizimlilikni terminosistemaga olib kiradi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz obyekti tibbiy metafora – tibbiy matnlarda inson tanasining holatini tavsiflash funksiyasini amalga oshiradigan sodda gaplardan so'z yoki iboralarni majoziy ma'noda ishlatish bilan belgilanadigan atamalardir. Shu bilan birga metaforaning juda xilma-xil terminologik tasnifini kuzatish mumkin, lekin metaforizatsiya markazida inson tanasining holatini uning atrofidagi dunyo prizmasi orqali baholash turadi. Tibbiy metaforada tibbiyot dunyosining metaforik tasviri asosan ekstralingvistik omillarga bog'liq: o'rganish obyekti (ayrisimon bez, sin. bo'qoq bezi – old ko'ks oralig'ining yuqori bo'limida joylashgan a'zo; hujayra imuniteti mexanizmlarining shakllanishi va ishlashini boshqarib turadi; burun dahlizi – burun bo'shlig'i ichki yuzasiga teri to'shalgan oldi bo'limi; burun bo'shlig'ining qolgan qismlaridan bo'sag'a bilan ajralib turadi); davolash usullari bilan (burishtiruvchi vositalar – teri shilliq parda yoki yaraga suriladigan oqsilning suvini tortib olib yoki uni qisman kaogulyatsiya qilib to'qimaning sathida qiyin eriydigan albuminat hosil qiladi va buning natijasida tashqi ta'sirdan saqlaydi; ganglionar blokada – simpatik gangliylar sohasiga novokain: spirt yoki boshqa biror moddani yuborib shu sohalardagi simpatik innervatsiyani to'xtatib qo'yish metodi); obyektning bevosita hissiy idrok etish imkoniyati (g'ijimlab og'rish, sin. mijg'ilab og'rish – qorinning xuruj bilan ezg'ilab, mijg'ilab, changallab, majaqlaguday bo'lib og'rishi; daydilar kasalligi – uzoq vaqt yuvinmaslik, shaxsiy gigiyenaga mutlaqo rioya qilmaslik oqibatida teri qoplamalarini kir bosib ketishi, uning dag'allashib burmalar hosil qilishi, bitliqilik tufayli teri yuzalarida tiralishlar, qontalashlar paydo bo'lishi bilan ta'riflanadigan dermatoz).

Metafora ilmiy va kundalik nutq o'rtasida bog'lanish vazifasini bajaradi, chunki har ikkala nutq qatlami tibbiy amaliyot atamalar –metaforalar orqali yuzaga chiqariladi. Bu o'rinda bizni qanday qilib, qanday taqqoslashlar bilan bir-biridan uzoq bo'lgan voqelik tushunchalari va hodisalari sodda diskurs yoki badiiy adabiyotdan tibbiyot tiliga ko'chiriladi, degan savol o'ziga jalb etadi.

Metaforaga bunday kuchli e'tiborni aksariyat inson bilimlarining umumiy metaforikligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqotchi o'z kashfiyotini

bilvosita yoki bevosita hayot tajribasi, madaniyati va tasavvurlaridan kelib chiqqan holda yangi tushunchani konseptuallashtiradi.

Hozirgi zamon fanlarini o'rganishda antropotsentrik yondashuvning jadal rivojlanishi epistemologik metaforaning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Ilmiy diskurslarda metaforaning mavjud bo'lish imkoniyati hozirgi zamon tilshunosligining bir qator hal bo'lmagan muammolarni: terminlarning sinonimiyasi, tarjimadagi qiyinchiliklar, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bular biz tadqiq etishni istagan uch asosiy nuqtalardir.

Bugungi kunda nafaqat tilshunoslik, balki falsafa, psixologiya kabi bir qator fanlar ham "Zamonaviy ilm-fan metafora orqali nimani bayon qiladi?" degan savolga javob topish uchun harakat qilinmoqda. Bu hodisaning tabiatini tushunish, birinchi navbatda, uni qanday o'rganishimiz kerakligiga bog'liq bo'ladi. Ehtimol, bu alohida e'tibor insonning nutqiy tafakkuri va dunyoni bilishining o'zi tabiiy metaforik ekanligini anglashdan kelib chiqadi. Tilshunoslikdagi metaforani stilistik vosita yoki badiiy qurilma sifatida talqin etuvchi, uni idrok etishning stereotipi mavjudligini qayd etib bo'lmaydi. Hodisaning psixologik va antropotsentrik xususiyatini ta'kidlovchi yangicha yondashuv shakllanmoqda. Gap shundaki, bu atama tilshunoslikda turlicha talqin qilinishiga qaramay boshqa ko'plab fanlarda keng qo'llanilmoqda va ma'nosini kengaytirmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy tilda, turli xil diskurslarda: siyosatdan professionalgacha metaforizatsiyaning negizida muayyan tilning semantik birliklari va qoidalari orqali yaratilgan insonning yoki uning tana a'zolarini turli xil ko'rinishlaridagi, rollaridagi qiyofasi yotadi.

Masalan, tibbiy professional diskursda: yot tana – yara-chaqa, jarohatlar yoki tabiiy teshiklar orqali to'qimalarga, a'zo yoxud tana bo'shliqlariga kirib joylashib olgan organizm uchun mutlaqo begona narsa-predmetlar; bulardan tashqari, yana organizm o'z ichida bunyodga kelgan konkrementlar – toshlar, endoparazitlar va boshqalar bunga misol bo'la oladi; bachadon bo'yni – bachadonni qinga botib turgan quyi, toraygan qismi; yurak o'ynashi, sin. dil o'ynashi – yurak faoliyatining (urishining) tezlashishi yoki kuchayishi; miya oyoqchalari – o'rta miyaning eng katta qismini tashkil qiladigan miya to'qimasining bir qismi.

Tibbiy metaforani termin sifatida, tibbiyot tilida bir so'zdan, adabiy yoki kundalik diskurs leksemadan iborat bo'lgan, professional diskursda individual yaratilgan va lug'atiy maqola bilan mustahkamlangan so'z birikmasini tushunamiz.

Metaforaning mohiyati kasallik yo‘li va sabablarini aniqroq ochib berish maqsadida inson atrofidagi dunyo bilan uning patologik salomatlik holatini badiiy adabiyot personajlarining obrazlariga o‘xshatishdir. Insonni va uning organizmini badiiy olam, hayvonot dunyosi, o‘simliklar florasi, ro‘zg‘or va kundalik turmush bilan bo‘lgan analogiyalar va assotsiatsiyalarining bu semantik-funksional turi shaxsning badiiy xarakter bilan o‘xshashligida yoki uni atrof-muhitning har qanday qismlari yoki xususiyatlari bilan muayyan holatda solishtirishda til anglashning asosiy “timsol” modeliga asoslangan bo‘lib, ular dunyoning har qanday milliy anglash evalyutsiyasida chuqur tarixiy ildizlariga ega. Shaxsning atrofida qilarga, ajdodlari va zamondoshlariga kognitiv va emotsional jihatdan muhim sanaladigan va yaxshi ma‘lum bo‘lgan qahramonlar va matnlar, hayvonot va o‘simliklar vakillari, ro‘zg‘or buyumlar odamlarning o‘zaro muloqotini osonlashtiradi va muayyan matnlar bilan o‘xshash obraz va tasavvurlarni solishtirish imkonini beradi. Masalan: tomirlar to‘ri – o‘zaro juda yaxshi taraqqiy etgan anastamoz tomirlar bilan birikkan qandaydir gavda qismi; tish murtagi (embriogeneza) – tish unib chiqadigan, o‘ziga xos alohida to‘qimadan tashkil topgan tuzilma; u emal a‘zosi, tish so‘rg‘ichi va tish qopchasidan iborat; suzmasimon shilimshiq – homila yoki yangi tug‘ilgan chaqaloq terisini qoplovchi yog‘ qatlami; parda – deyarli barcha a‘zo va tuzilmalarning ba‘zilarini ichki, ba‘zilarini tashqi tomondan qoplab turuvchi qavat; quloq shang‘illashi – tashqaridan shovqin kelmay turib quloqda paydo bo‘ladigan uzluksiz shovqinlar majmui; quyon chaynash – ovqat va ozuqa maxsulotlarini apil-tapil uzib, og‘izga shoshib solib, tez-tez, mayda-mayda chaynab yutish va shu zahotiyoq keyingi luqmani payida bo‘lish; ko‘z olmasi, sin. ko‘z g‘o‘lasi, ko‘z soqqasi – ko‘z kosasida joylashgan harakatchan yumaloq tuzilma; devori fibrinli, tomirli va to‘r pardalardan tashkil bo‘lgan; ichida old va ortki kameralarida suvsimon namlik, shuningdek, gavhar hamda shishasimon tana makon topgan.

Kommunikantlar tibbiy metafora-terminni qo‘llashda bu nomlarning xarakterli xususiyatlarini ular ortida turgan milliy o‘ztga xos tasavvurlar bilan bog‘laydilar. Metaforizatsiya jarayoni sodda, adabiy va boshqa diskurs turlaridan leksemalar ma‘nosini o‘zgartirib yoki o‘zgartirmasdan terminlarni “tayyor” shaklda olib, terminologik qatlam yaratilishini voqelik bilan bog‘laydi. Tibbiy diskursda metafora, mavhum va konkret komponentlarning o‘zaro munosabati jarayonida, voqelikni bilish usuli bo‘lgan yangi ma‘no hosil qiladigan tizimdir.

Metaforaning terminlarni hosil qilishda bunday keng qo‘llanilishi tabiiyki, sinonimiya va birma‘nolik masalasini keltirib chiqaradi. Terminga ta‘rifni fiksatsiya qilinishi zaruriy o‘xshashlikni, belgi va tushunchaning o‘zaro

bog'liqligini kafolatlaydi. Shu munosabat bilan, tibbiy metafora-atama deb ataluvchi, tushunchaning chegaralari siljuvchan ekanligi tufayli, terminlarni ishlatishda ma'lum bir erkinlik hodisasi kuzatiladi. Bu tushunchaning mazmun chegaralari harakatchanligi, ya'ni tushuncha rivojlanishi, turli nuqtayi nazardan talqin qilinishi, atama tabiatiga zid bo'lmagan holda, ilmiy adabiyot matnlarida atamadan nostandart foydalanishga olib keladi. Quyidagi metafora-terminlarga e'tibor beraylik: ko'z qadahi – embrion old miya pufagining juft kosasimon ikki qavatli oyog'i, undan ko'z to'r pardasi rivojlanadi; infeksiya darvozasi – mikroblarning organizmga kiradigan yo'llari; yosh jilg'asi – pastki ko'z qovog'i bilan ko'zsoqqasi oralig'idagi makon; yosh suyuqligi shu jilg'a bo'ylab yosh ko'li tomon siljiydi; t-o'ldiruvchilar, sin. t-killerlar – g'ayrioddiy antigen to'plamli hujayralarni o'ldiruvchi hujayralar; shubhasiz, ular asosiy semantik ma'noni saqlab qolgan, lekin tushunchalar sezilarli o'zgarishlarga uchragan.

Biroq, tibbiyot sohasida ma'lum bir tibbiy bilim sohasiga tegishli bo'lgan, yaxshi tashkil etilgan, semantikaga ega bo'lgan, chuqur va uzoq muddatli termin-metaforalar mavjud. Misol uchun: burun kataklari – burun bo'shliqlarini tashqariga ochilgan bir juft teshigi; yevstaxiyev nayi – nog'ora bo'shlig'ini burun – halqum bilan tutashtiradigan yo'l (lor); Ye virusli gepatit (na A, na V) – virusli gepatitning bu turi ko'pincha og'iz orqali yuqishi, qisqa muddatda keng tarqalishi, nisbatan yengil kechishi bilan ifodalanadi (terapiya). Bunday hollarda tibbiy metafora-terminlardan foydalanish bevosita, ularni idrok etish, mazmunli sharhlash yoki tavsiflashga tayyorgarlik ko'rmasdan sodir bo'ladi. Boshqa hollarda tibbiy metafora terminlarini qo'llashda terminning matnga kiritilishiga hamrohlik qiluvchi maxsus izoh talab qilinadi. Masalan: yelkan simptomi – koma (behush) holatida yotgan bemorning nafas olganda unga monand bir yonog'ining sekin-sekin shishib chiqishi; insult bo'lganda bosh miyaning dardli o'chog'iga qarama-qarshi tomonda kuzatiladi; bilak nervning blokadasi – bilak nerv shoxlarining blokadasi bilak kovakga 5-10 ml novokainning bir 1% eritmasini bilakning proksimal burmasi darajasida in'eksiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shifokorning professional faoliyati belgilangan vaqt ichida maxsus tashkil qilingan joyda kelajak voqelikni modellash, ya'ni bemorning sog'ayish jarayoni ta'minlash bo'lganligi uchun metaforalashtirish tibbiy xodim va bemor ongida dunyo voqeligining aksini yaratish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida tilda va muayyan madaniy jamiyatda yaratilgan tasvirlar va g'oyalarni o'z mazmuni bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Metaforalar konseptual, lingvistik, madaniy va psixologik hodisa bo'lgan sifatida taqqoslashning subyektiv kechinmasidir. Tibbiy metafora tasviri nafaqat "rasm", balki ko'p moddali va ko'p

darajali komponentlarning murakkab o'zgaruvchan tizimi bo'lib, unda og'zaki va og'zaki bo'lmagan, ongli va ongsiz komponentlar bitta "qotishma"ga sintezlanadi, unda "bu yerda va hozir" nuqtasida turli ichki kontekst tufayli tasvirning muayyan tarkibiy qismlari oldingi planga chiqadi. Ta'kidlash joizki, tarkibiy qismlar hech qachon o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu jarayonlar vaziyatning emotsional va baholovchi fonida ro'y beradi. Tibbiy metafora tasvirining asosi bo'lgan hissiy tasvir dunyoning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Shu bilan birga, tibbiy mavzuning hayotiy, amaliy aloqalari va obyektiv dunyo bilan munosabatlari mahsulidir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, metaforik nominatsiya ilmiy termin tushunchasi oldiga qo'yilgan talablarni to'la qondirib, so'z hosil qilishning boshqa yo'llari bilan birga tibbiy diskursda o'zining salmoqli o'rnini egallaydi. Umumiy qabul qilingan metafora atamasi sinonimiya va polisemiyaning istisno qiladi.

Ilmiy diskurs – bu bilimlarni ifodalash usuli, shuningdek, bu bilimlarni tahlil qilish faoliyati va uni tilda ifodalash imkoniyatidir. Ilmiy atamada, xususan, tibbiy metafora-atamada kasbiy bilimlar, aqliy-mantiqiy bilimlar va til bilimlarining kasbiy faoliyat bilan aloqasi organik ravishda mujassamlashadi. Metafora-terminlarning o'ziga xosligi shundaki, ular natijani passiv emas, balki inson amaliyoti va kasbiy faoliyati tarkibiga kiruvchi jonli, faol aks ettirish bilan namoyon qiladi. Shunday qilib, har qanday metafora tabiatining obyektivligini hisobga olish zaruratining aksi bo'lib, inson ongining kognitiv va ta'sirchan jihatlari bilan birlashtirilgan.

Birinchi bob xulosalari

Tibbiyot – dunyodagi eng qadimiy fanlardan biri. Bu insonning o'z salomatligi va uni asrab-avaylashi bilan bog'liq tabiiy jarayondir. Tibbiyotning fan sifatida kelib chiqishi, shakllanishi va shakllanish tarixi butun insoniyatning rivojlanish tarixi bilan parallel holda kechgan.

Yevropada ham, O'rta Osiyoda ham tibbiyot paydo bo'lishining dastlabki qadamlari va ibtidoiy taqlidlari taxminan bir davrda boshlangan, ammo yuksalish davrlari va rivojlanishning qizg'in dinamikasi, dunyodagi Renessans davrlari kabi turli vaqtlarga to'g'ri keladi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra dastlabki tibbiy ma'lumotlar yunon tilida uchraydi (miloddan avvalgi VI - VII asrlar). Miloddan avvalgi II asrda Rim

imperiya­si­ning Yunoniston ustidan hukmronligi oʻrnatilishi bilan lotin tili fanda, jumladan, tibbiyotda ham yetakchi oʻrinni egallay boshladi. Bu ikki til tibbiyotning asl tillari hisoblanib, tibbiyot terminlari shu tillar asosida shakllangan.

VII asrdan boshlab dunyo arablar tomonidan istilo qilina boshlandi va arab tilining ommalashuvi kuchayib bordi. VIII asrga kelib deyarli barcha Yevropa adabiyoti arab tiliga tarjima qilindi.

Tibbiyot haqida yozilgan eng salmoqli kitoblardan biri sifatida “Tib qonunlari” eʼtirof etilgan. Asarning leksik qatlami asosan lotin va yunon atamalaridan iborat, ammo arab tilidagi terminlar ham mavjud, ularning aksariyatini fanga Abu Ali ibn Sino kiritgan.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida tibbiyotda nafaqat yangi terminlarni joriy etdi (biz, xususan, kardiologik termin tizimini oʻrgandik), balki asarda turli epistemologik tibbiy terminlardan keng foydalanish, ularni saqlab qolishi, ularning maʼno va taʼrifini aniqlashtirish, konkretlashtirish orqali sinonimiyaga barham berdi.

Soʻnggi bir necha oʻn yilliklar mobaynida kognitiv tilshunoslik, gender lingvistikasi, psixolingvistika, lingvokulturologiya va boshqa yoʻnalishlar yangi mustaqil fanlar sifatida paydo boʻldi va shakllandi. Anʼanaviy “til” tushunchasi oʻz chegarasidan chiqib ketdi. U nafaqat qoida va meʼyorlar majmui, balki uning atrof­da­gi ekstralingvistik omillar sifatida ham oʻrganila boshlandi. Bu esa oʻz navbatida uni oʻrganishga antropotsentrik yondashuvni keltirib chiqardi.

Qarashlarning tubdan oʻzgarishi, Lakoff va Djonsonning «Biz bilan birga yashayotgan metaforalar» asarining paydo boʻlishi metaforaga yangi hayot bagʻishladi. Anʼanaviy badiiy usul aniq fan olamida ham tan olindi.

Ilmiy diskurslarda metaforadan foydalanish mumkinligi haqidagi bahs-munozaralar hali ham bor. Baʼzi olimlar ilmiy atamalarning va ularning talqinlarini epistemologik va evristik imkoniyatlarini kengayishini hisobga olgan holda buni tan olmoqdalar. Shuningdek, ilmiy terminlar tarkibidagi metaforalar mutaxassis boʻlmagan shaxslar tomonidan qoʻllanishi va idrok qilinishini osonlashtiradi. Metafora ostida shaxsning tajribasini bir sohadan ikkinchi sohaga koʻchirish mumkin:

1) metafora fan tilini boyitish uchun vosita boʻlib xizmat qiladi (yangi atamalar, tushunchalar va hokazolar paydo boʻladi);

2) ilmiy uslub matnlarida metafora va metaforik ko‘chirishning deyarli barcha turlari qo‘llaniladi;

3) baholovchi-ekspressiv metaforalar ilmiy matnlarda deyarli uchramaydi;

4) majoziy metaforalar ilmiy ma’lumotni yanada qulay va oson tushunish uchun ishlatiladi;

5) metafora ilmiy bilimlarni yanada rivojlantirish uchun vektor bo‘lib xizmat qiladi.

Tibbiy metafora ta’rifi ostida biz tibbiy so‘z va umumiy yoki adabiy janrdagi so‘zdan iborat tibbiy atamani nazarda tutamiz.

Tadqiqotimizda turli manbalardan olingan tibbiy diskurslarda ko‘plab metaforalar aniqlandi, shuningdek, tadqiq etilayotgan sohada tibbiyot tiliga to‘liq o‘tishga muvaffaq bo‘lgan metaforalar mavjud (ko‘krak qafasi, burun qanotlari va boshqalar).

II Bob. Tibbiy metaforalarning funksional pragmatik xususiyatlari

§ 2.1 Zamonaviy dunyoning lisoniy manzarasida «tibbiyot» tili

“Terminus” soʻzining etimologiyasi lotincha “chegara”, “oxiri” degan maʼnoni anglatadi. U oʻz mazmuniga muvofiq, aniq tushunchani ifodalashi va undan foydalanishda qatʼiy chegaralarni belgilashi kerak.

Har bir soha va bilim sohasi bugungi kunda oʻz atamalariga ega. Termin va terminshunoslik masalasi azaldan tilshunos va metodistlarning diqqat-eʼtiborini tortib kelgan. Xorijiy mutaxassislardan: V.V.Vinogradov, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, O.D.Mitrofanova, X. Felber, T.Broun, oʻzbek olimlaridan: Olim Usmon, R. Doniyorov, H. Dadaboyev, B. Sarimsoqov, N. Hotamov, A. Madvaliyev, N.Mahkamov, I. Yuldashev, A. Sobirov va boshqalarning ilmiy asarlarida terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlari tadqiqqa tortilgan.

Termin til leksik-semantik tizimining birliklaridan biri boʻlib, uning leksik maʼnosi maʼlum bir predmet yoki tushunchaga nisbatan oydinlashadi. Soʻzning termin maqomiga oʻtishini belgilovchi bosh omil bu unga maʼlum bir olim-ijodkor, soha mutaxassisi yoki jamiyat tomonidan berilgan taʼrifdir. Zero, tushunchaning mezonlari, xususiyatlari va mazmuni terminni tavsiflash uchun aniq va ilmiy tavsiflangan taʼrifda mavjud boʻladi.

Termin yaratish V. P. Danilenkoning fikriga koʻra, soʻzni shakllantirish jarayonidan koʻra yanada murakkab jarayon. “Agar soʻz ishlab chiqarishning mavjud usullaridan birini qoʻllash terminologik soʻzni yaratish uchun yetarli deb hisoblansa, atama uchun terminologik nominatsiya mazmunini ochish, yaʼni tushunchaning taʼrifini berish kerak. Bu yangi yaratilgan atamaning soʻz tashkil qilish aktiga kiradi, chunki taʼrifsiz tushunchaning mazmun chegaralarini aniqlamasdan, boshqa tushunchadan ajralib turadigan xususiyatlarni taʼkidlamasdan turib atama hisoblanmaydi” (Danilenko, 1977. 94 b.).

Bugungi dunyo manzarasini terminlarsiz tasavvur qilish mumkin boʻlmay qoldi. Zamonaviy ilm-fan, texnikaning jadal rivojlanishi milliy tillarda behisob

terminlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Ularning har biri o'z nomiga ega bo'lishi kerak.

Berlin ozod universiteti doktori Kristin Mersning fikricha: "Dunyoda yangi hodisalar yuz berganda, biz ular uchun yangi nomlar qidiramiz. Nomsiz hodisalar odamlarda qo'rquv va ojizlik hissini tug'diradi. Biroq, biz narsa va hodisalar nomini bilsak, ular haqida bermalol gaplasha olamiz."

Tibbiyot sohasi fanlar ichida jadal va keng ko'lamda taraqqiy etib borayotgan sohalardan sanaladi. Ma'lumotlarga ko'ra birgina koronavirus pandemiyasi ortidan nemis tilida Maskentrottell – burnini berkitmagan holda himoya niqobi taqqan odam; Coronamüde – COVID-19dan toliqish; Impfneid – emlanganlarga hasad qilish; Impfwang – majburiy emlash kabi 1200dan ziyod so'z o'zlashgan. Bu jarayondan o'zbek tilining tibbiy terminologiyasi ham cheda emas. Tibbiyot terminologiyasi o'zbek tilining eng boy va qadimgi leksik qatlamlardan biridir. Avvalo, termin va terminologik atamalari haqida fikr bildirib o'tish lozim.

G. Abramova ilmiy atamaning konsepsiyasini yagona nominativ aniq funksiyaning mavjudligi deb hisoblaydi, chunki termin leksik tizimning birligi sifatida ham atash xarakteriga ega. Yangi til birliklarining yaratilishi atamaning eng muhim xususiyati – izchillikni, ya'ni metatilning muallif tomonidan yaratilgan yoki mavjud birliklarining paradigmatic korrelyatsiyasini hisobga olishi shart. Bu masalaning dolzarbligi terminologik tizimlarning baynalmilallashuvi jarayonlari va sinonimiyani soddalashtirish hamda minimallashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar davrida, ayniqsa, muhimdir. (Abramova, 2003, 12 b.).

Tibbiyot terminologiya tushunchasi tibbiyot fanining barcha terminlarini birlashtiradi. Tibbiy leksika atamasi ostida, biz tilning ilmiy, kundalik va boshqa kichik tizimlarida ishlaydigan barcha tibbiy nomlar va atamalarni tushunamiz. Terminlar tibbiy leksikaning faqat bir qismi bo'lib, bu soha vakillarining professional va terminologik bo'lmagan so'zlashuvini ham o'z ichiga oladi. Tibbiy leksik qatlam boshqa tarmoqlarda ham keng tarqalgan. Masalan: qonga singib ketmoq, vahima virusi, choynakning burni va boshqalar. Tibbiy terminologiyada muhim sanalgan va hal etilmagan masalalardan biri boshqa sohalarda tibbiy leksikadan foydalanish paytida kognitiv aspektlarni, semantik o'zgarishlarni va saqlanib qolgan semantik asoslarni aniqlash va oydinlik kiritish, qaysi tibbiy atama va iboralar ko'proq va nima uchun majoziy ma'noga ega bo'lishini tahlil qilish; terminning semantik qatlami so'z bilan birga ko'chirish yoki ko'chirmaslik masalasidir.

Lakoff va Djonson fikricha: “Sizda metaforik o‘ylamaslikdan boshqa iloji yo‘q. Metaforik xaritalar bizning miyamizning bir qismi bo‘lgani uchun, biz xohlaymizmi yoki yo‘qmi, metaforik tarzda o‘ylaymiz va gapiramiz. Metafora mexanizmi asosan ongsiz bo‘lgani uchun, biz buni bilamizmi yoki yo‘qmi, metaforik tarzda fikr yuritamiz va gapiramiz”. (Lakoff, Djonson, 2003, 23 b.). Antropotsentrizm terminologik tizimli aniq fan o‘z qoidalarini “yumshatadi” va hissiy, xayoliy, hatto ba’zan subyektiv tushunchalar, ya’ni metaforalar uning bir qismiga aylanishiga imkon beradi. Bu ularni o‘zaro bog‘lab, o‘zaro bir-birini to‘ldiradi – “qat’iy”, ratsional, empirik, xolis fanni va adabiy matnlarda ko‘proq uchraydigan metaforani keng qo‘llashni ta’minlaydi. Lakoff va Djonsonlarning ta’kidlashlaricha: “...metafora aql va tasavvurni birlashtiradi. Buning sababi, hech bo‘lmaganda, tasniflash, jalb qilish va xulosa chiqarish bilan bog‘liq. Tasavvur bir turdagi narsani boshqa turdagi narsalarda metaforik fikrlash orqali ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, metafora xayoliy ratsionallikdir ” (Lakoff, Djonson, 2003, 87 b.).

Tibbiyot terminologiyasini ikki qatlamga ajratish mumkin: a) umumiy terminologiya; b) ixtisoslashgan terminologiya.

Umumiy terminologik qatlam fanning turli sohalarida qo‘llaniladigan so‘zlar, atamalar, masalan, dori, qurilma, vosita, element nomlarini o‘z ichiga oladi. Maxsus fan sohasida qo‘llaniladigan atamalar tibbiyotning yuqori ixtisoslashgan terminologiyasiga tegishlidir. Masalan: koronar yurak kasalligi, adenomatoz, infeksiya va boshqalar.

Yuqori ixtisoslashgan terminologiya bilimning har bir sohasiga xos voqelik, tushuncha va kategoriyalarni nomlovchi, maxsus terminlarning alohida xoslangan qatlamidir. Yuqori ixtisoslashgan atamalar uchun tashkiliy tamoyil bu atamalarning har birida va terminologiyada (maxsus so‘zlarning umumiy to‘plami sifatida) standart tushunchalar toifalarining mavjudligi bo‘lib, unga ko‘ra atamalarning asosiy korpusi taqsimlanadi. An’anaga ko‘ra, tadqiqotchilar to‘qqizta shunday toifani (predmetlar, jarayonlar, holatlar, miqdorlar, rejimlar, xossalar, o‘lchov birliklari, fanlar va tarmoqlar, kasblar va hunarlar) ajratadilar. Tarmoq terminologiyasi ichida uning u yoki bu atributi bo‘yicha tasnifi doimo o‘ziga xos, ko‘pincha qaytarilmas xarakterga ega bo‘ladi. Ayniqsa, tematik guruhlar ichida umumbashariy tushunchalar kategoriyasi asosida shakllangan terminologik birlashmalar ajratilsa, bu alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Toifalarning sonini tegishli bilim sohasining tarmoq terminologiyasini qamrab olish darajasi va to‘liqligiga qarab farq qilishi mumkin. (Graudina, Shiryayev)

Hozirda ommabop diskurslarda terminlar soni haddan tashqari ortib ketdi. Buning ikkita muhim omili bor. Birinchidan, aholining ta'lim darajasi yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Ikkinchidan, jamiyatda ommaviy axborot vositalarining o'zni o'sib ketdi. Birinchi holatda aholini o'qitishda har bir fan doirasida yangidan-yangi terminlardan foydalanish zarurati kelib chiqmoqda. Ikkinchi holatda esa yaratilgan terminlar targ'iboti va ommaviylashuvi ta'minlanmoqda. Bundan barcha sohalar qatori tibbiyot ham chetda qolayotgani yo'q. Inson salomatligi masalasi, kasalliklarni davolash va oldini olish masalasi hamma vaqt kun tartibida bo'lib kelgan. Shifokor va bemor o'rtasidagi muloqot uchun zarur bo'lgan leksik minimum jamiyatning oddiy a'zosi uchun boshqa fanlarning maxsus leksikasidan ko'ra ancha ahamiyatli va amaliydir. Shuning uchun tibbiy terminlar boshqa sohadagi terminlarga qaraganda umumadabiy tilga tez kirib bormoqda.

Ma'lumki, tibbiy terminlar reklama matnlari, ommabop ma'lumotnomalar, tibbiy adabiyotlar, plakatlar va boshqalar orqali kundalik nutqda keng ommalashtiriladi. Boshqa hech bir fan tibbiyot kabi o'zining muhim tushunchalari bilan kishilarning kundalik hayotiga bu darajada chuqur kirib bormaydi.

Terminologik qatlam quyidagi shakllarda umumfoydalanishga o'tadi: metafora-termin; terminoelement; birikmali termin. Tibbiy terminlarning turli nutqlar (diskurslar)da qo'llanilishini o'rganish maqsadida ommaviy axborot vositalari materiallari, badiiy adabiyotlar va lug'atlardan 100ga yaqin metaforani tanlab oldik. Taqqoslash uchun tibbiy sohada va kundalik nutqda faol bo'lgan ba'zi metaforalarni bir-biriga solishtirdik:

Parda: Devorga mix qoqib. parda ilingan. To'rda mehrobda ko'rpalar taxlangan, ular ham atlasdan, bularning bari mehmonlar uchun //Ko'z pardasini davolamoq.

Kosa: Kosa to'la sut berardilar, to'yib-to'yib ichardim...//Qayt ortingga – ota-onangning qoshiga, xorlik qanotingni past tut, ko'zingning kosasini oyoq ostlariga poyondoz qil!

Xuruj: xuruj – kasallikning, og'riqli holatning avj olish, kuchayish payti, shuningdek, ruhiy holatning keskin namoyon bo'lishi: fokus xuruji, yurak xuruji va boshqalar//Mojaro yana xuruj qildi .

Immunitet: Immunitet – organizmning begona moddalar va hujayralarni tanib olish va olib tashlash orqali uning yaxlitligi va biologik identifikatsiyasini saqlab qolish qobiliyati. Ichki muhitning gomeostazini saqlab qolish uchun asosan immunotsitlarning funksional faoliyatining o'zgarishi bilan

xarakterlanadi.//Siyosiy faol va mas'uliyatli yoshlar aholi orasida turli mafkuraviy, informatsion, g'oyaviy xurujlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirishda muhim o'rin tutadi .

Organizm: Organizm – ko'payish vaqtida irsiy xususiyatlarni saqlagan holda, jonsiz materiyadan farqli, jumladan, modda almashinuvi, uning tuzilishi va tashkil topishini o'z-o'zini ta'minlash qobiliyatlari kabi xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan jonli jismdir.//Markaziy Osiyoning yagona organizm ekanligi, hech qaysi bir davlat mintaqaviy muammolarni bir o'zi hal etolmasligi alohida ta'kidlab o'tildi .

Patologiya: Patologiya – (yunoncha πάθος – “azob, og'riq, kasallik”+ λογος “so'z; tushuncha; bilim” so'zlaridan), tirik organizmdagi og'riqli jarayonlar va sharoitlarni o'rganuvchi tibbiyot fanining bir bo'limi. U patologik anatomiyadan iborat bo'lib, og'riqli jarayonlardan kelib chiqadigan organlar va to'qimalarning tuzilishidagi o'zgarishlarni, kasalliklarda organlar va umuman tananing funksiyalarining buzilishi – patologik fiziologiyani o'rganadi.//Xususan, o'rtachalashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, patologik o'yinchilar orasida 23 foizi jiddiy moliyaviy qiyinchiliklar his qiladi .

Sog'lom: Sog'lom – kasallik holatida emas, yoki yaqinda shu holatdan chiqib bo'lgan; tuzalgan.//Oilada sog'lom muhitni yaratish juda muhimdir;

Vaksina: Vaksina – ma'lum bir antigenga qarshi orttirilgan immunitet xosil qiluvchi tibbiy biologik preparat.//“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “Halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Lekin o'sha vaksinani qayerdan olamiz” .

Chiniqtirish: Chiniqtirish – organizmning funksional rezervlarini va chidamliligini oshirish maqsadida, inson tanasiga turli xil tabiiy omillarni: havo, suv, quyosh, past va yuqori haroratlar (tana haroratiga nisbatan) va past atmosfera bosimi ta'siri orqali o'tkaziluvchi fizioterapiya usuli.//G'oyaviy chiniqtirish .

Virus: Virus – (lotincha virus “zahar” so'zidan), faqat hujayralar ichida ko'payadigan hujayrali bo'lmagan yuqumli agent. Viruslar barcha turdagi organizmlarni, o'simlik va hayvonlardan tortib bakteriya va arxeylargacha zararlaydi (bakteriya viruslari ko'p hollarda bakteriofaglar deb yuritiladi). Faqat boshqa viruslar (satellit(yo'ldosh) – viruslar) ishtirokida replikatsiya qila oladigan

viruslar ham aniqlangan.//Josus virus Rossiya va Eronni nishonga oldi //“Vahima virusi” yoxud osoyishtalik va noz-ne’matlarga nisbatan noshukrlik xususida .

Jigar: Jigar – diafragma ostida qorin bo’shlig’ida joylashgan va turli xil fiziologik funksiyalarni bajaradigan umurtqali hayvonlarning, shu qatorda insonlarning ham tashqi sekretsiasining muhim bezidir.//Sen yetim emassan, Tinchlan, jigarim .

Ko‘z: Ko‘z – (lotincha oculus), to‘lqin uzunliklarining yorug‘lik oralig’ida elektromagnit nurlanishni sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan va ko‘rish funksiyasini ta’minlovchi sezgi organi (ko‘rish sistemasi organi).//Ko‘ngil ko‘zi .

Yuqoridagi misollar va tanlangan metaforalarni tahlil qilish orqali shuni ta’kidlashimiz mumkin:

1. Ilmiy kontekstdan tashqarida ishlatiladigan atama asl konsepsiyasini saqlamaydi yoki hech bo‘lmaganda qisman uni yo‘qotadi. Ilmiy atama umumiy tushunchasining bir qismi metaforalashadi, ya’ni mazmun mohiyatiga sinchiklashmagan holda. Ko‘ngil ko‘zi deganda, uning shakli, mazmuni, joylashishi, tuzilishi va boshqalarni hisobga olmasdan, faqat atamasining ko‘rish funksional tushunchasini hisobga olamiz yoki “Josus virus Rossiya va Eronni nishonga oldi” misolida “virus” atamasini ishlatganda faqat “dushman” ma’nosi e’tiborga olinadi.

2. Metaforizatsiya keng tarqalgan, odam uchun oson o‘zlashtiriladigan va ko‘zga ko‘rinmaydigan tibbiy atamalar bilan bog‘liq holda yasalgan inson tanasi a’zolari: oyoq, tomoq, bo‘yin, qo‘l, soch, oshqozon, quloq va boshqalar.

3. Badiiy adabiyot, media materiallar, kundalik nutq va hokazolarda metaforalar muallifning kasbiy kompetentligini, savodxonligini, shuningdek, ma’ruzachining hissiyotini ko‘rsatish, ishontirish maqsadlarida qo‘llaniladi. Masalan, Tohir Malikning “Shaytanat” asaridan: «Sen ko‘richakka o‘xshaysan» ; Butun jahon iqtisodiyoti krizisi – moliyaviy trombni yuzaga keltirdi ; Bu muammolardan yoki infarkt yoki insult bo‘lib qolish xech gap emas .

4. Tibbiy atamalarni metaforalashuvida bu atamalarni tashuvchi sof ilmiy tushunchalar haqida gapirish mumkin emas. Ko‘proq, bu uzoqdan, ba’zan bilvosita yoki majoziy ma’noga ega bo‘lgan “qobiq”ning bir turi. G.O.Vinokur ta’kidlaganidek: “Har qanday so‘z atama vazifasini bajarishi mumkin... Atama maxsus so‘z emas, balki faqat maxsus vazifadagi so‘z, maxsus tushunchani,

maxsus obyekt yoki hodisaning nomlash funksiyasi” (Kandelaki, 1970, s. 77). Masalan, G‘ofur G‘ulom she’rida:

Sen yetim emassan,

Tinchlan, jigarim,

Quyoshday mehribon,

Vataning – onang. ...

Odam organizmi a’zosi jigar haqida hech qanday ilmiy bilimlarni umuman yetkazmaydi, balki uning mazmunida bu tashqi sekretiya bezining hayotiy ahamiyatini mujassamlashtiradi. Axir, inson tanasida uning yo‘qligi hayot uchun zid. Shuning uchun ham kundalik nutqda tibbiy atamalar shaxs yoki muayyan jamiyat olami lisoniy tasvirning subyektiv ta’siriga tushib qoladi.

5. Badiiy adabiyot va kundalik hayotda ma’nosi kognitiv ko‘chirilgan termin-metaforalarni ham uchratish mumkin: «Giyohvandlik – bu asr balosi, o‘latdek ofatdir», “Vahima virusi”, “Yangi ishtirokchi bizga bosh og‘riq bo‘ldi”, “Sh.Mirziyoyev: “Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo‘lsa, “Halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz”.

6. Tibbiy metaforalarning yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlaridan kelib chiqib, tibbiy atamalar va professionalizmlarning adabiy va kundalik so‘zlashuv tilining rivojlanishi ularni umumiy qo‘llaniluvchi so‘zlarga aylanishiga olib keladi, degan xulosaga kelish mumkin. Misollardan shunga ishonch hosil qildikki, ilmiy kontekstdan tashqarida ishlatiladigan atama endi ilmiy atamaning bir ma’nolik, obyektivlik, qisqalik va aniq ta’rif kabi mezonlariga javob bermaydi. Masalan: «Ko‘ngil jarohati bitmas hech qachon”; “Suyuq neft mahsulotlari qoldig‘iga to‘kib olinishi mumkin bo‘lmagan idishlardagi qoldiq yoqilg‘ilarning hamma hajmi kiradi (o‘lik qoldiq)”, “Bu sen yo‘l qo‘ygan eng katta telbalik”.

V. Vasileva aytganidek: “Yangi atama bir atama tizimining elementi sifatida paydo bo‘ladi. Tizimlilik va atamaning boshqa xususiyatlari “faqat terminologik maydon ichida amalga oshadi, undan tashqarida atama o‘zining aniqllovchilik va tizimlilik xususiyatlarini yo‘qotadi”. (Vasileva, 1998, 508 b.)

Hozirgi zamon tilshunosligida atamaning semantikasi, jumladan, tibbiy terminning semantikasi ham, so‘zning ma’no nazariyalari asosida talqin qilinishi

mumkin. Terminlarning ma'nosini o'rganish maqsadidan kelib chiqib, uning muammolari va ontologiyalarini turli tomonlardan ochib berish mumkin. Semiotik nazariya doirasida leksik ma'noga K. Ogden va I. Richardsning "semantik uchburchagi"ning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Uchburchak belgi, uning mazmuni (ma'nosi) va obyekt relyativligi (denotati) munosabatlarini ifodalaydi, til va voqelik o'rtasidagi bog'liqlikni qayd etadi. Xuddi shu tarzda, X.Felber fikriga ko'ra, atama kontent, tushuncha, shaxs ongidagi obyekt tasviri bilan bog'liq. (Felber, 1984. 100 b.) Ma'no mustaqil ravishda mavjud bo'la olmaydigan, lekin belgiga "birikib" turadigan va belgining xususiyati sifatida namoyon bo'ladigan munosabat deb tushuniladi. Shuning uchun belgining tashqi va ichki tomoni narsa va munosabat kabi farqlanib turadi. Ikkinchi yondashuvga tadqiqotning funksional yo'nalishi ham yaqin bo'lib, unda ma'no so'z bilan amalga oshiriladigan funktsiya, maqsad sifatida tushuniladi. (Gasitsa. 1990. 10-11 bb.)

Semantik uchburchakning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabat sifatida ma'noni talqin qilish ma'no va tushunchani bir-biriga tenglashtirish muammosini bartaraf etadi: so'zning ma'nosi "so'zning denotat (real voqelik obyekt yoki hodisasi) va designati (obyektning ongda aks etishi yoki obyekt tushunchasi) bilan aloqasi, munosabati orqali aniqlanadi: alohida olingan so'z denotatni anglatib designatni ifodalaydi". (Karaulov, 1976, 113 b.) Bu nuqtayi nazardan ma'noning asosiy turlari farqlanadi:

1) denotativ, ya'ni belgining denotatga nisbati (tushunchaning hajmiga, ekstensionaliga);

2) signifikativ, belgilarning signifikatlarga nisbati (tushunchaning mazmuniga, intensionapga).

Atamaning semantik tarkibida qaysi komponent "ustunlik qilishiga" qarab (denotat yoki signifikat), terminologlar maxsus leksikani quyidagicha ajratadilar: 1) predmetlik terminlar (yoki nomenklatura nomlari), maxsus buyumlarni bildiradi; 2) ilmiy tushunchalarni ifodalovchi haqiqiy atamalar. Tibbiy terminologiyada birinchi guruhga patologik jarayonlar, davolash usullari va boshqa nomlar kiradi, ikkinchi guruhga kasalliklar, mutaxassis shifokorlar, asboblari, dori-darmonlar va boshqalar nomi biriktiriladi.

Shunday qilib, so'zning ma'nosi umumtil lug'ati va kontekstual ma'nodan iborat bo'lib, o'rtacha olinganda, so'zning barcha mumkin bo'lgan taqsimotlarining yig'indisidir. Taqsimotning o'xshashligi sinonimiya uchun mezon bo'lishi mumkin. Demak, tibbiy terminlar yordamida hosil qilingan metaforalarni

umumadabiy soʻzning mumkin boʻlgan semantik maʼnolaridan biri sifatida izohli lugʻatlarga ham kiritish lozim. Soʻzning semantik salohiyati hech qachon nutqda toʻliq amalga oshmaydi, shuning uchun u aniqlanadigan maʼnoning tarkibiy qismlari emas, balki muayyan kommunikativ aktda relevant boʻlib, birgalikda soʻzning haqiqiy maʼnosini tashkil etadi. (Sternin, 1985) Soʻzning semantik strukturasiga ham madaniy-tarixiy, ham ijtimoiy, ham emotiv komponentlar kiradi. (Karaulov, 1987)

Binobarin, metaforaga oʻtuvchi semantika asosida atamalarni ilmiy sohalaridan, shuningdek, tibbiyotdan, boshqa diskurslarga koʻchirishda koʻp ishlatiladigan yoki barchaga tushunarli terminlarga diqqat koʻproq qaratiladi. Muayyan bilim sohalarining elementlari boʻlgan yuqori ixtisoslashgan atamalar odatda faqat shu sohalaridagi mutaxassislar uchun tushunarli boʻladi. Yuqori ixtisoslashgan atamalarning aksariyati izohli lugʻatlarga kiritilmaydi, aksincha, faqat ixtisoslashgan lugʻatlarda mavjud boʻlib, kundalik foydalanish uchun “maxfiyligi”ni saqlab qoladi. Mutaxassislar, odatda, toʻliq boʻlmagan, ammo uning muhim xususiyatlarini aks ettiradigan atamaning ishchi taʼriflaridan foydalanadilar. Masalan: bosh ogʻrigʻi; jigʻildon qaynashi, shilliq qavat yalligʻlanishi, yurak siqilishi kabi. Shubhasiz, tibbiyot vakillari, sogʻliq holatini yoki kasallik taʼrifini yanada osonlashtirishda metaforalardan kundalik nutqda faol foydalanadilar. Oddiy odamlar esa, oʻz navbatida, bu mavjud terminlarni “kesib”, metafora yoʻli bilan turli xil diskurslarga olib oʻtadilar. Metafora nazariyasida uni shaxs tomonidan idrok etilishi va tushunilishi jarayonlarini, turli diskurs va matn turlarida faoliyat koʻrsatish xususiyatlarini oʻrganishga eʼtiborning oʻzgarishi kuzatiladi. Metaforaning muhim xususiyatlari metaforaning jonli tilga mansubligi bilan belgilanadi.

Psixolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan, inson leksikonida tibbiy metafora faoliyati aynan "real mavjud" nuqtasida perseptiv, kognitiv va hissiy-baholovchi tajribaning qayta ishlash mahsulotlarining oʻzaro aloqa qilish jarayonida anglashning turli pogʻonasida uchraydigan koʻp bosqichli jarayonlar majmuasi tomonidan taʼminlanadi. Turli strategiyalar va tayanch elementlardan foydalanish bir qator tashqi va ichki omillar taʼsirida lingvistik va ensiklopedik bilimlar liniyalari boʻylab turkumlash orqali dunyo tasviriga “chiqish”ni taʼminlaydi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, tibbiy metaforaning turli xil nutq turlarida faoliyat koʻrsatishining oʻziga xosligi uning obyektivligiga asoslanadi, chunki shaxs metaforani lingvistik shakli bilan tan olmaydi, balki uni maʼlum maʼnoga ega boʻlgan maʼlumotlar orqali oʻzlashtiradi. Shu bilan birga,

kasbiy bilimlar vaziyat yoki sharoitlarning muayyan tasvirlarini yaratishga yordam beradi, ammo tibbiy metafora ma'nosini tushunishni kafolatlamaydi. Qabul qiluvchilar, jamoa yoki umuman jamiyat talqinidagi farqlar turli xil hayotiy tajribalar, turli munosabatlar, madaniyat, bilish, ya'ni turli nuqtayi nazarlar tufayli yuzaga keladi, bu metafora tasvirini aniqlashtirishga olib keladi. Atrofdagi voqelikni o'z qiyofasi va o'xshashi bilan mohiyatlashtirib, inson kundalik tibbiy metaforalardan foydalanadi, ularni atrofdagi voqelik hodisalari deb ataydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tibbiy metaforaning struktur xususiyatlari uning semantik hajmini va metaforik mosligini belgilaydi.

Yuqoridagilardan shunday muhim xulosa qilish mumkinki, tibbiy metaforaning funksional xususiyatlari bu lingvistik hodisaning "asl obyektivligi"ga asoslangan evristik salohiyatga tayanadi. Demak, nutq ishlab chiqarish va tushunishda tibbiy metaforaning atrofdagi voqelik obyektlari va hodisalari xususiyatlaridan foydalanish jarayonlari va strategiyalari bilan bevosita bog'liqligi mavjud.

Bizningcha, tibbiy metafora sifatida o'ta murakkab va ko'p qirrali hodisaning kelib chiqish tabiati, faoliyat tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish o'rganilayotgan tilning madaniy, kognitiv va lingvistik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Tibbiy metaforalarning ma'no hosil qilish jarayonini turli xil nutq turlarida va turli tillardagi materiallarda tahlil qilish, shuningdek, tibbiy metaforalarning to'liq ma'no tizimini yaratish uchun ham maxsus tadqiqotlar kerak.

§ 2.2 Tibbiyot termin-metaforalari kognitiv hodisa sifatida

XXI asr tilshunoslarning an'anaviy tilshunoslikka munosabatini butunlay o'zgartirdi. Til o'rganishda antropotsentrizm birinchi o'ringa chiqdi. Til qoidalari va hodisalarini tasvirlashda toliqqan tilshunoslik til va uni inson va dunyo bilan o'zaro aloqa qilish faoliyatini o'rgana boshladi. Kognitiv tilshunoslikning tug'ilishi olimlarni kognitiv jarayonlarning bevosita tilga ta'sirini o'rganishga jalb qildi. Dunyo hodisalarini til hodisalariga va aksincha til hodisalarini dunyo hodisalariga o'tish yo'llari va omillarini o'rganishga kirishildi. Bundan tibbiy terminlar ham mustasno emas. Shu kungacha tibbiyot terminlarini to'plash, lug'atlar yaratish, ilmiy aspektda ham faqat leksik-grammatik jihatlarini ochib berishga asosiy e'tibor

qaratilgan bo'lsa, bugun qarash o'zgardi: dunyoning lisoniy manzarasida tibbiyot terminlarining tutgan o'rnini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi.

Bizning tadqiqotimiz ham aynan mana shu jihati bilan e'tiborga molik va dolzarb sanaladi. Zero, "Til bo'yicha maxsus tanlangan va tahlil qilingan ma'lumotlar inson aqli va aqlning tabiati va uning xatti-harakati bilan bog'liq muammolarni yanada kengroq ta'kidlash uchun ishlatilishi mumkin va undan foydalanish kerak. Bu uning atrofidagi dunyo va boshqa odamlar bilan inson hamkorligining barcha jarayonlarida namoyon bo'ladi". (Kubryakova, 2004, 34 b.)

Shunday qilib, tilni o'rganish sof semantik ma'nodan tashqariga chiqdi. M. V. Pimenova, M. Blek so'zlarini talqin qilib, shunday deb yozgan: "So'z va konsept o'rtasidagi munosabatni aysbergning ko'rinadigan va ko'rinmas qismiga o'xshatish mumkin. Leksik ma'no komponentlari muhim tushunchaviy xususiyatlarni ifoda etadi, lekin to'liq emas. Tushuncha so'zning leksik ma'nosidan ko'ra hajmiyroqdir. Tushunchaning tuzilishi so'zning lug'aviy ma'nosiga qaraganda ancha murakkab va ko'p qirralidir". (Pimenova, 2006, 172-186 b.)

Tadqiqotimizning dolzarbligi shundaki, tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida til birliklarining inson tomonidan ishlatilishi, ularning o'zlashtirilishi va ongda "qayta ishlanishi" asosini aniqlash kabi hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarga duch keldi. Dunyoning lingvistik tasviri xaqida Ye.S.Kubryakova yozishicha, "tasvir nusxa ko'chirmaydi, balki voqelikni aks ettiradi va bu aks, albatta, uning buzilishini anglatadi: obyektlarning ayrim xususiyatlari aks ettirilishda muqarrar ravishda yo'qoladi, faqat eng muhimlari, ya'ni saliyentlilari saqlanib qoladi". (Kubryakova, 1994, 34-47 b.)

Bugungi kungacha bu yo'nalishda turli mamlakatlarning tilshunos-kognitivist olimlari tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar va kashfiyotlar qilingan. Hozirda, til haqidagi ta'limotlar kognitiv, madaniy va hatto psixologik aspektlarda ko'rib chiqilyapti. Konseptuallashtirish "inson bilish faoliyatining eng muhim jarayonlaridan biri bo'lib, konseptlar, konseptual tuzilmalar va umuman, inson ongida butun konseptual tizimning shaklanishiga olib keluvchi va qabul qilinayotgan ma'lumotni anglashdan iborat jarayondir". (Kubryakova, 1994, 93 b.) Muayyan sohaning konseptual apparatini o'rganish va egallash kasbiy terminologik savodxonlikning yuqori darajasini ta'minlaydi. Zero, bu nafaqat leksik minimum, balki o'rganilayotgan sohani kognitiv darajasida bilish va idrok etishdir.

Kognitiv tilshunoslik o'zining birinchi darajadagi vazifasi deb "til qadog'ini" (Bitokova, 2006, 95-98 b.) ma'lum bir ma'no shaklida taqdim etishdan oldin perseptiv kanallar orqali tashqaridan olinadigan ma'lumotlarni murakkab fikr jarayoni orqali obyektlashtirishni e'tiborga oladi. Kognitivistika fanining asosiy maqsadlaridan yana biri inson tafakkurining aqliy tuzilmalari va til o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdir. Bu til o'rganishda antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazaridan qiyin aniqlanadigan, tasniflanadigan, munozarali, ammo zururiy sanaladi. "Tabiiy tilning antropotsentrikligi uning tizimida, tuzilishida, faoliyatida va evolyutsiyasida nutq, idrok, bilish, fikrlash, anglash, xulq-atvor, faoliyat va madaniyat subyekti sifatida til egasining bo'lishini nazarda tutadi" (Ryabseva, 2005, 10 b.).

Tibbiyot leksikadagi konseptual metaforani o'rganishdan oldin biz ishimizga asos qilib olingan konsept atamasining tasnifini aniqlashtirmoqchimiz. Shunday qilib, tilshunos-kognitivistlar tomonidan berilgan kognitiv tilshunoslik va konseptning tasniflarini jamlab ilmiy konseptni olimning hayotiy tajribasi, o'z faoliyatining tasavvurlari, hissiy-evristik va baholovchi jarayonlari hamda dunyoni bilish natijasida shakllangan obyektiv ilmiy ma'lumotlarga asoslangan konseptual tizimning mazmunli birligi sifatida talqin etish mumkin.

Bir qator qomusiy lug'atlar, darsliklar va tibbiy jurnallarning tahlili ilmiy-ommabop tibbiy diskursda konseptual metafora haqida gapirishga asos beradi. Metafora-terminlar tibbiy terminologiyada tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ularning keng tarqalishi mutaxassislar va nomutaxassislar nutqida tibbiy so'zlashuvning samarali ishlashini ta'minlaydi. Ta'kidlash joizki, tibbiy metafora tushunchasi ostida tibbiy diskursga mansub leksema (lar) va sodda diskursga mansub til birligi (lar) dan iborat bo'lgan so'z birliklari nazarda tutiladi.

Ayni paytda, dunyoda bilim darajasi o'sishi, fanlar integratsiyasi va bunga hissa qo'shgan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bir-tarmoqli va ko'p tarmoqli tuzilmalarni o'z ichiga olgan odatiy mutaxassis-mutaxassis kommunikatsiya modelidan mutaxassis-nomutaxassis muloqot modeliga olib keldi. Tadqiqotimizning ikkinchi bobining birinchi paragrafida aytilganidek, ikkinchi model tibbiyotda, ayniqsa, keng tarqaldi. Bugun tibbiy leksikani ilmiy-ommabop adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida, radio va televideniye ko'rsatuvlari va eshittirishlarida, bemorlar uchun risolalarda, reklama varaqalarida va hokazolarda osongina topish mumkin. Bu ma'lumotlarni o'zlashtirish va tushunishning yuqori koeffitsiyenti esa asosan tibbiy metaforalar bilan ta'minlangan.

Bizga ma'lumki, qadim zamonlardan beri tibbiyotda ilmiy terminlar emas, balki obrazli nomlar va iboralar ishlatilib kelinadi. Bu insoniyat tamadduni tarixi bilan bog'liq: miloddan avvalgi vaqtda bu faqat kuzatish va taqqoslash asosida paydo bo'lgan birinchi "tibbiy" nomlar, keyinchalik, inson tanasining tuzilishini o'rganish diniy e'tiqod bilan taqiqlangan bo'lganda, ehtimol, tibbiy atamalar maxsus kundalik, antropomorfik va boshqa assotsiativ xususiyatdagi metaforalar bilan shifrlangan va kamdan-kam hollarda qadimiy ilmiy nazariyalarni aks etirgan edi.

Shu bilan birga, metafora zamonaviy ilmiy tibbiyotda aytiluvchi tushunchani konkret, jonli va qulay shakllarga aylantirish qobiliyati tufayli ham ommalashtirildi.

Metaforaning birinchi ta'rif 2,5 ming yil oldin Aristotel tomonidan berilgan edi. «Metafora – xos bo'lmagan nom bo'lib, u turdan toifaga, yoki toifadan turga, yoki turdan turga, yoki toifadan toifaga ko'chiriladi.» Albatta, bu metaforaga berilgan eng oson ta'rif emas, balki muallifning fikriga ko'ra, falsafiy ta'rif. Uning zamonaviy talqini quyidagicha: metafora – yorqinlik va emotsionallikni yaratish uchun ishlatiladigan adabiy usul. U bir obyekt yoki harakatning xususiyatlarini boshqasiga ko'chiradi. "Metaforizatsiya jarayoni "dunyo haqida yangi bilimlarni olishga va bu bilimlarni tilga moslashtirishga olib keladi. Metaforizatsiya til bilan ifodalangan o'z navbatida dunyo ko'rinishiga "to'qilgan" metaforik ma'noda iz qoldiradigan reinterpretsiyalangan nom ma'nosida aks etuvchi allaqachon ma'lum bo'lgan voqelikning belgilarini yangi tushunchaga qo'shilishi bilan kechadi". (Teliya, 1988, 186 b.)

Agar tibbiy metafora dunyoning tibbiy ko'rinishini idrok qilishning obrazli modellashtirilishi bo'lsa, konseptual tibbiy metafora birinchi tasavvurlar, o'xshatma, taqqoslash, tahlil va nominatsiyalar bilan boshlanuvchi metaforaning paydo bo'lish jarayonidir. Metaforik ko'chirish kognitiv jarayonning barcha darajalarida: kategoriyalashning asosiy darajasidan boshlab ilmiy gipoteza va nazariyalarni shakllantirishgacha amalga oshiriladi, deb aytishimiz mumkin. "O'xshashlik metaforani kognitiv "mazmuni"ni (idrok va tushunchani) belgilaydi, metafora o'zi esa semiotizatsiya va leksik ifodani o'z ichiga olgan lingvistik darajada fikrning yanada aniq ifodasidir." (Djakobson, 1963, 61-67 bb.). Demak, inson o'z miyasida yuzaga kelgan, anglanilgan va tahlil qilingan har qanday voqea yoki hodisani til belgisi shaklida obyektivlashtiradi, ya'ni yangi tushunchani o'ziga oldindan ma'lum bo'lgan tushunchaga moslashtiradi. "Til ong mehanizmini elementar tafakkur kategoriyalari bilan ta'minlaydi, busiz alohida jumalarni

tushunish jarayoni mumkin emas, hatto fikrni shakllantirish jarayoni va binobarin, bilimlarni yangilash jarayoni ham mumkin emas". (Katsnelson, 2001, 480 b.)

Tibbiy metaforaning kognitiv hodisa sifatida o'ziga hos xususiyatlari nazariyasini ishlab chiqish muhim, chunki tilshunoslik, falsafa, psixologiya, nevrologiya fanlari doirasida to'plangan bilimlarni integratsiya qilish kerak, bu esa tibbiyotda metafora faoliyatining hozirgi muammolarini va tibbiy so'z birikmalarini turli xil nutqlarda qo'llash muammolarini yoritishga yordam beradi. Bizning tadqiqotimizda tibbiy metafora tibbiyot olimlari (muallif-ijodkorlar) tomonidan tibbiy hodisalarning hissiy va baholovchi munosabatini ifodalash vositasi sifatida va bu metaforalarni nomutaxassislar tomonidan qabul qilinishi kognitiv fenomen sifatida ko'rilmogda. Kognitiv fanlarning ma'lumotlari konseptualizatsiya va metaforizatsiya jarayonlari o'rtasidagi fundamental aloqaning mavjudligini tasdiqlashga imkon beradi: fikr sohasiga tegishli bo'lgan va metaforik tushuncha sifatida kognitiv tuzilmalarga joylashtirilgan metafora, mantiqiy-diskursiv fikrlash faoliyat ko'rsatadigan katta mavhum va nazariy tushunchalarning muhim asosini tashkil etadi. (Zubkova, 2004, 85-88 bb.)

Lakoff va Djonsonning kognitiv metaforaga asos solgan «Biz bilan yashayotgan metaforalar» deb nomlangan asari paydo bo'lgandan keyin bu usulning butunlay yangi qirralari ochib berildi va u tilshunoslar oldiga yangi maqsad va vazifalarni qo'ydi. Konseptual metafora nazariyasining faol rivojlanishi 1987 yilda ushbu fundamental asar tarjimasidan keyin sobiq ittifoq tilshunoslari orasida ham boshlandi. Dj. Lakoff va M. Djonsonning kotsepsiyasiga ko'ra "...Hayotning barcha sohalarida biz voqeilikni metafora tilida aniqlaymiz va keyin biz ularga muvofiq harakat qila boshlaymiz. Biz natijalarni chiqaramiz, maqsadlarni aniqlaymiz, majburiyatlarni zimmamizga olamiz va rejalarni amalga oshiramiz – biz bularning barchasini qisman tarkiblashgan tajriba asosida ongli yoki ongsiz metafora yordamida amalga oshiramiz" (Lakoff, Djonson, 2004, 187 b.). Bugungi kunda ko'plab tilshunoslar nafaqat majoziy, balki real konseptual metaforani ham o'rganishga murojaat qilmoqdalar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, metaforizatsiya jarayoni tibbiy leksikada ham hali u ilmiy bo'lmagan, shakllanish asoslarini endigina boshlagan davridayoq unga hamrohlik qilgan. "Bilishning umumlashgan tajribasi insonning konseptual tizimida asosiy siymo-sxemalar (imageschémas) ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bunday tuzilgan tanaviy tajriba quyidagi siymo-sxemalarni o'z ichiga oladi: konteyner, kuch, harakat, simmetriya va muvozanat" (Kovecses, 2005, 19 b.). Kovecsesning tayanch obraz-sxemasi inson tabiatiga xos bo'lgan yurish, yugurish, egilish, burilish, og'irliklarni ko'tarish va jildirish, muvozanatni saqlash kabi

abstrakt sxemalardan iborat. Boshqa jismoniy va jismoniy bo'lmagan malakalarning rivojlanishi ilgari shakllangan ko'nikma, bilim, tajriba va ko'nikmalar asosida rivojlanadigan konseptual metaforalar bilan shakllanadi. Ularning anatomik tuzilishi, tabiiy ko'nikmalari va tug'ma reflekslarini kuzatgan inson lisoniy nomlanish birliklarini ham rivojlantirgan. Bu ilmiy diskursda metaforaning paydo bo'lish hodisasini kognitiv faoliyatning natijasi deb hisoblash mumkinligini isbotlaydi. "Metaforaning konseptualligi noma'lum mavhum tushunchani boshqa, aniq, idrok qilinuvchi, shuning uchun ham ma'lum va tushunarli bo'lganga tarkiblashtirishga imkon beradi. Metafora aql-idrokning "qo'lini" uzaytiradi, hattoki "xayolga kelmas", nomini ham aytish qiyin bo'lgan, xayolning chuqur chegaralarini ko'rish imkonini yaratadi" (Ortega-i-Gasset, 1990, 68-81 bb.). Lakoffning so'zlariga ko'ra, "Metaforaning konseptual tizimga kirishi uning lingvistik, ijtimoiy-madaniy, neyrofiziologik, jismoniy va shu kabi boshqa sohalarida belgilaydi ham namoyon bo'lishi uchun asos yaratadi va uni paradigmatic miqyosidagi noyob fenomenga aylantiradi". (Lakoff 2004, p.8)

Tibbiy metaforalarning kognitiv vazifalarini har tomonlama o'rganish uchun biz bir nechta tasniflar bo'yicha tahlil o'tkazdik. Avvalo, vazifaviy tasnifda tekshirdik: maqsadga ko'ra turkumladi. Bajaradigan vazifalariga ko'ra tibbiy metaforalar quyidagilarga bo'linadi:

1. Biror holat yoki kasallikka baho beruvchi tibbiy metaforalar: dominant o'chog', yomon sifat kasb etish.

2. Dekorativ voqelikni estetik aks ettirish va nutqni bezatish uchun qo'llangan tibbiy metaforalar: "ko'z guli", ko'z gavhari, tishti.

3. His-xayajonni ifodalovchi metaforalar: "qoyilmaqom befarqlik", "o'qimishli telba".

4. Kasallik sababini yoki unga bog'liq asoratlarni ko'rsatuvchi tibbiy metaforalar: "vabo ko'zoynagi", yozuv spazmi.

5. Qardoshlik-urug' nomlari ishtirokida hosil qilingan tibbiy metaforalar: organizm murtagi, ona hujayra.

6. Toponimik nomlar ishtirokida hosil qilingan tibbiy metaforalar: Amerika tripanosomozi, Italyancha rinoplastika, Saturn halqasi.

7. Eponimik tibbiy metaforalar: Yevstaxiyev nayi; Vortanov dirildog'i, Meyssner tanachasi, Merkeliyev diski.

8. Shaklni, tashqi ko‘rinishni ifodalovchi tibbiy metaforalar: g‘ovak konussimon dasta, aorta yoyi, g‘altaksimon nerv.

Bu tasnif faqat ko‘p ishlatiladigan metaforalarga nisbatan olingan bo‘lib, ulardan tashqari, kasbiy o‘ziga xoslik, yosh xususiyatlari, rangi, tarkibi va boshqalarni aks ettiruvchi metaforalar ham bor. Bu esa tibbiy metaforalarning kognitivligini yana bir bor isbotlaydi. Ularning bajaradigan vazifalariga ko‘ra tasniflanishi cheksizdir.

Agar tibbiy metafora-atamalarining shakllanishi kognitiv hodisa bo‘lsa, unda ular qanday mexanizmlar asosida shakllanadi? Kognitiv mexanizmlarning quyidagi turlari aniqlandi:

1. Taniqli shaxslar timsolini ko‘chirish. Axborot taniqli adabiy, tarixiy, afsonaviy yoki real obrazlar va qahramonlar orqali talqin qilinadi: Alisa mo‘jizalar mamlakatida, Axill refleksi, Van Gog simptomi; Don Kixot kompleksi kabi.

2. Izohlash – tushuntirish orqali asosiy xususiyat yoki sabab ochib beriladi: ko‘ylakli tug‘ruq, qishki qusish kasalligi va h. k.

3. Qiyoslash – taqqoslash. Ma’lum hodisa yoki obyekt bilan taqqoslash orqali metafora-atamaning xususiyatlarini kashf etish: yo‘lbars til, olcha danagi simptomi; g‘alvirsimon plastinka va h. k.

4. Urg‘u berish orqali: beshikdagi o‘lim, go‘daklar pufakchasi va h. k.

5. Umumlashtirish orqali: okklyuzion kasalliklar, standart odam va h. k.

Aniqlangan mexanizmlardan eng ko‘p tarqalgani qiyoslash – (taqqoslash) va taniqli obrazlarni ko‘chirish (mashhur obrazlarni nusxalash) yordamida yaratilgan tibbiy metaforalar tashkil etadi. Tibbiy nutqdagi metaforizatsiya jarayoni asosan yuqorida sanab o‘tilgan mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi.


Tibbiy metaforalarning maqsadli yo‘nalishi va shakllanish mexanizmlarini aniqlagandan so‘ng ularning faoliyatini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Agar tibbiy diskursdagi atama-metafora bilan tibbiy leksikadagi termin-metaforani qiyoslasak, tilning tibbiy birligi o‘z o‘rnini qanday o‘zgartirganini ko‘ramiz. Misol uchun, tibbiy leksikadan olingan metaforalar: Markaziy Osiyo yagona organizm, sog‘lom muhit, vahima virusi, sevgi anatomiyasi, xalollik vaksinasi va h. k.; tibbiy diskursda qo‘llaniladigan metafora-terminlar: epitelial durlar, Avstraliya kasalligi, adashgan buyrak, bachadon bo‘yni va boshqalar. Bu yerda ta’kidlash lozimki, tilning tibbiy metaforik belgisi tibbiy atamaning semantikasini ochib beruvchi aniq

soʻzdan tashkil topgan, kundalik nutqdagi metaforada esa, aksincha, tibbiy leksema muhim rol oʻynaydi, yaʼni metaforaning mazmunini ochishda iboradagi asosiy soʻz muhim oʻrin tutadi. Qayta nominatsiyada yetakchi soʻzlar tushunchani yangi maʼnoga oʻzgargan sifatlar bilan faollashtiradi. Shunday qilib, tibbiy metaforada denotat adabiy tilning leksemasi, konnotat esa tibbiy diskursdan soʻz, tibbiy diskursda ishlaydigan metaforada denotat bu sodda diskursdagi soʻz, konnotat esa – tibbiy atama.

Kalashnikova taʼkidlaganidek: “Ongda konseptlarning oʻzaro chatishishi konseptual tarmoqni tashkil etadi. Bunday tarmoqqa har qanday kirish tegishli konseptual sxemani qidirish va faollashtirishni oʻz ichiga oladi. Semantik tarmoqda kerakli maʼlumotlarni qidirish differensial belgilar orqali amalga oshiriladi. Odatda, bunday belgilar turli tushunchalarda mavjud boʻladi va ular qidiruv semantik kodni taqqoslash tamoyiliga asosan topiladi. Kerakli maʼlumotlar bilan aloqa oʻrnatilgunga qadar bir vaqtning oʻzida boshqa maʼlumotlardan foydalaniladi.” (Kalashnikova, 2006, 15 b.)

Bundan kelib chiqadiki, metaforaning kognitiv hodisa sifatida yana bir evristik vazifasini ajratish va taʼkidlanish lozim: metafora faqat obyekt gʻoyasini shakllantiribgina qolmay, u haqda fikr yuritish usuli va uslubini ham belgilaydi.

Tibbiy metaforaning kognitiv hodisa ekanligi haqida gapirganda, ularning manbalari boʻlgan sohalarni mavzuiy tahlil qilish lozimligini yodda tutish kerak. Metaforik qatlamni quyidagi asosiy kategoriyalarga ajratdik:



Kasalliklar va davolash metaforalarini oʻrgangan rus va ingliz tilshunoslari ularda “urush” semasidan faol foydalanildi, degan xulosaga kelganlar. Oʻzbek

tilidagi metaforalarni tahlil qilish jarayonida ularning xulosalariga qo'shilish mumkin. Masalan, kasallikka qarshi kurashish, kasallikni yengish, davolashda oldinga yurish, yurak blokadasi, viruslar hujumi va hokazo. Ushbu semantik guruhda leksemalarning ishlatilishida organizm safarbarlik holatida tasavvur qilinadi va bir qismining vayron bo'lishi nazarda tutiladi, davolanish esa harbiy operatsiyalar kabi tasavvur qilinadi. Bakteriyalarni va viruslarni o'ldirish va yo'q qilish, kerak bo'lganda, tananing og'riqli holati urush holatiga o'xshatiladi va "jang" natijasi faqat taxmin qilinishi mumkin.

Alomatlar va kasallikning oldini olishga kelsak, bir yoki ikki manbani aniqlash qiyin. Simptom-metaforalarining aksariyati hayvonot yoki o'simlik dunyosi bilan bog'liq holatni ifodalaydi. Umuman olganda, eponimlar simptom va sindromlar kategoriyasida ustunlik qiladi: atama nomi muallif nomidan iborat. Oldini olish va sog'ayish kategoriyasida esa metaforizatsiya jarayonining o'zi unchalik dolzarb emas, ular tilda deyarli yo'q. Faqat xalq orasida ko'proq ishlatiluvchi ba'zi metaforalarga duch kelish mumkin. Misol uchun, qushdek yengilladim, ko'nglim yorishdi, yuziga qizil yugurdi. Bu shuni ko'rsatadiki, insonning konseptual tasavvurida tibbiyot hali ham salbiy tasavvur uyg'otadi.

Tadqiqotdan quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Bugungi kunga kelib metaforani faqat tilshunoslik yoki semantika nuqtayi nazaridan o'rganish tilga bo'lgan barcha talablarga javob bermaydi. Metaforani o'rganishda aynan kognitiv yondashuv, uni hali o'rganilmagan jihatlari va tomonlaridan ko'rib chiqish uchun ko'maklashadi, psixolingvistik va ekstralingvistik omillarni birlashtirish imkonini beradi.
2. Tibbiy metafora shaxs kognitiv (bilish) faoliyatidagi aqliy va assotsiativ-obrazli natijaning yorqin namunasidir. S. Bitokova ta'kidlaganidek: "Tilni inson ongining kognitiv mexanizmlariga kirishni ta'minlaydigan eng ishonchli manba ekanligini hisobga olsak, kognitiv paradigma fikrlash va til ma'lumotlarining kognitiv tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni o'rnatishga qaratilgan."(Bitokov, 2006 yil, 146-154 bb.). Tahlilimiz natijasiga ko'ra biz shuni aniqladikki, tibbiy leksika: a) mutaxassislar va nomutaxassislar tomonidan eng keng qo'llaniladiganlardan biri; b) atama-metaforalar soni boshqa fanlar terminlariga nisbatan ko'p; c) tibbiy metafora yangi bilimni obyektivlashtirish uchun barcha mavzuiy, tarkibiy, nominativ, tilning uslubiy va leksik xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

3. Tibbiy metafora yangi, hali oshkor etilmagan obrazda mavjud til birliklarining oshkor etilishi uchun ikkilamchi nom berish imkoniyatini ilgari suruvchi kognitiv mexanizmi natijasida soʻzsiz qabul qilinishi mumkin.

4. Tibbiy metaforani konsepsiyalash jarayonini oʻrganish ham bu sohani tasniflashga yordam beradi. Tadqiqotimizda biz toifalashga konsepsiyalash natijasi deb qaradik.

5. Konseptual metaforalar bizga bir sohaning mavhum tushunchalarini boshqasi orqali voqelashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, bizning ongimizda majoziy tushunchalarning aniq konseptlari tasvirlanadi. Muhim qimmatli maʼlumotlarni retsipyentga (bemor, uning qarindoshlari va hokazolarga) yetkazishda bu juda ahamiyatli rol oʻynaydi.

6. Zamonaviy tilshunoslikda metafora ibtidoiy badiiy usul sifatida namoyon boʻlmasdan, kognitiv, yaʼni hammabop aniq shaklda mavjud boʻlgan kognitiv mulohazalarni manipulyatsiya qilish va taqdim etish vositasi sifatida qoʻriladi.

7. Ilmiy metaforalarni turli xil diskurslarda vazifalar, mavzular va mexanizmlarga koʻra tahlil qilish uchun, avvalo, uning modelini yaratish kerak. Bu turli sohalarda ilmiy metaforalar hosil boʻlishidan oldin axborotni oʻrganib chiqish bosqichlarini aniqlashga yordam beradi.

1) funksiya – inson idrokining tabiatini aks ettirish; 2) mavzu – dunyoni tushunish; 3) mexanizmlar – fikrlash va tilning aloqasi. Shunga asoslanib ilmiy metaforalarni kognitiv idrok etish qoidalarini ishlab chiqish mumkin.

8. Tadqiqotimizda tibbiy metaforalarning 8 ta asosiy vazifasi aniqlandi, ammo bu tahlilni davom ettirish mumkin. Bu tibbiy metaforaning konseptual sohasining koʻlamini koʻrsatadi.

9. Kognitiv metaforalarning paydo boʻlish mexanizmlarini oʻrganish konseptual vaziyatlarni va uning shakllanishi uchun ruhiy obrazlarni (tasvirlarni) aniqlashga yordam beradi.

10. Tibbiy metaforaning konseptual tushunchasi salbiy his-tuygʻular va hissiyotlarga asoslangan. Tilda sogʻayish va kasalliklarning oldini olish haqida ijobiy baholash metaforalari deyarli kuzatilmaydi.

Tibbiy metaforani kognitiv fenomen sifatida oʻrganish tilshunoslikning mazkur koʻp qirrali hodisasi haqidagi bilimlarni tushunish va chuqurlashtirish imkonini beradi.

§ 2.3. Tibbiyot termin-metaforalarining milliy-madaniy xususiyatlari

Insonni milliy madaniyat, ya'ni milliy an'analar, ona tili, tarix, adabiyot va uning atrofidagi jamiyat shakllantiradi. Bular hammasi avloddan-avlodga til orqali o'tib keladi.

XVIII asrda yashagan ingliz yozuvchisi Samuel Djonson til haqida shunday yozgan: "Til – fikrlar libosidir (Language is the dress of thought) ". Uning zamondoshi, nemis filologi va faylasufi Gumboldt tilni unda gapiradigan xalqning "ruh"i deb atagan . Ular bir-birisiz yashay olmaydi. Tilshunoslik ta'limotining tarixiy taraqqiyoti tilni grammatik, leksik va semantik qoidalar majmuidan ko'ra ancha keng ko'lamda, milliy-madaniy nuqtayi nazardan o'rganish muhim, degan muqarrar xulosaga olib keldi. Kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar ilmiy munozaralar va tadqiqotlar markaziga chiqdi.

XX asr oxiriga kelib psixologiya, neyrologiya, geografiya, kompyuter texnologiyasi va h.k. fanlar bilan tilshunoslik oraliq'ida psixolingvistika, neyrolingvistika, areal tilshunoslik, kompyuter tilshunosligi kabi istiqbolli yo'nalishlar shakllandi. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik kesishmasida lingvomadaniyatshunoslik fani paydo bo'ldi. XXI asrda lingvokulturologik tahlilning turli ilmiy tushuncha va usullarini hisobga olgan holda ushbu lingvistik yo'nalishning munosabati, ta'riflari va butun konseptual va terminologik apparatlari shakllana boshladi. Yangi yaratilgan tushunchalarda konseptual obyektlarni aniqlashda olimlar o'rtasida turlicha fikrlar bo'lishiga qaramay, lingvokulturologiyada tilshunoslar dastlab bu fanning "til-madaniyat" asosiga qurilgani haqida yagona fikr bor edi. Demak, lingvokulturologiya tilshunoslikning bir yo'nalishi emas, balki mustaqil ilmiy yo'nalish bo'lib, o'rganish uchun belgilangan yondashuv va o'z tushunchalariga ega. Bu til va nutqdagi madaniyatning namoyon bo'lishini qayd etish va, aksincha, madaniyatning tilda aks etishi va tilga ta'sirini o'rganadigan ilm fan sanaladi. Uni o'rganishning dolzarbligi shundaki, u nafaqat tilni madaniyatga o'zaro bog'lab o'rganish, balki til orqali madaniyatni o'rganishga puxta ilmiy yondashuv orqali xalqlarning madaniy merosini chuqur tahlil qiladi. Ye. Sepir yozgan edi: "Til – madaniyatni ilmiy o'rganishda yetakchi tamoyil sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan qo'llanma". (Sepir, 2002) Lingvokulturologiya til "ruhi" dan, til mentaliteti bilan bog'liq hodisalardan kelib chiqadi, nutqiy muloqotni tashkil etishning milliy-madaniy o'ziga xos qoidalarini o'rganadi, tilda aks etgan madaniyat ma'naviyati va tarixini ko'rsatadi.

Fandagi bu tendensiya hozirgi tilshunoslikning umumiy tendensiyasiga mos keladi va u nafaqat intralingvistik, balki ekstralingvistik vositalardan foydalana boshladi. F. de Sossyur ham yozgan: “Bizning tilga bergan ta’rifimiz “til” tushunchasidan uning vujudiga, tizimiga begona bo’lgan har bir narsani chiqarib tashlashni nazarda tutadi”. (F. de Sossyur, 1977) “Til va madaniyat” tushunchasi muayyan til orqali ifodalangan xalq yoki millat madaniyatining barcha tajriba va bilimlarini o’z ichiga oladi. Ye. Sepir aytganidek: “Madaniyatni jamiyat nima qilishi va nima deb o’ylashiga ko’ra ta’riflash mumkin. Til esa odamlarning fikrlash tarzidir”. (Sepir, 2002) Lingvokulturologiyaning asosiy atamalari dunyoning milliy qiyofasi, til ongi va tafakkuri, aqliy-lisoniy majmuaning xususiyatlari va boshqalar. “Til va madaniyat” o’rtasidagi eng to’liq munosabat V. fon Gumboldt asarlarida o’z aksini topgan. Uning yozishicha: “Inson asosan obyektlar bilan ularni til unga taqdim etishiga qo’ra yashaydi. Har bir til o’ziga mansub bo’lgan xalq atrofida doira tasvirlaydi, undan boshqa til doirasiga kirgan odamgagina undan chiqib ketishga ruxsat beriladi.” (V. fon Gumboldt, 1984)

Tildagi madaniyat bu, albatta, birinchi navbatda, xalq ijodiyoti natijalari: maqollar, matallar, frazeologik birliklar, metaforalar va boshqalarda aks etadi. Faqat shu janrlardagina turli millat va xalqlarning o’ziga xosligini, bir-biriga o’xshash narsalar, hodisalar va g’oyalarning timsolini ko’rish mumkin. Shuning uchun tilshunoslikning bu leksik qatlami ko’proq lingvokulturologiya obyektlariga aylanadi.

Xalqlarning o’ziga xosligi tibbiy metaforalarda ham yaqqol namoyon bo’ladi. Masalan: o’zbeklar nutqida faol qo’llaniladigan chechak, tepki, shamollash metaforik terminlar, rus tilida ospa, svinka, prostuda; ingliz tilida smallpox, mumps, cold shakllarida qo’llanadi.

Parotit, sin. tepki – o’tkir yuqumli kasallik. So’lak bezlari (ayniqsa, quloq oldi bezining yallig’lanishi bilan kechadi. Filtrlanuvchi viruslar ko’zg’atadi. Tepki terminining qo’llanilishi xalq tabobatida kasallikka uchragan bemorni “o’qitib”, “tepib” qo’yish urfidan olingan. Rus tilida svinka terminidan foydalanishi bemor yuzi, ayniqsa, quloq orti bezlarining ishib ketishi natijasida cho’chka boshini eslatishidan olingan. Ushbu terminlar qiyosidanoq turli xalqlarning bitta kasallikka bergan nomlaridan (o’zbek xalqida “o’qitish”, rus xalqida cho’chqa boqish) madaniyati, urf-odatlaridagi farqni ko’rsa bo’ladi.

Tibbiy metaforalarning jamiyat hayotiga tez va oson o’zlashishini koronavirus pandemiyasi davrida o’zlashgan leksemalar misolida ko’rishimiz mumkin. Tibbiy niqob, tibbiy qo’lqop, birinchi to’lqin, ikkinchi to’lqin, uchinchi

to'liqin, britancha shtamp, la'nativirus kabi tibbiy metaforalar ma'nosi bugun hammaga ma'lum.

“Metaforizatsiyaning lingvistik va madaniy vektorini qidirish milliy-madaniy dunyoqarashning chuqur asoslarini o'rganishga olib keladi va bu dunyoning milliy-lingvistik tasvirining ko'plab xususiyatlarini, milliy (va individual) til ongini belgilaydi (Yurkov, 2012). Metafora – bu madaniyat tomonidan to'plangan, leksikografiyada qayd etilgan va til egasiga o'tkaziluvchi lingvistik meros. Til madaniyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning birliklari, jumladan tibbiy metafora madaniy tahlilga muhtoj.

Tibbiy metafora lingvistik va madaniy ma'lumot olish uchun ahamiyatli manbadir. Tibbiy atamalar tizimi metaforik modellarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Unda atrof-muhitni anglashning umumbashariy qonuniyatlari, shuningdek, uning milliy, ijtimoiy va kasbiy xususiyatlari yaqqol o'z ifodasini topgan.

Tibbiy metaforalar insonning tibbiy hodisaga, kasallikka yoki davolanishga o'z munosabatini bildiradi olish imkoniyatini to'liq amalga oshiradi. Aynan metafora orqali muallif tibbiy hodisa va jarayonlarga baho beradi, o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi, ongli yoki ongsiz ravishda o'zining madaniy munosabatini bildiradi va meros qilib qoldiradi. Tibbiy metaforaning kelib chiqishi negizida nafaqat ilmiy faktlar va xulosalar majmuasi, balki hayotiy, ko'proq madaniy, tajribasi asosida, kognitiv operatsiyalar orqali yangi tushunchaga ega bo'lgan emotsional munosabat yotadi.

Metaforani lingvokulturologik hodisa sifatida ko'rib chiqish ma'no ko'chishining obrazli asosi hisoblanadi. Bunda lingvistik belgining ikkinchi darajali nominatsiyaga o'tish jarayoni emas, aksincha, shaxsning ijtimoiy, madaniy, diniy va jamoat hayotidan kelib chiqqan kognitiv fikrlash tasavvurlariga asoslangan shakllanish o'rtasidagi oraliq nazarda tutiladi.

Dunyoning lisoniy manzarasida maxsus atamalar yoki sodda so'zlarni ishlatish o'rtasida chegara yo'q. Metaforalar ilmiy atamalar boshqa sohadan kundalik nutqqa o'tib o'z mavqeini yo'qotishi mumkinligini ko'rsatadi. Atama o'zining ilmiy ta'rifini yo'qotadi, asl nusxasining bir qismini yoki ma'nosini saqlaydi. Shuningdek, kundalik tildan olingan so'zlar metaforaning bir qismi sifatida ilmiy atamaga o'tishi mumkin. Shunday qilib, inson va olam bir-biriga o'zaro ta'sir etib, shaxsning atrofdagi voqelikka munosabatidan dunyoning lisoniy manzarasi hosil bo'ladi va dunyoning mana shu tasviri voqelikning inson tomonidan idrok etilishiga olib keladi. “Ko'pchilik tadqiqotchilar buni alohida bir

shaxs ongida dunyoning maxsus modeli sifatida tushunadilar. Bir millat vakillarining atrofdagi voqelik haqidagi o'xshash tasavvurlari dunyoning lingvistik manzarasini shakllantiradi, barcha madaniyatlar uchun universal bilim dunyoning ilmiy ta'rifini beradi".(Serebrennikov Ye.S.) V. Gak metaforani quyidagicha ta'riflagan: "Metaforada ham universallik, ham o'ziga xoslik mavjud, chunki bir tomondan, u fikrlash va o'rganish uchun vosita, boshqa tomondan – fundamental milliy-madaniy dunyoqarashga va ularga mos bo'lgan muayyan subkultura doirasidagi individual qadriyatlar tizimiga asoslangan". (Gak V. G. 1988, 289 b.)

Tadqiqotimizning maqsadi o'zbek tilidagi tibbiy metaforalarning madaniy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bu metaforalar qanday madaniy merosni o'z ichiga oladi, qaysi sohalar ko'proq metaforizatsiya manbalariga aylanadi va nima uchun, shuningdek, metaforik birliklarning madaniy komponentini o'rganishning yo'llari va vositalari nima degan savollarga javob topishdan iborat.

Lingvokulturologiyaning asosiy vazifalaridan biri madaniyatni tilda qanday mujassamlanishi, o'zlashtirilishi va aks etishi haqidagi savolga javob topishdir. V. N. Teliyaning fikricha "Agar til birliklari madaniy va milliy o'ziga xoslikka ega bo'lsa, ikkinchisida ko'rsatish uchun o'z yo'llari va vositalari bo'lishi kerak, ya'ni bir tomondan – "belgining tanasi" yagona zanjirga bog'lovchi o'ziga hos "linki" ifodalaydi, ikkinchi tomondan – tushunchalar, stereotiplar, standartlar, ramzlar, mifologemalar va shu kabi xalq, til egalari tomonidan o'zlashtirilgan milliy va keng umuminsoniy madaniyat belgilari bo'lib xizmat qiladi." (Teliya, 1996)

Metaforizatsiya maxsus meta-jarayon sifatida yangi ilmiy fikrlarni madaniy qayd etishda muhim rol o'ynaydi (Serebrennikov Ye.S. 164-165 bb.). Tibbiy leksikada metaforizatsiya jarayoni eng ko'p kasallikning tashxisida, tashxisni aniqlashda, bemorga ijobiy hissiy ta'sir ko'rsatishda, tibbiy jamoada ko'plab nuqtayi nazarlar mavjudligi sharoitida tanlangan davolash usulini qabul qilish va asoslashda qo'llaniladi. Ilmiy tibbiy diskurs bo'yicha kuzatishlar barcha zamonaviy terminologiya metaforalardan iborat ekanligini ko'rsatadi. A. Kyostlarning so'zlariga ko'ra, ilmiy kashfiyot shundaki, o'xshashlikni (analogiyan) hech kim oldin ko'rmagan joyda qo'rishdadir. (Kyostler, 2006, 115)

Ilgari butunlay qarama-qarshi bo'lgan tushunchalar (konseptlar) o'rtasidagi umumiy asosni topish va bog'lash bizning fikrlash, tasavvur qilish va tilimizdagi konseptual tizimni tubdan o'zgartiradi. Masalan: jigar darvozasi, buyrak kosasi, limf oqimlari basseyni kabi. Tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko'ra (Kyostler, 2006, 115), bu hodisa barcha tillar uchun xos bo'lib, milliy-tarixiy bo'yoqqa ega.

Lingvomadaniy metaforalarning hosil bo'lishi va metaforaning kognitiv tafakkur natijasi va lingvomadaniy tushuncha ekanligi yuqorida ta'kidlanib o'tildi. Har bir lingvomadaniy konsept (tushuncha) shaxsda yoki jamoatchilikda, hatto milliy ongda ham mavjud. Shaxs ongida paydo bo'lgan konsept jamoatchilikka beriladi. Bu yerda u "sayqalanadi", ya'ni jamoatchilik ongining hammasi yoki hech bo'lmaganda ko'proq qismi bilan aloqa nuqtalari bo'lgan g'oyalar qoladi, qolganlari esa tashlab yuboriladi. So'ng ular milliy yoki umuminsoniy darajaga o'tadi. Aytish mumkinki, metaforalar dastlab muallif tomonidan kiritilganda kengroq va boyroq ma'noga ega bo'ladi, keyinchalik xalq tomonidan muayyan bir shaklga keltiriladi. Yoki, aksincha, metafora hosil qilishda muallif elementning faqat bir qismini hisobga oladi, qolganlari esa shunchaki e'tiborsiz yoxud aniqlashtirilmasdan qoldiriladi.

Tibbiy metaforalarda lingvomadaniy xususiyatlarni aniqlash uchun 3000ta tibbiy metaforalar tahlil qilindi. Natijada quyidagi xulosalarga keldik.

16ta sohaviy manbalar topildi. Bu metaforalarni lingvomadaniy tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, ular u yoki bu darajada til egalarining madaniy darajasi bilan bog'liq. Bevosita bog'liqlikni antropomorfik va zoomorfik metaforalarda, konseptual va ekspressiv metaforalarda va, albatta, mifologizmlarda kuzatish mumkin.

Tilshunoslar milliy-madaniy konnotatsiyaning metaforaning assotsiativ-obrazli asosini talqin qilish natijasi ekanligini, ularni lisoniy-madaniy jamoaga xos standartlar, stereotiplar, mifologemalar bilan bog'lash orqali hosil bo'lishini ishonarli tarzda ko'rsatib berganlar. Misol uchun ayrim hayvonlar turli xalqlarning go'zallik, donolik va jasorat namunalari sanaladi. Masalan, bo'ri – turkiy xalqlarda totem darajasida qadrlangan, it – vafodorlik, tulki – ayyorlik timsoli. O'zbek xalqi chorvachilik, parrandachilik bilan azaldan shug'ullanib kelgan. Shunga mos ravishda buqa yuragi, qo'y burun, tovuq ko'krak, tulki yurish kabi tibbiy metaforalar yaratilgan. Ruslarda ayiq, cho'chqa, inglizlarda ot shunday ahamiyatga ega. Bu esa mazkur tillarda medvejya lapa, svinka, horse fever (loshadinaya lixoradka) metaforalarining paydo bo'lishiga olib kelgan.

Tibbiyotda kasallikning umumiy qabul qilingan me'yori – urush konsepti (kasallikka qarshi kurash, yurak blokadasi, jang maydoni) bo'lib, fiziologiyadagi og'ishlar ko'pincha hayvon tanasining ayrim qismlariga (baliq yuz, bo'ri og'iz, quyon lab, o'rdak yurish) o'xshashlik bilan ifoda etiladi. "Bahs bu urush" metaforasini ta'riflash va metaforalarning madaniy holatini o'rganish jarayonida J. Lakoff va M. Djonson "bahsni jang emas, balki, masalan, raqsga o'xshatuvchi

jamiyatni tasavvur qilish mumkin. Shunga ko'ra, bunday madaniyat vakillari bahsni butunlay boshqacha tarzda qabul qilar, boshqacha yo'l bilan o'tkazar va bu haqda boshqacha yo'l bilan gapirar edilar". (Lakoff, Djonson, 1990, 387-416 bb.).

Ma'lumki, tibbiy atamalarning asosi lotin va yunon tillari bo'lib, aynan ular rasmiy-semantik geterogenlikni shakllantirgan. Binobarin, ular bu xalqlarning milliy-madaniy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Balki shuning uchun ham uzoq vaqt o'lik hisoblangan lotin tili hamon tibbiyot tili sifatida o'z mavqeini saqlab kelmoqda, chunki til o'zida unda so'zlagan xalqning tarixi va madaniyatini ifoda etadi. Yangi hodisalar, kasalliklar va davolash usullarining nomlari ko'pincha lotin yoki yunon asoslaridan olingan bo'lib, faqat so'z hosil qilish qoidalariga muvofiq o'zgarib turadi. Yangi til birligi tibbiy atama va xalq tilidan olingan so'zdan iborat metafora bo'lsa, bu boshqa masala. Lingvomadaniy tasvir global tarzda o'zgarib bormoqda. Metafora avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ayni shu xalqning milliy-madaniy me'yor, stereotiplar, tasavvurlarini yaratib, shu til egalarining til tizimiga milliy kolorit olib kirmoqda.

Bu yerda savol va, bizning fikrimizcha, hal qilish uchun muhim vazifa tug'iladi. O'zbek tilining tibbiy metaforalarida turli tillardan, ayniqsa, rus tilidan ko'chirish (kalkirovaniye) hollari juda ko'p uchraydi. Bunda eng achinarlisi shundaki, o'zbek tilida ekvivalentlariga ega bo'lgan terminlar ham bevosita ko'chiriladi. Biz xalq tabobatidan olingan o'zbekcha so'zlar yoki sinonimlari bor tibbiy atama-metaforalar ro'yxatini tuzib, ularni ko'rib chiqish uchun shifokorlarga taqdim etdik. 80% shifokorlar ularning mazmunini aniqlay olmadilar. Ulardan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz: shaqiqa (xalq tabobatida), shilpiq, shirincha, yuza xasmol, yalquv va h.k. Hatto yurakburuq (ich ketish) atamasini noto'g'ri tushunish oqibatida yosh shifokorning bemor hayotiga zomin bo'lishiga bir lahza qolganligi haqida hayotiy misol bor.

Shifokor huzuriga keksa onaxon kelib, yurakburuq bo'lib qolganligini aytadi. Turgan gap, yosh mutaxassis xalq tilidagi atamadan bexabar bo'ladi va unga yurak og'riyotganda qabul qilinadigan dorilarni yozib beradi. Onaxonning ahvoli og'irlashib qolgach, farzandlari qayta vrachlik punktiga olib borishadi. Bu gal atama ma'nosini biladigan shifokor bemor holatini ko'rib, tashxisni o'zgartiradi va yosh mutaxassisga dakki beradi. Doktor tomonidan milliy-madaniy holatni bilmaslik nimaga olib kelishiga bu yorqin misol.

Bu tilimizga qanday ta'sir qiladi, unga nafaqat ma'nosi ko'chirilgan so'zlar, balki boshqa madaniyatning "parchalari" o'tkazilsa nima bo'ladi? Teliya ta'kidlaganidek: "Madaniyat xalqning tarixiy xotirasi, til esa "o'zining kumulyativ

funksiyasi tufayli uni saqlaydi, avlodlar muloqotini ta'minlaydi, nafaqat o'tmishdan to hozirgi kungacha, balki hozirgi kundan kelajakgacha ham". (25. Telia 1996: 228). Xo'sh, kelajak avlodlarimizga kimning milliy merosini topshiramiz? Zero, bugungi kunda ilmiy jamoatchilik tilni millatning madaniy kodi, milliy madaniyat va madaniy qadriyatlar posboni sifatida qabul qilmoqda. Ayniqsa, tilshunoslar oldida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini ko'tarish va o'zbek tilidagi so'z va terminlardan foydalanishni yo'lga qo'yish dolzarb masalasi turgan paytda, tibbiyot sohasida metafora terminlarini tarjima qilish usul va uslublarini ishlab chiqish va amalga oshirish nihoyatda zarur.

Albatta, ayrim tibbiy metaforalar tilga shu qadar chuqur singib ketganki, ular baynalmilal madaniy konnotatsiyalar turkumiga o'tgan. Bular to'la ma'noda ilmiy xarakterdagi metaforalar, ya'ni metafora xususiyatlarini, hissiy baholash qobiliyatni yo'qotgan. So'z, avvalo, tilda terminologiya darajasida faoliyat ko'rsatuvchi metaforalar haqida bormoqda. Masalan: o't pufagi, qalqonsimon bez, yurak klapani, ko'krak qafasi va h.k. Odatda, bular semantik jihatdan butunlay mustaqil so'z va iboralar bo'lib, leksika jarayonining termin bosqichiga yetib kelgan va leksikografik manbalarda mustaqil leksik birlik sifatida qayd etiladi.

Tadqiqotlarimizdan shuni ham aniqladikki, metaforizatsiya, avvalo, atrofmuhitdagi yaqqol ko'zga tashlanadigan predmetlar va tushunchani ularning o'xshashligi asosida ifodalovchi so'zlarga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni metafora paydo bo'lishining asosini kundalik va amaliy tajriba yoki uning madaniy-tarixiy mazmunidagi obyektlarning konnotativ xususiyatlari tashkil etadi. Tibbiy metaforalarning lingvomadaniy aspektini bir xil metaforalarni turli tillardagi semantik ma'nolarini taqqoslash orqali kuzatish mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bu metaforalar o'rtasida o'xshashlik bor, lekin mutloq emas. Har bir tilda ijtimoiy, diniy, tarixiy va milliy xususiyatlar ta'sirida bir xil kasallik yoki alomatlar o'z "madaniy" ma'nosi bilan ifodalanganligini ta'kidlash mumkin. Zero, millat yoki xalqning tili bu tilda so'zlashuvchilarning tasavvuridagi kognitiv va madaniy jihatlar va nozikliklarini aks ettiradi va bu xalqning hayoti natijalarini o'z ichiga oladi. Binobarin, dunyoning lisoniy manzarasi bir xalq uchun xilma-xil bo'lib, u atrofdagi olamni o'z predmetlari va obyektlari bilan o'ziga xos tarzda ko'radi va mujassamlashtiradi. Masalan, turli madaniy etnik guruhlarda lotin tilidan kirib kelgan Varicella kasalligi nomini ko'rib chiqamiz: o'zbek tilida "suvchechak", rus tilida "vetryanka ili vetryanaya ospa", ingliz tilida yesa "chickenpox, chickpeas". Bir xil kasallik turli xalqlar va jamiyatlar tomonidan butunlay boshqacha qabul qilinadi va talqin qilinadi. Ko'rinadiki, o'zbek tilida qizil gul (chechak)dek tanani egallab olishi va pufakchalarning yorilib suv oqishi

semasi e'tiborga olingan bo'lsa, ruslarda shamolga urg'u berilgan, tez yuqishi asos qilib olingan, inglizlarda esa toshmalar shaklining qizil no'xotga o'xshashi yoki tovuq cho'qiganda qoladigan iz kabi tasavvur qoldirishiga asoslanilgan.

Metafora qo'llashning yana bir yaqqol afzalligi shundaki, ko'rinmas dunyo ongning majoziy-assotsiativ sohasi ishtirokida real, moddiy tasavvurlar kasb etib, tilshunoslarga abstrakt tushunchalarni kundalik ong bilan "moddiylashtirish" imkonini beradi. Bu psixiatriya va psixologiyada yorqin namoyon bo'ladi, chunki bu sohalarda mavhum atamalar ko'p. Masalan: Alisa mo'jizalar mamlakatida sindromi – insonning o'z tanasini yoki uning alohida qismlarini ko'rish qobiliyatining buzilishida namoyon bo'ladigan noqulay nevrologik holat, "tana sxemasi"ning buzilishi: makrosomatognoziya (tanani katta his qilish) va mikrosomatognoziya (kichikroq his qilmoq). Konsentratsion lagerlar sindromi – uzoq muddatli ruhiy travma, doimiy to'yib ovqatlanmaslik va boshqa qiyinchiliklar tufayli konslagerlarda mahbuslarda yuzaga keladigan ruhiy buzilishlar. Depressiya, ipoxondrik ko'rinishlar, qo'zg'aluvchanlik, holsizlik, charchash, bosh og'rig'i va boshqalar bilan xarakterlanadi. Kvazimodo sindromi – ruhiy buzilishi bo'lib, unda bir kishi haddan tashqari xavotirda va tanasining bir kichik nuqson yoki xususiyati bilan mashg'ul. Odatda, bu kasallik yosh yoki o'smirlik yillarida boshlanadi. Erkaklar va ayollar o'rtasida yuzaga kelish chastotasi taxminan bir xil, boshqa ruhiy kasalliklarga nisbatan o'z joniga qasd qilishning juda katta xavfi bor.

"Transformatsiya" paytida metafora muallifining nazariga tushgan va real dunyoning obyektlari, hodisalari va vaziyatlarini aniqlashda ishtirok etuvchi, ular nimaga oldiga chiqqanligi sabablarini aniqlash bizga kognitiv jarayonlarning madaniy komponentini obyektlashtirish imkonini beradi. Tibbiy metaforalar (masalan, his-tuyg'ular, aql-idrok, xarakter) orqali dunyoni obyektivlashtirish yo'llarini o'rganish mentalitetga, tarixiy, estetik va madaniy tafakkurga borib taqaluvchi madaniy ahamiyatga molik ma'lumotlarning yashirin, chuqur qatlamlarini ochib berishga imkon yaratadi. Ta'kidlash lozimki, o'xshashlik tamoyili asosida hosil qilingan metaforalar – artefakt metaforalar, uy-ro'zg'or buyumlari; kiyim-kechak, poyabzal va uning qismlarining va yasali elementlari katta madaniy farqlar bilan belgilangan. Bu turli madaniyatlar va millatlarning atrofdagi moddiy dunyosi turlicha ekanligidan kelib chiqadi, bu esa tashqi shakl va bajaradigan funksiyani taqqoslashdagi farqlarga aniqlanishiga yordam beradi. Masalan, burun dahlizi: o'zbek tilida dahliz xonasining nomi ishlatilsa, rus tilida esa ostonaga yaqin manodadir. O'zbek tilida ko'zning sharsimon tanasi ko'z soqqasi, rus tilida glaznoye yabloko (ko'z olmasi) deyiladi. Bu predmetlarning har ikkalasi ham yaxlit shaklga ega bo'lib, majoziy-assotsiativ o'xshashlikka sabab

bo'lgan. Insonlarning axloqiy, ma'naviy, hissiy qadriyatlar va tajribasi o'xshash platformalarga ega. Bizning tahlilimiz abstrakt tushunchalarni tarkib mantiqiy yoki aqliy bilimlar emas, balki obrazli va sxematik tafakkur asosida amalga oshiriladi degan gipotezani isbotlashimiz mumkin. Obraz ongsiz ravishda til egasini atrof-muhit bilan o'zaro munosabati asosida shakllanadi.

V. A. Lukinning adolatli fikriga ko'ra, bunday matnlar ma'lum bir til va madaniyatning barcha til egalari tomonidan faol qo'llanilishiga qaramasdan, ularning barchasi manba matnida keltirilgan parchaning o'zni va rolini aniq va yetarlicha ifodalamaydi va bu ma'ruzachining tibbiyot fani haqidagi bilimlarini bildirmaydi. "Majoziy tasavvur" nafaqat asl matn muhiti bilan tanishish, balki o'z kommunikativ amaliyoti natijasida pretsedent matn bilan ishlash bo'yicha tajriba orttirgan lingvistik shaxsning "madaniy tezaurus"dan kelib chiqadi (Lukin, 2005, p.119). Misol uchun, bizning so'rov natijalariga ko'ra, terapevtlar orasida respondentlarning faqat bir foizi tibbiy metafora uchun donor-matn bo'lib xizmat qilgan asarning nomini eslay oldi: Medeya kompleksi – onalarning eridan o'ch olish maqsadida o'z bolalarini o'ldirish istagining patologik intilishi.

Qadimgi yunon mifologiyasiga ko'ra, Medeya, kolxid malikasi, Yasonga argonavtlar bilan oltin junli qo'y terisini qo'lga kiritishga yordam bergan. Otasining g'azabidan qo'rqib, u Yason bilan Yunonistonga qochib ketdi, lekin Yason uni aldab, boshqa xotin oladi. Medeya nafaqat raqibini zaharlaydi, balki Yason bilan birga topgan o'z bolalarini o'ldiradi. Medeya kompleksi atamasi mazkur afsonadagi g'oya asosida yaratilgan.

Meduza kallasi – oldingi qorin devoridagi kengaytirilgan kavsh qaytaruvchi teri osti venalariga berilgan nom bo'lib, portal vena tizimi (venaportae) dan venoz qon chiqishining aylanma yo'li degan ma'noga ega. Bunday nom berilganligining sababi shundaki, bunday hollarda, kindik atrofidagi tomirlar kengayib mifologik Meduzaning boshi tasviriga o'xshab qoladi. U uch opa-singil gorgonlarning eng mashhuri, boshidan soch o'rniga ilon o'suvchi ayol yuzli maxluq.

Tibbiy metafora-terminlar misolida o'zlashtirma matn integratsiyasi tufayli noyoblikka aylanish jarayoni yaqqol ko'zga tashlanadi. Natijada tibbiy metafora tibbiy terminologiyada madaniy fiksatsiya hosilasi sifatida paydo bo'ladi. Bunday metaforalarni deshifrlash nafaqat kasb tilini, balki dunyoni bilishni ham nazarda tutadi.

Yuqoridagilarga asoslanib quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

1. Lingvomadaniy aspekt tibbiy metaforaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u atama semantik ma'nosining asosiy qismini o'z ichiga oladi va kognitiv fikrlash mexanizmi va yangi ma'no paydo bo'lishini belgilaydi.
2. Atama-metaforaning lingvomadaniy tahlili nafaqat madaniyatni tilgagina ta'sirini, balki bu xalq tilining bosib o'tilgan tarixiy-madaniy taraqqiyoti va merosini o'rganishga yordam beradi.
3. Biz aniqlagan 16 metaforik modelning barchasida milliy-madaniy ta'sir ko'rsatilgan. Aynan metafora muallifga obyekt yoki hodisaning nafaqat obyektiv-ilmiy ma'nosini, balki uning hissiy, baholovchi va hatto madaniy pozitsiyasini ifodalashga imkon beradi.
4. Bizningcha, metafora atamasining milliy-madaniy asosi ikkilamchi nominatsiyaga o'tish jarayoni emas, balki termin paydo bo'lishining asosidir. Undan keyin kognitiv fikrlash, assotsiativ-obrazli taqqoslash va yangi konseptni (tushunchani) shakllantirish jarayoni keladi. Har qanday tushuncha ilmiy atama maqomiga o'tishi mumkin, va aksincha, ilmiy atama sodda diskurslardan til birligi kategoriyasiga o'tishi mumkin. Demak, milliy-madaniy meros ham tilshunoslik, ham boshqa sohalarning keyingi shakllanishi va rivojlanishini belgilab beradi.
5. Bitta tadqiqot ishi tibbiy metaforalarning madaniy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini faqat qisman tavsirlab beradi xolos. Metafora-terminlarning aksariyati o'zbek tiliga ko'chirish (kalkalash) va bevosita tarjima usulida o'zlashtirilgan. Metaforalarning madaniyat asosida shakllangan juda oz qismi bizgacha yetib kelgan. Taxminimizcha, xalq tabobati bilan bog'liq behisob termin-metaforalar zamonaviy tibbiyotning shakllanishi va taraqqiyoti tufayli yo'qolib ketgan yoki haligacha jonli xalq tilida "yashayapti". Biz ona tilimiz terminlari orasida ekvivalent va sinonimlarga ega bo'lgan bir qator metaforalarni aniqladik, ammo iste'molchilar o'zlashtirma variantlarini afzal ko'rganlar. Bundan tashqari, xalq tabobati leksik qatlami va tilimizning dialektlari orasida ham o'zlashtirma metaforalarga ekvivalentlar mavjud. Bu masalalar metaforaning tarjima va o'zlashtirish masalalari bo'yicha lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi doirasida yanada alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.
6. Tahlil qilingan materiallardan milliy madaniy konnotatsiya tarixiy va madaniy manbalar, stereotiplar va atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqada metaforaning assotsiativ-tasviriy shaklidagi bazasiga asoslangan degan, xulosaga keldik. Aynan ular turli sohalardagi konseptlarni qayta anglab chiqish trayektoriyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

7. Biz o'rganilayotgan hodisani ifodalashning metaforik usuli, ehtimol, tushunishni osonlashtiradigan, vrachlarni nazarda tutilgan mazmunning batafsil deskriptiv eksplikatsiyalaridan ozod etishda kommunikativ resurslarga bog'liq bo'lishi kerakligiga yana bir bor amin bo'ldik. Bundan tashqari, abstrakt tushunchalarni konkret faktlarga aylantirish, ularning rivojlanishi va idrokini soddalashtirish mumkin.

Demak, aynan ongda til va madaniyatning o'zaro munosabati amalga oshiriladi, shuning uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqot bir vaqtning o'zida ham kognitiv tadqiqotdir. Inson idroki, toifalash, arxivlash va kommunikativ qayta namoyon etish jarayonlari ong sohasi bilan bog'liq. Konsept bu jarayonlarning har birida ishtirok etadi. Bu jarayonning barchasini natijasida millat kodi shakllanadi.

Ikkinchi bob xulosalari

Tibbiy leksikani umumiy foydalanishga metaforizatsiya qilish jarayoni badiiy adabiyot orasida ham, turli xil diskurslarda ham juda ommabop. Olib borilgan tadqiqot bizga bu jarayonning nozikliklarini topish va ayrim xulosalarga kelish imkonini berdi:

- ilmiy kontekstdan tashqarida qo'llaniladigan atama til birligi sifatida semantik mazmunning o'zgarishi tufayli o'zining ilmiy maqomini yo'qotadi. Zero, bizga ma'lumki, metaforizatsiya axborotni obrazli-assotsiativ ko'chirishga asoslangan kognitiv jarayonidir. Shuning uchun o'tkazilgan sohada termin faqat muallif kiritgan mazmunga ega bo'ladi;

- tibbiyot ilmiy fan bo'lib, uning terminologik tizimi bilan ishlash bu sohada chuqur bilimga ega bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun keng tarqalgan, o'rtacha odam uchun oson o'zlashtiriladigan va faol tibbiy atamalar metaforizatsiyaga ko'proq moyil. Bular ko'proq odamning anatomik tuzilishi atamalari yoki keng ommalashgan tushunchalarni ifodalovchi atamalar sanaladi;

- tibbiy leksikaning metaforalaridan foydalanish usuli muallifning kasbiy kompetentligiga, savodxonligiga va ta'limga ishonch uyg'otish, shuningdek, so'zlovchining hissiy fonini va ishotiruvchanligini oshirish uchun ham zarur;

- tibbiy metaforaning turli xil diskurslardagi faoliyatining o'ziga xosligi ostida uning obyektivligida yotadi, chunki shaxs metaforani lingvistik shakli bilan tan

olmaydi, balki uni muayyan ma'noga mos keladigan ma'lumotlar bilan bog'laydi. Shu bilan birga, kasbiy bilimlar vaziyat yoki sharoitlarning muayyan tasvirlarini yaratishga yordam beradi, ammo tibbiy metafora ma'nosini tushunishni kafolatlamaydi;

- tibbiy metaforani o'rganishda kognitiv yondashuv psixolingvistik va ekstralingvistik omillarning hali o'rganilmagan jihatlari va tomonlarini ko'rib chiqish uchun birlashtiradi;

- tibbiy metafora tilning barcha mavzuiy, tarkibiy, nominativ, atash va uslubiy xususiyatlarini obyektivlashtirish uchun o'z ichiga oladi. Shaxs kognitiv faoliyatining aqliy va assotsiativ-obrazli natijasiga yorqin misol bo'la oladi;

- metaforizatsiya jarayonining aynan kognitiv mexanizmi mavjud til birliklarini yangi, hali oshkor etilmagan obrazda ochib berish uchun ikkilamchi nomdan foydalanish imkonini beradi;

- konseptual metaforalarning muhim xususiyati mavhum tushunchalarni aniq konseptlarga aylantira olishda ko'rinadi, bu esa mutaxassis – nomutaxassis muloqotida katta yordam beradi;

- ilmiy metaforalarni turli xil vazifalarda, mavzularda va mexanizmlarda tahlil qilish uchun model yaratish kerak. Bu turli sohalarda ilmiy metaforalar hosil bo'lishidan oldin axborotni o'rganish bosqichlarini aniqlashga yordam beradi. 1) funksiya – inson idroki tabiatini aks ettirish 2) mavzu – dunyoni tushunish 3) mexanizmlar – fikrlash va tilning aloqasi. Kognitiv metaforalarning paydo bo'lish mexanizmlarini o'rganish ham konseptual vaziyatlarni va uning shakllanishi uchun aqliy tasvirlarni aniqlashga yordam beradi. Shunga asoslanib ilmiy metaforalarni kognitiv idrok etish qoidalarini ishlab chiqish mumkin;

- tadqiqotda, tibbiy metaforaning 8 ta asosiy funksiyalarini belgiladik: baholash; dekorativ; his-xayajon; sabab va natija; qardoshlik; toponimik; eponimik; shakl. Bu tasnif faqat metaforalarning ko'proq ishlatiladigan funksiyalari uchun bo'lib, ulardan tashqari, kasbiy o'ziga xoslik, yosh xususiyatlari, rangi, tarkibi va boshqalarni aks ettiruvchi metaforalarni tasniflashimiz mumkin;

- biz kognitiv mexanizmlarning quyidagi turlarini aniqladik:

- a) taniqli obrazlarni ko'chirish;

- b) izohlash;

v) qiyoslash;

g) urg'u berish;

d) umumlashtirish.

Aniqlangan mexanizmlardan eng ko'p tarqalgani qiyoslash va taniqli obrazlarni ko'chirish;

– tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'zbek jamiyati ongida tibbiyot sohasi asosan salbiy tasavvurlar bo'yicha qabul qilinadi. Tilda ijobiy baholash metaforalari yoki sog'ayish metaforalari deyarli yo'q. Profilaktik tibbiyotida ham juda kam metafora mavjud bo'lib, bu, umuman, jamiyatda kasallikning oldini olish amaliyoti shakllanmaganligini ko'rsatadi;

– metafora hosil bo'lish jarayonida asosiy va belgilovchi mexanizm aynan lingvomadaniy jihatdir. Agar kognitiv tafakkur yakuniy natijani tashkil etib, metafora hosil qilinsa, lingvomadaniy tamoyil bu tafakkur jarayoni borishi va sxemasini taqozo etadi. Bizningcha, metafora atamaning milliy-madaniy asosi ikkilamchi nominatsiyaga o'tish jarayoni emas, balki termin paydo bo'lishining aynan asosi bo'lib, undan keyin kognitiv fikrlash, assotsiativ-obrazli taqqoslash va yangi tushunchani shakllantirish jarayoni kechadi;

– aniqlagan barcha metaforik modellar va sohaviy manbalarda tildagi milliy-madaniy ta'sirni kuzatish mumkin. Bu til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir etuvchi jarayondir. Metaforaning lingvomadaniy tahlili bizga tilda ask etilgan millatning tiliga madaniyat ta'sirini va bu millatning tarixiy-madaniy rivojlanishini va merosini o'rganish imkonini beradi;

– til leksik qatlamining tahlili asosida til egasi bo'lgan xalqning madaniy va milliy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Qadimgi tarixi tufayli tibbiyot o'zining shakllanishi davrida ko'plab tillarga ta'sirini ko'rsatgan. Bugungi kunda klassik tillar qadimgi yunon va lotin tillari hisoblanadi. O'zbek tilining tibbiy metaforalarini o'rganish rus va ingliz tillarining ham kuchli ta'sirini ko'rsatdi. Natijada tilning lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash bir qator qiyinchiliklarga olib keldi. Buning sababini quyidagi yechilmagan muammolarda ko'rishimiz mumkin.

1. Metafora-atamalarning aksariyati o'zbek tili tomonidan ko'chirish va bevosita tarjima usulida o'zlashtirilgan. Metaforalarning faqat kichik bir qismi milliy til, ya'ni madaniyat asosida shakllangan.

2. Biz ona tilimiz terminlari orasida ekvivalent va sinonimlarga ega bo'lgan bir qator metaforalarni aniqladik, lekin iste'molchilar o'zlashtirma variantlarini afzal ko'radi.

3. Bundan tashqari, xalq tabobati leksik qatlami va tilimizning dialektlari orasida ham o'zlashtirma metaforalarga ekvivalentlar mavjud, ammo ular aniqlanib lug'atlarga kiritilmagan. Bu masalalar metaforaning tarjima va o'zlashtirish masalalari bo'yicha lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi doirasida yanada alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Tahlil qilingan material shuni ko'rsatdiki, milliy-madaniy konnotatsiya tarixiy va madaniy manbalar, stereotiplar va atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqada metaforaning assotsiativ-tasviriy shaklidagi bazasiga asoslangan xolda shakllanadi. Aynan ular turli sohalardagi konseptlarni qayta anglab chiqish trayektoriyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan ongda til va madaniyatning o'zaro munosabati amalga oshiriladi, shuning uchun har qanday lingvomadaniy tadqiqot bir vaqtning o'zida ham kognitiv tadqiqotdir. Bu jarayonning natijasida millat kodi shakllanadi.

Xulosa

Dunyoda tilshunoslikning jadal rivojlanishi, tilshunoslikda eskirib qolgan an'anaviy qarashlarni yangilanishiga undagan yangi yo'nalish va ta'limlarning paydo bo'lishi va o'zimizning davlatimizda milliy tilimizning har tomonlama o'rganish, rivojlantirish va mukammallashtirishga qaratilgan e'tiborning oshishi ushbu tadqiqotni amalga oshirishga turtki va asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbek tili o'zining ko'p asrlik tarixi va shakllangan lingvistik maktablari, ta'limi va qarashlariga ega. Bugungi kunda lingvistlarning asosiy vazifasi – ona tilimizning, dunyo talablaridan orqada qolayotgan, dinamik rivojlanishini ta'minlashdir. Bizning fikrimizcha, tibbiyot tilining metaforik manzarasini har tomonlama obdon o'rganilishi ushbu vazifani amalga oshirishda munosib hissa bo'ladi, chunki ushbu tadqiqot, ilmiy diskursda metaforani gnoseologik va evristik fenomen sifatida o'rganilishining ilk tajribasi bo'ladi.

Ko'p asrlik tibbiyot ilmi o'z terminologik tizimini asrlar davomida shakllantirgan. Tibbiyot tilining tarixi tabiblar – xalq tabobatidan boshlanadi, so'ng yunon tilining hukmronligi, keyinchalik lotin tili bilan almashgani, arablarning dunyo ilmiga kiritgan yangiliklari va nihoyat yangi tarixda milliy tillarda terminologik tizimlarni rivojlantirishga qaratgan e'tibori bilan xarakterlanadi. Yevropa va Osiyoda tibbiyot ilmining rivojlanishi har xil davrlarga to'g'ri keladi va buning natijasida tillarning o'z davrida ta'siri kuzatiladi.

Tibbiyotda qachondir yozilgan kitoblar orasida eng ahamiyatlisi sifatida "Tib qonunlari" tan olingan. Kitobning o'rganilgan kardiologiya terminlari tarkibi ko'proq lotin va yunon terminlardan tashkil topgan. Ta'kidlash joiz, kitob muallifi Abu Ali ibn Sino ba'zilariga o'zining ta'riflari va o'zgartirishlarini keltirgan. Shuningdek, arab tilidan olingan terminlar ham mavjud, ularning aksariyatini ibn Sino o'zi kiritgan. Ushbu kitobning eng katta ilmiy hissasi ko'plab xalqaro terminlarning saqlab qolingani, tartibga keltiringani va to'liq izohlarining berilganidadir.

Tilni tadqiq qilishdagi antropotsentrik yondashuv ilmni yangi pog'onaga olib chiqdi. Endi tilni o'rganish bevosita odam, uning tarixi va atrof-muhiti bilan bog'liq holda olib borilmoqda. Bu va kognitiv tilshunoslikning rivojlanishini olim-lingvistlar tomonidan metaforani ilmiy diskursda ommaviy qabul qilishlarining boshlang'ich nuqtasi deb hisoblasa bo'ladi. Bizning tadqiqotimiz natijalari yana bir bor metafora-termin haqidagi nazariyaning asosliligini isbotladi, ya'ni ilmiy

diskursdagi metafora ilmiy terminga qo'yiladigan barcha talablarga: qisqalik, asoslilik, ta'rifga egalik, obyektivlik va boshqalarga javob bera oladi.

Tibbiy diskursda metaforaning qo'llanilishi nomutaxassislar uchun oson anglash va o'zlashtirish, o'rganuvchilarga oson eslab qolish va topish uchun, bemor va yaqinlarining psixologik xotirjamligini ta'minlash uchun zarurdir.

Bizning tadqiqotimiz o'rganilayotgan yo'nalish leksikonida juda ko'p tibbiy metaforalar borligini ko'rsatib berdi. Ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 200 mingdan ortiq. Tibbiy metaforalarni xosil qilishda asosan so'z birikmalaridan foydalaniladi. Biroq, bir komponentli metaforalar bundan istisno emas. Ular jami tadqiq qilingan terminlarning 20%ni tashkil qildi. Bir komponentli metaforalar asosan ko'pkomponentli metaforalar asosini tashkil qiladi.

Tarkibiy tahlil natijalariga ko'ra terminlarni hosil qilishda o'zbek tili grammatikasidagi deyarli barcha so'z turkumlari qo'llanilganini ko'rish mumkin. Eng ko'p ot, sifat va harakat nomi ishlatilgan. Bu o'z navbatida, keng ko'lamda berilgan tibbiy metaforalarning boy grammatik tarkibi haqida ma'lumot beradi.

Tadqiqotning yana bir ahamiyatli xulosalaridan biri bu metaforalarning tematik klassifikatsiyasida metaforizatsiyaning 3 asosiy sohasiga tegishli 16 manbadir. Bular predmet, biomorf va ijtimoiy sohalardir. Tematik tahlilning natijasi bo'lib metaforalarning manbalariga ko'ra ishlatilish darajasi kategoriyalashtirildi. Predmet sohasi odamning har kunlik narsalar, uy-ro'zg'or buyumlarini aks etadi; biomorf sohasi odamni tirik va jonsiz tabiat bilan qiyoslash va gavdalandirishda namoyon bo'ladi; ijtimoiy soha ijtimoiy aloqalar, kasb-hunar va turli davrlarning umumiy realiyalari, mifologizmlar bilan bog'liq.

Termin-metaforaning vazifasi har xil sohalar prizmasi orqali yangi tushuncha semantikasini oson va "jonli" shaklda yetkazib berishdan iborat. Termin ma'nosini emotsional qabul qilish darajasi, agar u tanish sohadan olingan metafora orqali ifodalangan bo'lsa bir necha barobar oshadi. Termin semantikasini ko'chirishda asosiy manba sifatida tilning eng boy resursi hisoblangan, keng iste'mol qilinadigan leksika olingan. Semantik tahlil shuni ko'rsatdiki, tibbiy metaforalar manba-soha va tibbiyot o'rtasida terminlarning yangi tushunchasini ifodalash tashqi, funksional yoki assotsiativ o'xshatishlarga asoslanadi.

Tadqiqot davomida ilmiy, ommabop va adabiy diskurslarda tibbiy leksikaning metaforizatsiyasi ancha faol va hammaga tushunarli ekanligini aniqladik. Faqat e'tibor berish kerak bo'lgan jihat shuki, tibbiy terminlar bunday matnlarda o'zlarining ilmiy termin sifatidagi mavqeini va qisman semantik

ma'nosini yo'qotadi va qo'llangan sohaning til birligiga aylanadi. Tibbiy metaforaning har xil turdagi diskurslarda qo'llanilishining o'ziga xos jihati uning predmetlilikiga borib taqaladi, chunki inson metaforani lisoniy shakliga ko'ra anglamaydi, balki uni ma'lum bir ma'noga ega ma'lumot bilan bog'laydi.

Tibbiy metaforalarni har tomonlama o'rganish nafaqat tor lingvistik xususiyatlarni, balki ularni kognitiv va lingvomadaniy aspektlarda ham ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Aynan metaforizatsiya jarayonining kognitiv mexanizmi mavjud til birliklarini yangi, hali ochilmagan obrazda ikkilamchi nominatsiyaga va abstrakt tushunchalarni aniq obyekt konseptlarga o'tkazishga imkon beradi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbeklar jamiyati ongida tibbiyot sohasi asosan salbiy assotsiatsiyalar orqali qabul qilinadi. Tilda ijobiy bahoga ega yoki sog'ayish to'g'risidagi metaforalar deyarli yo'q. Shuningdek, profilaktik tibbiyotda ham metaforalar soni juda kam. Aksariyat tibbiy metaforalar rus tilidan kalka qilingan. Masalan: issiqlik urishi, zond, Lyushko vilkasi, zang balg'am, limfatik o'zan va h.k. Bu, umuman olganda, jamiyat ongida chora-tadbirlar tibbiyotining amaliyoti shakllanmagani haqida ma'lumot beradi. Ikkinchi bir tomondan tibbiy metaforalarni tushunish va amalda qo'llash jamiyatda shakllangan tibbiy ong, tibbiy ma'lumot, tibbiy ko'nikma va shu kabilarga borib taqaladi.

Lingvokulturologik aspekt metafora xosil bo'lish jarayonining asosiy va aniqlovchi mexanizmi hisoblanadi. U mental oqim uchun manba va yo'nalishni aniqlab, kognitiv fikrlashning boshida turadi. Tilning milliy-madaniy ta'siri barcha manbalarda kuzatiladi va ushbu tilning paydo bo'lishi va rivojlanishining izi hisoblanadi.

O'zbek tilining o'ziga xos lingvokognitiv xususiyatlarini aniqlash bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. O'zbek tibbiy terminologiyasida sinonimiyaning haddan tashqari asossiz ko'payib ketishi ushbu tizimda o'zbek tilida muqobili bo'lishiga qaramasdan juda ko'p xorijiy so'zlarning o'zlashtirilishi milliy terminologik tizim asosida lingvomadaniy manzarani yaratishga to'sqinlik qilmoqda. Buning sababi kalka yo'li bilan betartib tarjima qilish va tub o'zbek nomlarini bilmaslik yoki pisand qilmaslikdadir. Ushbu masalalar, albatta, lingvokulturologiya va tarjima nazariyasi yo'nalishlarida alohida tadqiqotni va chuqur o'rganishni talab qiladi.

O'rganilgan materiallar, milliy-madaniy konnotatsiya tarixiy-madaniy etalonlar, stereotiplar va atrof-muhit bilan birgalikda metaforaning assotsiativ-obrazi asosida shakllanishini ko'rsatib berdi. Aynan ular bevosita har xil sohalardagi konseptlar ma'nosining qayta ko'rib chiqilishi va o'zgarishi

trayektoriyasiga ta'sir ko'rsatadi. Metaforalar har bir xalqning o'zini o'zidir, shuning uchun ham ularda o'ziga xoslik mavjud bo'ladi. Ba'zi bir tibbiy metaforalar tilga shu qadar chuqur kirib bo'lganki, ular xalqaro madaniy konnotatsiya kategoriyasiga o'tib bo'lgan va tilda xuddi "tub" termin sifatida foydalaniladi.

Demak, metaforaning paydo bo'lish asosi bu har kunlik amaliy tajribadan yoki uning madaniy-tarixiy ahamiyatidan kelib chiqadigan obyektlarning konnotativ belgilaridir. Dunyoning lisoniy manzarasida obyekt va subyektlar bilan birga o'zicha ko'radigan va gavdalanitiradigan har bir xalqda turlichadir. Metaforaning "dunyoga kelishida" muallifning ko'ziga tushadigan va xayoliga keladigan hayotdagi obyektlar, hodisalar va holatlarni aniqlash, aynan ularni tanlashining sabablarini aniqlash kognitiv jarayonlarning madaniy aniq haritasini tuzishga imkon beradi. Dunyoning lisoniy xaritasini tuzish metodlarini tibbiy metaforalar orqali o'rganish tibbiyot bilan tilshunoslikning uyg'unlashuvini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida tibbiyot va tilshunoslik oralig'ida uchinchi fanning – tibbiy lingvistikaning shakllanishi va rivojlanishiga olib keladi. Tibbiy lingvistika esa inson organizmi, uning sog'lom va kasal holatidagi ruhiy kechinmalari, bemor shaxsning jamiyatga, davolovchi vrachlarga, o'z navbatida jamiyatning bemorga bo'lgan munosabatlarini oydinlashtirishga yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016 yil 14 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – 2016. – 14 dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.

II. Ilmiy adabiyotlar

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan, 1883. – B. 88.
2. Абрамова Г.А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития. – М., 2003. – 220 с.

3. Абу Али ибн Сино «Канон врачебной науки». 4 тома. – Т.: Издательство медицинской литературы им. Абу Али ибн Сино, 1996.
4. Алексеева Л.М. Метафора в научном общении // Человек Коммуникация - Матн. – Барнаул, 1998. 2. Ч. 1. – 179 с.
5. Алефиренко Н. Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2010. – 243 с.
6. Aliqulov T. Ma'nolarning sinekdoxa yo'li bilan farqlanishi. // O'zbek tili va adabiyoti. – Т., 1993. - № 2 –162 б.Апресян Ю. Д. Лексическая семантика (синонимические средства языка). – М., 1974. – 205 с.
7. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ языка. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993. – 66 с.
8. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – 153 с.
9. Axmedov O. Inglizcha solik-bojxona terminlarini o'zbek tiliga tarjima kilishda funksional-semantik xususiyatlarning aks etishi // Filologiya masalalari. – Т., 2018. – № 3.
10. Ashurova D. U. Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. – Т., 2011. №3.Баранов А.Н. О типах совместимости метафорических моделей / А. Баранов // Вопросы языкознания. – М., 2003, – № 2, – 348 с.
11. Баранов А.Н. Очерк когнитивной теории метафоры // Русская политическая метафора (материалы к словарю). – М., 1991. – 284 с.
12. Битокова С.Х. Метафора в контексте когнитивной лингвистики // Вестник КБИГИ и КБНЦ РАН. – Нальчик, 2006. – 354 с.
13. Болдырев Н.Н. Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Тамбов, 2001. –180 с.
14. Вежбицкая А. Сравнение градация - метафора // Теория метафоры: сб. / Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. под ред. Н. Д. Арутюновой, М. А. Журинской; Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой. - М.:Пргресс, 1990.–352с.
15. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. – М.: Наука, 1977. – 312 с.
16. Виноградов В.В. Проблемы литературных языков и закономерностей их образования и развития. – М.: Наука, 1967. – 245 с.
17. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Татаринцов В.А. История отечественного терминоведения. Классики терминоведения. – М.: Очерк и хрестоматия, 1994. – 144 с.

18. Володина М. Н. Информационная природа термина. // Филологические науки. Научные доклады высшей школы. – М.: издательство АЛМАВЕСТ, 1996. – № 1 – 290 с.
19. Гадамер Г. Актуальность прекрасного. – М.: Искусство, 1991. – 367 с.
20. Гак В. Г. К проблеме общих семантических законов // Общее и романское языкознание: Сб. ст. / Моск. гос. ун-т. – М.: Изд-во МГУ, 1972. – 357 с.
21. Гак В.Г. Языковые преобразования: Некоторые аспекты лингвистической науки в конце XX века: От ситуации к высказыванию / В.Г. Гак. – М.: Едиториал УРСС, 2009. – 474 с.
22. Гак В. Г. Метафора: универсальное и специфическое // Метафора в языке и тексте / В. Г. Гак, В. Н. Телия, Е. М. Вольф и др.; АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1988. – 289 с.
23. Герд А.С. Основы научно-технической лексикографии. – Л.: Наука, Ленинградское отделение, 1986. – 185 с.
24. Гогоненкова Е. Еще раз о месте метафоры в научном дискурсе: постнеклассический подход // Высшее образование в России. – М., 2005. - №1. – 247 с.
25. Гогоненкова Е.А. Метафора в научном дискурсе - предмет эпистемологической рефлексии // Философия и будущее цивилизации. Тезисы докладов и выступлений IV Российского конгресса (Москва, 2428 мая 2005 г.). - Т. 1. – М., 2005. – 167 с.
26. Гогоненкова Е.А. Эпистемологический статус метафоры: экспозиция проблемы // Credo. - М., 2004. - № 3 (39). – 159 с.
27. Граудина Л.К., Ширяев Е.Н. Культура русской речи. Учебник для вузов//URL www.gumer.info
28. Гумбольдт В. фон Язык и философия культуры: Пер. с нем. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. А. В. Гулыш, Г. В. Рамишвили. – М.: Прогресс, 1985. - 451 с. (Языковеды мира).
29. Гумбольдт Вильгельм фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 400 с.
30. Гусев С.С. Взаимодействие познавательных процессов в научном и техническом творчестве / под ред. В.Т. Мещерякова. – Л.: Наука, 1989. – 127с.
31. Dadaboyev H. Tyurkskaya pismennost, 11-14 vv. - Pamyatniki – Yazik. In-t rukopisey im. X. Suleymana AN Resp. Uzbekistan. – Tashkent: Yezuvchi, 1991.

32. Dadaboyev H. Hozirgi o'zbek tili qurilishida terminologiyaning o'rni \ Tilshunoslikning dolzarb masalalari – Toshkent, 2015. – B. 224.
33. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi / O'quv qo'llanma. "Nodirabegim". – T. 2020. Даниленко В.П., Скворцов Л.И. Лингвистические проблемы упорядочения научно-технической терминологии // Вопросы языкознания. – М., 1981. – № 1. – 216 с.
34. Десницкая А.В. О лингвистической теории Августа Шлейхера // Вопросы языкознания. – М. 1971, №6. – 242 с.
35. Джусупов Н. М. Тюркский символ в художественном тексте (Лингвокогнитивный аспект): Монография — Астана: Издательство «Сарыарка», 2011.
36. Добровольский Д.О, Национально-культурная специфика во фразеологии (I) Журнал Вопросы языкознания. – М., 1997. – №6 180 с.
37. Емельянова Т.А. Структурно-семантические особенности французских медицинских терминов-фразеологизмов латинского происхождения / Т.А. Емельянова // Культура народов Причерноморья. – П., 2008. - №140. – 246.
38. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. – М.: Российск. гос. гуманит. ун-т, 2000. – 382 с.
39. Залевская А.А. Общенаучная метафора «живое знание» и проблема значения слова // Вестник Тверского государственного университета. – Серия «Филология». – Т., 2007. - № 12. – Вып. 7 «Лингвистика и межкультурная коммуникация», – 233 с.
40. Залевская А.А. Психолингвистические исследования. Слово. Текст: Избранные труды. – М.: Гнозис, 2005. – 543 с.
41. Зубкова О. С. Медицинская метафора и медицинская метафора-термин в индивидуальном лексиконе (экспериментальное исследование) [Электронный ресурс] // Знание. Понимание. Умение. – М., 2010. № 1. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskaya-metafora-i-meditsinskaya-metafora-termin-v-individualnom-leksikone-eksperimentalnoeissledovanie>
42. Зубкова О.С. Особенности использования медицинской метафоры // Материалы Всероссийской научной конференции «Языковая личность как предмет теоретической и прикладной лингвистики» / Под ред. М.Ф. Чикуровой. - Тула, Изд-во ТулГУ, 18-20 марта 2004. – 485 с.
43. Зубкова О. С. Медицинская метафора-термин в профессиональном дискурсе [Электронный ресурс] / О. С. Зубкова. – Режим доступа: <http://tl-ic.kursksu.ru/pdf/005-07.pdf>. – Дата доступа: 19.06.2019.]

44. Ибн Сина (Авиценна). Избранные философские произведения. – М.: Наука, 1980. – 87 с.
45. Isajon Sulton. Ozod//Sharq yulduzi. – Т., 2011 yil, 4-5 sonlar. – В. 31.
46. Канделаки Т. Л. Значения терминов и системы значений научно-технических терминологий // Проблемы языка науки и техники. Логические, лингвистические и историко-научные аспекты терминологии. – Москва: Наука, 1970. – 255 с.
47. Карасик В.И., Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт как элемент языкового сознания // Методология современной психолингвистики. – Барнаул, 2001. – 176 с.
48. Караулов Ю.Н., Баранов Л.Н. Русская политическая метафора. Материалы к словарю. –М.: Институт русского языка АН СССР, 1991. – 193с.
49. Каримов У.И., Сале М.А. Абу Али ибн Сино «Канон врачебной науки». 4 тома. – Т.: Издательство “Фан”, 1979.
50. Кассирер Э. Сила метафоры // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – 184 с.
51. Кацнельсон С.Д. Категории языка и мышления: Из научного наследия. – М., 2001. – 863 с.
52. Кёстлер А. Многозначность в языке и способы её представления. – М.: Языки ... 1967. – 115 с.
53. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. — 352 с.
54. Колшанский Т.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – М.: Наука, 1975. – 232 с.
55. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов: [учебное пособие]. – 4-е изд. испр. – М.: КДУ, 2014. – 348 с.
56. Кошарная С. А. В зеркале лексикона: Введение в лингвокультурологию: Учеб. пос. для студ. вузов по спец. 021700 «Филология». - Белгород: Изд-во Белгород, гос. ун-та, 1999. - 141 с.
57. Кубрякова Е.С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика психология - когнитивная наука // Вопросы языкознания. - М., 1994. - № 4. – 234 с.
58. Кубрякова Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира / РАН. Ин-т языкознания. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

59. Лакофф Дж. Когнитивная семантика // Язык и интеллект: Сб. / Пер. с англ. и нем. / Сост. и вступит. ст. В.В. Петрова. – М.: Прогресс, 1995. – 343 с.
60. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: пер. с англ. / под ред. и с предисл. А.Н. Баранова. Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 256 с.
61. Лебедева С.В., Зубкова О.С. Медицинская метафора в современном языке: Монография. – Курск: Изд-во КГУ, 2006. – 129 с.
62. Лейчик В. М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: КомКнига, 2007. 284 с.
63. Лейчик В.М. Языки для специальных целей функциональные разновидности современных развитых национальных языков. // Общие и частные проблемы функциональных стилей / Отв. ред. М.Я. Цвиллинг. – М.: Наука, 1986. – 189 с.
64. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T. 2017.
65. Mahkamov N. Terminologiyada «ekonomiya prinsipi» // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 1986. Метафора в языке и тексте / В. Г. Гак, В. Н. Телия, Е. М. Вольф и др., Отв. ред. В. Н. Телия; АН СССР, Ин-т языкознания. – М.: Наука, 1988. - 176 с.
66. Микешина Л.А. Философия науки. Современная эпистемология. Научное знание в динамике культуры. Методология научного исследования. – М.: Флинта, 2005. – 464 с.
67. Мирвалиев С. Ўзбек адаблари. – Т.: Фан, 1993.
68. Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. № 4. – Б. 215.
69. Митрофанова О.Д. Научный стиль речи: проблемы обучения. – М.: Русский язык. – 198 с.
70. Мишанкина Н. А. Метафора в науке: парадокс или норма? – Томск: Изд-во Томского ун-та, 2010. – 282 с.
71. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Т.: Фан., - 1976, - Б. 88.
72. Никитина С.Е. Семантический анализ языка науки. – М.: Наука, 1987. – 141 с.
73. Опарина Е. О. Исследование метафоры в последней трети XX в. / Лингвистические исследования в конце XX в.: Сб. обзоров / исслед. Отдел языкознания, редколл.: Ф.М. Березин. – М., 2000. – 304 с.
74. Ортега-и-Гассет Х. Две великие метафоры / пер. с исп. Н. Д. Арутюновой // Теория метафоры: сб. / Пер. с англ., фр., нем., исп., польск.

яз. под ред. Н. Д. Арутюновой, М. А. Журинской; Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой. -М.: Прогресс, 1990. – 367 с.

75. Петров Б. Д. Ибн Сина – творец «Канона». В кн. «Очерки истории отечественной медицины». – М., 1962.

76. Полозова И. В. Глубинные основания метафоры // Вест. МГУ. Сер. 7. Философия. – М., 2004. - № 3. – 475 с.

77. Полозова И. В. Онтологические основы метафоры // Философские науки. —М., 2003. - №4. – 252 с.

78. Попова Т.Г. Metaphor as a mental and language mechanism // Cross-cultural communication and translation questions// Language, Literature and Culture as Domains of Intercultural Communication. International scientific seminar October 26, 2014. Proceedings of International Seminar. – Prague, Czech Republic, 2015. – P. 478. (<http://www.famous-scientists.ru/14600>).

79. Попова Т.Г., Курочкина Е.В. Метафора как языковой и ментальный механизм // Язык и культура. – Томск, Томский государственный университет, 2015. – № 1 (29). – 153 с.

80. Попова Т.Г., Сачкова Е.В. МЕТАФОРА В НАУЧНОМ СТИЛЕ // Международный журнал экспериментального образования. – М., 2016. – № 2-2. – с.560; URL: <http://www.expeducation.ru/ru/article/view?id=9590> (дата обращения: 27.09.2019).

81. Прохорова В.Н. Русская терминология: Лексико-семантическое образование / В.Н. Прохорова. – М.: МГУ, 1996. – 126 с.

82. Расулов А., Каюмов А.П. Абу Али ибн Сино «Тиб қонунлари» 4 том. – Т. “Фан” нашриёти, 1979.

83. Ричарде А.А. Философия риторики // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990.

84. Рябцева Н.К. Язык и естественный интеллект / РАН, ин-т языкознания. – М.: Academia, 2005. - 640 с.

85. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии / Пер. с англ. под ред. и с предисл. А. Е. Кибрика.- 2-е изд. – М.: Прогресс, 2002.-655с.

86. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988.

87. Синельников, Ю. Г. / Метафора как средство образования медицинских терминов (на материале французской прессы) / Ю. Г. Синельников, Я. С. Подорванова // Науч. ведомости Белгор. гос. ун-та. – Б., 2014. – Т. 21, №6 (177) – 323 с.

88. Склярская Г.Н. Метафора в системе языка. – М., СПб.: Наука, 1993. 151 б.

89. Смирнова Е.В. Метафора как наиболее продуктивный способ формирования новых терминов в кардиологической лексике (на примере английского и русского языков) [Электронный ресурс] // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2. Филология и история искусства. – А., 2011. № 1. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/metaforakak-naibolee-produktivnyy-sposob-obrazovaniya-novyh-terminov-v-kardiologicheskoy-leksike-na-primere-angliyskogo-irusskogo>

90. Смирнова Е.В. Способы образования новых терминов в языке медицины // Вестник гуманитарного факультета ИГХТУ – И., 2009. №4. – 590 с.

91. Sodiq SAYHUN. Tilning mavqei - elning mavqei. El. manba www.shifokorvahayot.uz. 23 oktyabr 2020 y.

92. Sobirjonov A. “Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar” \ Yosh olimlar xalqaro konferansiyasi. – Toshkent, 2020. Соссюр Ф. де Труды по языкознанию. Переводы с французского языка под ред. А. А. Холодовича. — Москва: Прогресс, 1977. – 695 с.

93. Степанов Ю.С. В трёхмерном пространстве языка (Семиотические проблемы лингвистики, философии, искусства). – М.: Наука, 1985. – 332 б.

94. Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – 311 с.

95. Степанов Ю.С. Основы общего языкознания. – М.: Просвещение, 1975. – 271 с.

96. Стернин И.А. О двух условиях семантического варьирования слова // Лексическое значение в системе языка и в тексте. – Волгоград, 1985. – 216 с.

97. Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: Изд-во Воронеж, гос. ун-та, 1979. – 156 с.

98. Стоянова Е. Метафора сквозь призму лингвокультурной ситуации. Шумен: УИ «Епископ Константин Преславски», 2013.

99. Тарасова В.К. Метафора качества и метафора отношения. // Теория и методы семасиологических исследований. – Л., 1979. – 186 с.

100. Татаринов В.А. Введение в терминоведение. – М., 1996.

101. Телия В.Н. Вторичная номинация и ее виды / В.Н. Телия // Языковая номинация: Виды наименований /отв. ред. Б.А. Серебренников, А.А. Уфимцева. – М.: Наука, 1977. – 120 с.

102. Телия В.Н. Метафора как модель смыслопроизводства и её экспрессивно-оценочная функция // Метафора в языке и тексте. – М.: Наука, 1988. – 352 с.
103. Телия, В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира Текст. / В.Н. Телия // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. - 140 с.
104. Toxir Malik «Shaytanat». – Т.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018 у.Тоҳиров З. Метафора лексема-семемасининг прагматик семаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1983. - № 1. – 175 б.
105. Tursunov U., Muhtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Т.: O‘zbekiston, 1992. – 399 b.
106. Umurqulov B. Poetik metafora va uning she’riy nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti . – Т., 1980. № 6.
107. Usmonov S. Metafora // O‘zbek tili va dabiyyoti. – Т., 1964. - № 4.Уфимцева А. А. Лексическое значение. Принцип семиологического описания лексики. – М.: Наука, 1986. - 227 с.
108. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры (1991-2000): монография / Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2001. – 238 с.
109. Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: Наука, 1973. – 280 с.
110. Юлдашев А. Идиоматик кўшма сўзларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Монография. – Т. 2016. – 192 б.
111. Bickerton D. Introduction to the linguistic theory of metaphor / D. Bickerton // Theory of metaphor. – М., Progress, 1990 . - p. 284 - 306.
112. Black M. More about Metaphor // Metaphor and Thought / Ed. by A.Ortony. Second Edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 19-41.
113. Bleykher V. M. Dictionary of psychiatric terms/V. M. Bleykher, I. V. Kruk. – URL http://www.syntone.ru/library/books/content/3484.html?current_book_page=all
114. Boers F. When a Bodily Source Domain Becomes Prominent: The Joy of Counting Metaphors in the Socio-Economic Domain // Metaphor in Cognitive Linguistics / Ed. by R.W. Gibbs, G. Steen. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. -P. 47-56.
115. Brown T. L. Making Truth. The Roles of Metaphor in Science. Urbana - Chicago: University of Illinois Press, 2003. - p. 232.

116. Cameron L. Identifying and Describing Metaphor in Spoken Discourse Data // Researching and Applying Metaphor / L. Cameron & G. Low (Eds.). -Cambridge: Cambridge University Press, 1999. P. 105-132.
117. Chomsky N, Key thinkers in linguistics and the philosophy of language. – Edinburgh, 2005.
118. Davidson D. What Metaphors Mean // Pragmatics. Edited by Steven Davis. – New York: Oxford Univ. Press, 1991. P. 495-506.
119. Fauconnier G. Mental Spaces : Aspects of Meaning Constructions in Natural Language.- Cambridge, 1994.
120. Feierman S. (1985). 'Struggles for Control: the social roots of health and healing in modern Africa'. African Studies Review, 28 (2&3) June-September 1985, – P. 237
121. Felber H. Terminology Manual. Intern. Inf. Center for Terminology. – Paris. 1984. p. 320.
122. Fillmore C.J. «U»-semantics, second round // Quaderni di semantica.-Bologna, 1986. Vol.7 - N1. - P.48-49.
123. Fraser B. The Interpretation of Novel Metaphors // Metaphor and Thought / Ed. by A. Ortony. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. - P. 329-341.
124. Fricke C: Falsity, ambiguity, and metaphors. www.uqtr.quebec.ca/AE/vol_2/fricke.html (Last accessed May 10, 2008).
125. Gardiner A. The Theory of Speech and Language, 2nd ed. – Oxford, 1951.
126. Jackendoff R. What is a concept, that a person may grasp it? // Mind and Language. – E., 1989. - Vol. 4. - № 1/2.
127. Jakobson R. Essais de Linguistique générale. – Paris: Seuille, 1963. – 175 p.
128. Kittay E. F. Metaphor: Its Cognitive Force and its Linguistics Structure. -Oxford: Claredon Press, 1987. – 397 p.
129. Kovecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2010.
130. Lakoff G. The contemporary theory of metaphor // Metaphor and Thought / Ed. by Andrew Ortony. Second Edition. - Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 202-251.
131. Lakoff, G. and Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. – Chicago and London: University of Chicago Press. – P. 58
132. Reisfield, G. Use of Metaphor in the Discourse on Cancer [Electronic resource] / Gary M. Reisfield, George R. Wilson // Journal of Clinical Oncology, 2004. – <http://jco.ascopubs.org/content/22/19/4024.full>.

133. Skinner H. The origin of medical terms. – L., 1949.
134. Tercedor Sanchez, M. Urena Gomez Moreno, J. M. & Prieto Velasco, J. A. Grasping metaphoric and metonymic processes in terminology. Journal of Specialized Translation, – S., 2012. – P. 452.
135. Turner M. An Image-schematic Constraint on Metaphor // Conceptualizations and Mental Processing in Language / Eds. R. A. Geiger and B. Rudzka-Osty. – Berlin; New York: Moulton de Gruyter, 1993. – P. 291-306.

III. Dissertatsiya va avtoreferatlar

136. Аллаяров Х. А. История народной медицины Средней Азии: Автореф... дис. доктора мед. наук. – Москва, 1993.
137. Бушин И.В. Формирование вторичных терминосистем и их специфика: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Саратов, 1996.
138. Володина М.Н. Когнитивно-информационная природа термина и терминологическая номинация: Автореф. дис. докт. филол. наук. – М., 1998.
139. Гаврилина И.С. Моделирование и когнитивные основания терминосистемы профилактической токсикологии в современном английском языке: Дис. канд. филол. наук. – М., 1998.
140. Гасица Н. А. Ассоциативная структура значения слова в онтогенезе: афтореферат дисс. канд. филол. наук. – М., 1990.
141. Гринев С.В. Основы лексикографического описания терминосистем: Автореф. дис. докт. филол. наук. – М., 1990.
142. Гущина Людмила Николаевна «Сравнительно-сопоставительный анализ медицинских терминов в области онкологии в русском и английском языках»: Дис. ... канд. филол. наук: 10.02.20. - Москва, 2004.
143. Динес Л.А. Специфика составного термина в частноотраслевой терминосистеме: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Л., 1986.
144. Дудецкая С. Г. Метафоризация как способ терминообразования (на материале английской терминологии черепночелюстно-лицевой хирургии и стоматологии). Автореферат дисс. к. филол. наук. – Самара, 2007

145. Загрекова Е.Н. Истоки и развитие российской медицинской терминологии: Автореф. дис. к. филол. н. – Саратов, 2008.
146. Qobuljonova G.K., Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – T., 2000.
147. Qosimov A. O‘zbek tilida tibbiy atamalarning xosil bo‘lish usullari: Filologiya fanlari doktori... dis. - Toshkent, 1984.
148. Mamadaliyeva M.A. O‘zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti: Filol. fanlari nomzodl... dis. avtoref. – B., 1998.
149. Maxmaraimova Sh. O‘zbek tili metaforalarining antropotsentrik tadqiqi (nominativ aspekt): Fil.fanlari doktori dis. – Samarqand, 2020
150. Mirahmedova Z. O‘zbek tili anatomik terminologiyasi: Filol. fan.nom. avtoreferati. – Toshkent, 1994.
151. Mirtadjiyev N. Perenosnie znacheniya i ix manifestatsiya v uzbekskom yazike.: Avtoref. dis. ...dokt. filol. nauk. – Tashkent, 1989.
152. Nishonov P.P. Fransuz va o‘zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filol.fan.nomzodi....diss. avtoref. – Toshkent, 2009.
153. Озингин, М. В. Роль метафоры в построении и функционировании российской медицинской терминологии: автореф. дис. ... PhD: 10.02.01. – Саратов, 2010.
154. Полозова И.В. Метафора как средство философского и научного познания. [Электронный ресурс]: дис...д-ра филос. наук. – М.: РГБ, 2003.<http://diss.rsl.ru/diss/03/1076/031076044.pdf>
155. Рудинская Л. С. Современные тенденции развития гематологической терминологии: Автореф. дис. . к. филол. н. – М., 2000.
156. Xudayberganova D.S. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. dok-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2015.
157. Юрков Е. Е. Метафора в аспекте лингвокультурологии : автореф. ... дис. д-ра филол. наук: 10.02.01. – М. СПб., 2012. URL: <http://dissers.ru/avtoreferati-doktorskih-dissertatsii1/a358.php>.
158. Husanov A. Nazvaniye bolezney i ix simptomov v uzbekskom yazike: Dis. kand.fil.nauk. – Tashkent, 1982Sobirov A. O 'zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 2004.

IV. Lugʻatlar

159. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o‘zbekcha izohli lug‘ati. – T.: O‘qituvchi, 1983. – 376 b.

160. O‘zbek tili izohli lug‘ati. / A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
161. Арутюнова Н.Д. Метафора // Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М.: Советская энциклопедия, 1990.
162. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966.
163. Большая медицинская энциклопедия. 3-е изд., перераб. и доп. – М., 1974-1982.
164. Борисович А.И., Ковешников В.Г., Роменский О.Ю. Словарь терминов и понятий по анатомии человека. – М., 1990.
165. Васильева Н.В. Термин // Языкознание: Большой энциклопедический словарь. – М., 1998. – 508 с.
166. Медицинский справочник. История развития медицины. – М., 2005.
167. To‘raqulov Y. Tibbiy ensiklopedik lug‘at: "Ensiklopediyalar bosh nashriyoti", – T. 1994
168. Usmanxodjayev A.X., Basitxanova E.I., Nazirov P.X., Turaxanova M.S. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati. I, II jildlar. – T.: Sug‘diyona nashriyot uyi, 2009. – B. 1132.
169. Ensiklopedicheskiy slovar meditsinskix terminov: v 3 t. / gl. red. B. V. Petrovskiy. – M.: Sov. ensikl. – T. 1, 1982.
170. Qosimov A. Tibbiyot atamalarining izohli lug‘ati. I, II, III, IV jildlar. – T.: "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti, 2003. MacMillan G. Medical Dictioary. – N.Y., – P. 1854.
171. Metaphors dictionary: 6500 Comparative Phrases, Including 800 Shakespearean Metaphors. I. English language Terms and phrases. II. Metaphor-Dictionaries / Elyse Sommer (I.), Dorrie Weiss (II). - Detroit: Visible Ink Press, 2001. - P. 612.

V. Internet saytlari:

172. <https://ru.citaty.net/tsitaty/653894-semiuel-dzhonson>
173. http://www.jostrans.org/issue18/art_tercedor.pdf
174. www.wikipedia.org
175. www.kun.uz
176. www.ziyonet.uz

- 177. <http://www.philology.ru>.
- 178. <http://WWW.uza>.